

# **INFORMATIKA VA AXBOROT**

## **TEXNOLOGIYALARI**

O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus,  
kasb-hunar ta’limi muassasalarining  
o‘quvchilari uchun darslik  
1-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

**«Extremum-press»**  
**Toshkent – 2018**

**UO‘K 004(075.32)**

**KBK 32.81ya72**

T 17

**Mualliflar:**

Taylaqov Norbek Isaqulovich

Axmedov Akrom Burxonovich

Pardayeva Mehriniso Doniyorovna

Abdug‘aniyev Abduvali Abdulhayevich

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich

*Pedagogika fanlari doktori, professor N.I.Taylaqovning  
umumiy tahriri ostida.*

**Taqrizchilar:** S. Tursunov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Informatika o‘qitish metodika” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

A. G‘aniyev – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Axborot xavfsizligini ta’minlash” kafedrasи mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

B. Ibragimov – Toshkent pedagogika kasb hunar kolleji “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchisi.

G. Hakimova – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 260-sonli umumta’lim mакtabining “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchisi.

**Shartli belgilar:**



– darsning boshlanishi;



– yodda saqlang;



– savol va topshiriqlar;



– uyga vazifa.

**ISBN 978-9943-5127-2-6**

## **SO‘Z BOSHI**

### ***Qadrli o‘quvchilar!***

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti hamda umumiy o‘rta ta’limning “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha malaka talablari asosida yaratilgan.

Darslikning birinchi bobida kompyuter grafikasi tushunchasi, uning turлари, **PhotoShop 6** – rastrli grafik muharririda tasvirlarni yaratish, boshqarish, turli ranglar holatlarida ishslash, tasvirlarni bog‘lash, matnlarni tahrirlash, palitralarni birlashtirish imkoniyatlari bilan tanishasiz.

Darslikning ikkinchi bobida web-sahifa, web-sayt, web-dizayn tushunchalari, **Macromedia Flash 8** dasturi yordamida web-sahifa yaratish, bezash va animatsiyalar yaratish imkoniyatlari bilan tanishasiz.

Darslikning uchinchi bobida axborot xavfsizligi tushunchasi, uning jamiyatdagi o‘rni, muammolar, axborotlarni himoya qilish usullari, lokal, ministaqaviy, global kompyuter tarmoqlari, tarmoq xavfsizligi chora-tadbirlari, lokal va global kompyuter tarmog‘ida saqlanayotgan axborotlarning xavfsizligini ta’minalash, elektron pochta xizmati tuzilmasi, kompyuter viruslari, antiviruslар bilan ishslashga oid ma'lumotlarga ega bo‘lasiz.

Bir so‘z bilan aytganda, darslikdagi bilimlarni o‘zlashtirib, siz uzviy ravishda informatika va axborot texnologiyalari sohasida o‘z-o‘zingizni intelektual rivojlantirish, kamolotga intilish, kognitivlik ko‘nikmalaringizni mustaqil ravishda muntazam oshirib borasiz va o‘z xatti-harakatingizni baholash imkoniyatiga ega bo‘lasiz degan umiddamiz.

*Mualliflar*

## I BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI

Siz ushbu bobni mutolaa qilib, grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari, ikki va uch o'lchamli kompyuter grafikasi turlari, PhotoShop rastrli grafik muharririda ishlash asoslari, interfeysi, uskunalar paneli va palitralari, grafik obyekt fayllari bilan ishlash, tasvirning geometrik shakl ko'rinishidagi qismini ajratib olish, tasvir bo'lagini ajratib olish usullari, tasvirlarni kadrlash va ularda shakl almashtirish amallarini bajarish, qatlamlar va ulardan foydalanish, rang tizimlari, ranglar bilan ishlash, kanallar va filtrlar haqida ma'lumot, mo'yqalam va qalam bilan ishlash, tasvirga geometrik shakllarni va vektorli obyektlarni joylash, tasvirga matn joylash haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz.



### 1-DARS. GRAFIK OBYEKTLAR VA ULARNI KOMPYUTERDA TASVIRLASH USULLARI

Inson tashqi dunyo haqidagi axborotning asosiy qismini ko'zлari yordamida qabul qiladi. Ko'rish tizimi turli obyektlarning tasvirini qabul qilib oлади. Ular yordamida insonda tashqi muhit va undagi obyektlar haqida tasavvur paydo bo'ladi.

Obyektlarning tasvirini yaratish, ularni saqlash, qayta ishlash va tasvirlash qurilmalarida tasvirlab berish kompyuterning eng qiyin va asosiy masalalaridan biridir. Kompyuterga hech qanday topshiriq berilmaganda, ya'ni bekor turganida ham ekranida ko'rinishi kerak bo'lgan tasvirni sekundiga o'nlab marta qayta ishlab ko'rsatadi.

Kompyuterning ekranida paydo bo'ladigan tasvirlar uning **videokarta** deb ataluvchi qurilmasi yordamida yaratiladi va ekranga chiqariladi. Videokartalar uchun maxsus **videoprotessorlar** ishlab chiqariladi. Videoprotessorlar kompyuterning asosiy protsessorini murakkabligi va hisoblash ishlari ni bajarish tezligi bo'yicha ortda qoldirib ketgan.

Kompyuter ekranida tasvir qanday yaratilishi bilan tanishib chiqamiz. Kompyuterning ma'lumotlarni elektron ko'rinishda tasvirlash qurilmasi **monitor** (monitor – kuzatish, nazorat) deb ataladi.

Kompyuterda bo‘layotgan jarayonlarni monitor orqali kuzatish mumkin. Monitoring tasvirlar ko‘rsatiladigan qismi, ya’ni ekrani **display** – tasvirlamoq) deb ataladi. Hozirgi paytda alohida korpusda yig‘ilgan tasvirlash qurilmalari kompyuter monitori, kompyuter bilan birga joylangan tasvirlash qurilmalari (masalan, noutbuk, planshet hamda telefonlarda) display deb atalmoqda.

Display to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘lib, uning tomonlari nisbati odatda 16 ga 9 kabi bo‘ladi. Bundan tashqari, display tomonlari nisbati 16 ga 10, 4 ga 3, 5 ga 4 kabi bo‘lishi ham mumkin. So‘nggi paytda 21 ga 9 nisbatdagi displeylar ishlab chiqarila boshlandi.  $16 \times 9$  va  $16 \times 10$  nisbatli displeylar keng,  $21 \times 9$  nisbatlilari o‘ta keng,  $5 \times 4$  nisbatlilari kvadrat displeylar deb ataladi.

Piksellar soni bo‘yicha displeylardan keng tarqalganlari va ularning nomlari quyida keltirilgan:

$320 \times 240$  CGA (**Color Graphic Adapter** – rangli grafik qurilma);

$640 \times 480$  VGA (**Video Graphic Adapter** – video grafik qurilma);

$800 \times 600$  SVGA (**Super VGA**);

$1024 \times 768$  XVGА (**eXtended VGA** – kengaytirilgan VGA);

$1280 \times 720$  HD (**High Definition** – yuqori aniqlik);

$1280 \times 800$  HD+ (HD dan ko‘proq);

$1366 \times 768$  WXVGA (**Wide XVGА** – keng XVGА);


$1440 \times 900$  HD++ (HD dan yanada ko‘proq);

$1600 \times 900$  HD+++ (HD dan yanada ko‘proq);

$1920 \times 1080$  FHD (**Full HD** – to‘liq HD);

$2560 \times 1440$  QHD (**Quadra HD** – to‘rtlangan HD);

$3840 \times 2160$  4K (4 kilo – to‘rt ming ustun) yoki UHD (**Ultra HD** – o‘ta HD).



Display ekrani satrlarga va ustunlarga ajratib chiqilgan bo‘lib, har bir qator va ustun kesishgan joyda **piksel** deb ataluvchi juda kichik tasvir bo‘laklari joylashgan. Piksellarning har biri alohida manzilga ega va mustaqil boshqarilishi mumkin. Har bir piksel uchun xotirada bir baytdan to‘rt baytgacha joy ajratilishi mumkin. Demak, har bir piksel 256 tadan 4 milliardgacha bo‘lgan ranglardan birida bo‘lishi mumkin.

Ekrandagi har bir pikselning o‘zi uchga bo‘linadi. Ulardan biri **qizil**, ikkinchisi **yashil**, uchinchisi **ko‘k** rangda porlaydi. Bu ranglar **asosiy ranglar** deb ataladi va turli nisbatda qo‘silib, tabiatda uchraydigan ranglarning deyarli barchasini yarata oladi.

**Kompyuter grafikasi** faoliyatning shunday turi-ki, unda kompyuter va maxsus yaratilgan dasturlardan foydalanib, tasvirlar yaratiladi, mavjudlari raqamli ko‘rinishga o‘tkaziladi, qayta ishlanadi, saqlanadi va qulay ko‘rinishda tasvirlanadi.

Kompyuter grafikasi o‘tgan asrning 70 – 80-yillaridan boshlab ommaviy-lasha boshladи. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi shu qadar rivojlanganki, uning ehtiyojlarini qondirish kompyuter texnikasining jadal rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kompyuter grafikasi ilm-fanga, tijoratga, san’at va sportga ham tegishli bo‘lib, barcha sohalarda keng qo‘llaniladi. Kompyuter grafikasi bo‘yicha har yili ko‘plab konferensiyalar o‘tkaziladi, ilmiy jurnallar va o‘quv qo‘llanmalari chop etiladi, dissertatsiyalar himoya qilinadi.

Har yili bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va sotiladi. San’at durdonalari yaratiladi. Kompyuter grafikasi asosida yaratilgan elektron o‘yinlar bo‘yicha jahon birinchiliklari o‘tkaziladi va ularda millionlab qatnashchilar ishtirok etadilar.

Kompyuter grafikasi nimaning tasviri yaratilishiga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi: 1) **statsionar** (o‘zgarmas) yoki **oddiy grafika**; 2) **kompyuter animatsiyasi**; 3) **multimedia**.

Oddiy grafika vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmaydigan tasvirlarni yaratish bilan shug‘ullanadi. Ularga misol sifatida rasmlar, fotosuratlar, chizmalarni keltirish mumkin. Kompyuter animatsiyasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan tasvirlar yaratadi. Masalan, multfilmlar, videoklip va videoroliklar.

Multimedia mahsulotlari rasmlar va animatsiya bilan birga boshqa turdagи axborotlarni, masalan, ovoz va matnni ham o‘z ichiga oladi. Multimedianing o‘ziga xos jihatи uning interfaolligi bo‘lib, unda bir joydan ikkinchi joyga o‘tish imkoniyati ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Multimediaga yorqin misol sifatida butun olam to‘ri – [wwwni](#), undagi [www](#)-saytlar va [www](#)-sahifalarni keltirish mumkin.

Qaysi sohada ishlatilishiga qarab, grafika quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Ilmiy grafika.** Ilmiy izlanishlar va ularning natijalarini tasvirlash uchun.
2. **Tijorat grafikasi.** Iqtisodiy ko‘rsatkichlar va jarayonlarni yaqqol ko‘rsata bilish uchun xizmat qiladi.
3. **Konstrukturlik grafikasi.** Iqtisodiyot, texnika, qurilish va boshqa sohalarda loyihalash ishlarini osonlashtirish, yaxshilash, jadallashtirish va avtomatlashtirishni ta’minlaydi.
4. **Illyustrativ grafika.** Xizmat ko‘rsatishning turli sohalarida bezatish ishlarida foydalilanildi.
5. **Badiiy grafika.** San’at asarlarini yaratishda keng qo‘llaniladi.



## YODDA SAQLANG !

Har bir pikselning rangi **qizil**, **yashil** va **ko‘k** ranglarning turli nisbatdagi aralashmasidir.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Videokarta qanday vazifa bajarishini tushuntirib bering.
2. Kompyuter ekranida tasvirlar qanday yaratiladi?
3. Monitor, display deb nimaga aytildi? Ularning qanday farqi bor?
4. Piksel deganda nimani tushunasiz?
5. Kompyuter grafikasining turlari va sinflarini aytib bering.
6. Diagonali 20 dyuym va o‘lchamlari  $4 \times 3$ ,  $5 \times 4$ ,  $16 \times 9$ ,  $16 \times 10$  nisbatda bo‘lgan monitorlarni bitta chizmada tasvirlang va ularni solishtiring.



## UYGA VAZIFA

UHD turidagi ekranni chizing. Uning o‘ng yuqori burchagiga boshqa turdagи ekranlarni piksellari soniga qarab joylang. Ularning yuzalari nisbatini toping.



## 2-DARS. IKKI VA UCH O‘LCHAMLI KOMPYUTER GRAFIKASI TURLARI

Yaratish usuliga ko‘ra kompyuter grafikasi ikki guruhgа ajratiladi:


- 1) **2D** (inglizcha **two dimension** – ikki o‘lchamli jumlasidan olingan).
- 2) **3D** (inglizcha **three dimension** – uch o‘lchamli jumlasidan olingan).

Ikki o‘lchamli grafika yassi va tekis sirtlarda yaratilgan tasvirlar bo‘lib, ularga misol sifatida printerda qog‘ozga chop etilgan fotosurat, rassom to-

monidan **xolst** (maxsus mato)da chizilgan rasmlarni keltirish mumkin. Ikki o'lchamli grafikaning turlari bilan keyingi sahifada bat afsil tanishamiz.

Uch o'lchamli grafika yordamida hajmga ega jismlar tasvirlanadi. Bunda jismning fazoda egallagan o'rni mayda kublar bilan to'ldiriladi. Agar bu kublar yetarlicha kichik bo'lsa, inson ko'zi ularni ilg'amaydi va kublar yaxlit bir jism sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Lekin hozirgi paytda boshqacha yo'l tutiladi. Jismning o'zi emas, balki uning chegarasini tashkil etuvchi sirt shakllantiriladi. Natijada ko'zlarimiz oldida jismning o'zi namoyon bo'ladi.



Bunda jism sirti mayda uchburchaklar bilan qoplab chiqiladi. Agar bu uchburchaklar yetarlicha kichik bo'lsa, ko'z bu uchburchaklardan iborat to'rni ilg'amaydi va jism bir butun holda shakllanadi.

To'r ko'zga tashlanmasligi uchun jism sirti bo'yab chiqiladi. Yorug'lik manbalari jism sirtini yoritishini va jismning soyasini inobatga olsak, uch o'lchamli jismning sirtini bo'yash katta hajmdagi hisob-kitoblarni bajarishga olib kelishi ma'lum bo'ladi.

Uch o'lchamli grafikadan animatsiya, kompyuter o'yinlari va **virtual** (xayoliy) **borliq** yaratishda keng foydalaniлади. Virtual borliq, asosan, maxsus bosh kiyim – **shlemlarda** tasvirlanadi. Bunda har bir ko'z uchun alohida tasvir yaratiladi. Ular birgalikda tasvirni uch o'lchamda ko'rish imkonini yaratadi.



Uch o'lchamli grafikadan ikki o'lchamli grafikada ham, ayniqsa,

animatsiyada keng foydalilaniladi.

Ikki o'lchamli kompyuter grafikasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) **rastrli grafika**; 2) **vektorli grafika**; 3) **fraktal grafika**.

Rastr so'zi informatikaga televideniyedan kirib kelgan bo'lib, lotin tilidagi **rastrum – xaskash, omoch** so'zidan olingan. Monitor ekranida tasvir televizor ekranidagi kabi yaratiladi. Hozirgi paytda ekrandagi tasvir ham raqamli ko'rinishda yaratiladi: tasvir qatorlar va ustunlarga bo'linadi, tasvirning mayda bo'laklari – piksellardan iborat bo'ladi.

Rastrli tasvirlar skanerlar, raqamli fotoapparatlar, shu jumladan, telefonning fotokameralarida yaratiladi. Kompyuter ekranidagi tasvirdan nusxa olin-ganda ham rastrli tasvir paydo bo'ladi. Printerlarda chop etilgan tasvirlar ham rastrlar orqali yaratiladi.



**Rastrli tasvirning o'lchami** deganda undagi ustunlar va satrlar soni tushuniladi. Masalan,  $3200 \times 2400$  o'lchamli tasvirda 7 million 680 mingta,  $1920 \times 1080$  o'lchamlisida 2 million 73 ming 600 ta piksel bor.

**Rastrlar zichligi** deganda uzunlik birligiga mos keladigan piksel-lar soni tushuniladi va **dpi (dots per inch – bir dyuymdagi nuqtalar)** da o'lchanadi. Masalan,  $3200 \times 2400$  o'lchamli tasvirni 300 dpi zichlikda chop etish uchun  $11 \times 8$  dyuym<sup>2</sup> yoki  $27 \times 20$  sm<sup>2</sup> o'lchamli qog'oz kerak bo'ladi.


Rastrli grafikaning afzalliklari: har qanday tasvirni saqlay olishi, tasvirning sifatlari bo'lishi, deyarli barcha qurilmalar u bilan ishlay olishi-dir. Kamchiliklari: uni saqlash uchun katta hajmdagi xotira kerakligi, masshtab kattalashtirilganda tasvir sifati pasayishi, ba'zi amallarni bajarish ko'p hisob-kitoblar talab qilishidir. Shunga qaramay, rastrli grafika kompyuter grafikasining barcha sohalarida keng qo'llaniladi.

Oddiygina  $500 \times 500$  o'lchamli kvadratni saqlash uchun 250 mingta piksel va 0,25 – 1 MB xotira kerak bo'ladi. Lekin biz bu kvadratni **Pascal** dasturlash tilida **Rectangle(0, 0, 500, 500)** buyrug'i orqali oson-gina yarata olamiz va bunda bizga bor-yo'g'i 22 bayt kerak bo'ldi.

Tasvirlarni oddiy grafik shakllar yordamida yaratish **vektor grafika-sining** asosini tashkil etadi. Vektor grafikasida tasvir oddiy shakllarning yig‘indisi ko‘rinishi ifodalanadi, saqlanadi va tasvirlanadi. Natijada tasvirlarni yaratish, qayta ishlash, saqlash va tasvirlash osonlashadi. Ularni saqlashga kam joy talab qilinadi, tasvirning masshtabi kattalashtirilganda uning sifati yomonlashmaydi. Lekin vektor grafikasi yordamida fotosuratlarni saqlashning iloji yo‘q.

Vektor grafikasidan chizmalar, animatsiyalar yaratishda keng foydalilaniladi. Operatsion tizimdagи shriftlar vektor grafikasi asosida yaratilgan va ularning yuqori sifati barcha tomonidan e’tirof etilgan.

**Fraktal** so‘zi lotinchа **fractus** so‘zidan olingan bo‘lib, **maydalangan**, **bo‘lib chiqilgan** degan ma’noni bildiradi. Fraktallar deb o‘ziga o‘xshash qismlardan iborat bo‘lgan geometrik shakllarga aytiladi.



Fraktal atamasi fanga 1975-yili kiritilgan bo‘lib, u qisqa vaqt ichida juda ommaviy lashib ketdi. Fraktallar oddiy matematik formulalar yordamida ajoyib tasvirlar yaratish imkonini beradi. Ular yordamida daraxtlar, o‘rmonlar, bulutlar, mavjlanayotgan dengiz, alanga va tutun, oqayotgan suyuqlik kabi tasvirlarni yaratish mumkin. Fraktallardan virtual borliq, animatsiya, kompyuter o‘yinlari va matematik modellashtirishda keng foydalaniladi.



## **YODDA SAQLANG !**

Rastrli grafika keng tarqalgan grafikadir.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Ikki o‘lchamli kompyuter grafikasi turlarini, ularning afzalliliklarini

aytib bering.

2. Rastrli grafika o'lchami nima va uni saqlash uchun qancha xotira kerak bo'ladi?
3. Fraktallar haqida nimalarni bilasiz?
4. Uch o'lchamli grafika haqida nimalarni bilasiz?
5. Kvadrat chizing. Uni to'qqizta kvadratga ajrating. Burchaklarda-gi to'rtta kvadratni olib qolib, qolganlarini o'chirib tashlang. Qolgan kvadratlarni ham shu usulda qayta ishlang.



## UYGA VAZIFA

Dars mavzusи bo'yicha 6 ta test tuzing.

### 3-DARS. PHOTOSHOP – RASTRLI GRAFIK MUHARRIRIDA ISHLASH ASOSLARI. PHOTOSHOP INTERFEYSI

Rastrli grafikani, masalan, fotosuratlarni, tahrirlash ko'p uchraydigan amal. Fotosuratlarni olish paytida yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatish, mavjud fotosuratlardan yangisini montaj qilish, fotosuratlardi оrtiqcha narsalarni olib tashlash, fotosuratlarning muammoli joylarini boshqa qismi bilan almashtirish mumkin. Fotosuratga jilo berish, fotosuratga turli filtrlarni qo'llab ularni yangi ko'rinishga o'tkazish, fotosuratlarga matn qo'shish, fotosuratlarni boshqa sirtlarga, masalan, ko'za sirtiga o'tkazish uchun shaklini o'zgartirish bu amallardan ba'zilari xolos.

Fotograflarning ishini osonlashtirish uchun qator dasturlar ishlab chiqilgan. Ular orasida eng mashhuri [Adobe](#) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadigan [PhotoShop](#) dasturidir. Uning dastlabki versiyasi 1990-yilda yaratilgan bo'lib, hozirgi paytgacha yigirmaga yaqin versiyalari sotuvga chiqarilgan.

Ulardan dastlabki yettilasi [Adobe PhotoShop 1, 2, ..., 7](#) nomlari bilan sotuvga chiqarilgan. 2007-yildan boshlab [Adobe PhotoShop CS 1, 2, ..., 7](#) versiyalari ishlab chiqilgan. 2013-yildan boshlab yangi versiyalar [Adobe PhotoShop CC](#) deb atala boshladi. Ularning versiya nomerlari sifatida ishlab chiqilgan yillari qo'yila boshladi. Hozirgi paytda bu dasturning eng yangi versiyasi [Adope PhotoShop CC 2018](#) hisoblanadi.

Bu dasturlardan dastlabkilari asosan yakka holda ishlagan bo'lsa, ikkin-

chi guruhida **Adobe** kompaniyasining boshqa mahsulotlari bilan birga ishlash, ular bilan ma'lumot almashish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Oxirgi guruhga tegishlilarida esa internetda saqlangan tasvirlarni bir paytda turli operatsion tizimlarda ishlaydigan turli kompyuterlar, planshetlar va telefonlardan bir paytda foydalangan holda qayta ishlash imkoniyatlari yaratildi.

**PhotoShop** yordamida quyidagi amallarni bajarish mumkin.


Fotosuratning chekka qismlarini va undagi keraksiz obyektlarni olib tashlash, rasm o'lchamini va undagi piksellar zichligini o'zgartirish, rasmning saqlash formatini o'zgartirish, rasmni yoki uning bir qismini boshqa tekisllik yoki sirtda ko'rindigan qilib transformatsiyalash, fotosuratni olish paytida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, masalan, uni olish paytida ko'pushlab qolningan, oq rangning balansini o'zgarib ketishi, yorqinlik yoki kontrastlik ko'payib yoki kamayib ketishi oqibatida vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf qilish va yana ko'plab amallarni bajarishni **PhotoShop** yordamida oson amalga oshiriladi.

**PhotoShop**ning uskunalar panelida 70 dan ortiq uskuna borligining o'zi ham uning imkoniyatlari qay darajada kengligidan dalolat berib turibdi. Bundan tashqari, **PhotoShop**da o'nlab palitralar bo'lib, ular dasturda ishlashni osonlashtirishi bilan birga, uning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. **PhotoShop**ning filtrlari yordamida suratning o'zini yoki uning bir qismini butunlay qayta ishlab chiqish mumkin. Natijada fotosuratga qo'llanilgan effektlar uning tanib bo'lmas darajada o'zgarishiga olib keladi. Bunday effektlardan **PhotoShop**ga o'nlab joylashtirilgan.

Ranglarni rostlash, oq-qora suratlarga rang berish, aksincha, rangli suratlarni oq-qoraga o'tkazish, fotosuratlarni nashriyotdagi yoki uydagi fotoprinter yordamida chop etishga tayyorlash, fotosuratlarda ko'zlarning qizil rangga kirib qolishini to'g'rilash kabi amallar **PhotoShop**da oson bajariladi.

**PhotoShop** asosan, tayyor fotosuratlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, unda hayotda va tabiatda uchramaydigan yangi fantastik suratlarni yaratishning ham keng imkoniyatlari mavjud. Yangi tasvir yaratish amali tayyor fotosuratlar asosida yangisini yaratish paytida ham kerak bo'ladi. Bunda turli suratlarning bo'laklari yangidan yaratilgan suratga joylab chiqiladi.

**PhotoShop** dasturining interfeysi quyidagi qismlardan iborat: 1) sarlavha satri va asosiy menu; 2) parametrlar paneli; 3) uskunalar paneli; 4) palitralar sohasi; 5) ishchi soha; 6) holat satri.



Asosiy menyuning quyidagi bo‘limlari mavjud:

- 1) **Файл** (Fayl) – tasvirlar saqlanadigan fayllar ustida amallar;
- 2) **Редактирование** (Tahrirlash) – tasvirlarni tahrirlash amallari;
- 3) **Изображение** (Tasvir) – tasvirning umumiy parametrlarini o‘zgartirish;
- 4) **Слои** (Qatlam) – tasvir qatlamlari bilan ishlash;
- 5) **Шрифты** (Shrift) – shriftlar bilan ishlash;
- 6) **Выделение** (Ajratma) – tasvir bo‘lagini ajratish va ajratmalar bilan ishlash;
- 7) **Фильтр** (Filtr) – tasvirni butunlay yoki qisman o‘zgartirish uchun xizmat qiladigan maxsus effektlarni qo‘llash uchun ishlatiladi;
- 8) **3D** (Uch o‘lchamli) – uch o‘lchamli obyektlar bilan ishlash;
- 9) **Просмотр** (Ko‘rish) – ilovaning tashqi ko‘rinishi va undagi boshqarish obyektlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi;
- 10) **Окно** (Oyna) – ilova oynalarini, birinchi navbatda, ilova palitralarini boshqarish uchun xizmat qiladi;
- 11) **Справка** (Ma’lumot) – turli yordamlarni chaqirish uchun ishlatiladi.

Uskunalar panelida foydalanuvchi tomonidan tasvirlar bilan ishlashda

kerak bo‘ladigan uskunalar joy olgan. Uskunalar soni ko‘p bo‘lganligi sababli bitta tugma ostida odatda bir nechta uskunalar joylangan bo‘ladi. Bu uskunalarga klaviaturada bir xil harf mos qo‘yilgan. Bu harfni ketma-ket bir necha marta bosib, kerakli uskunani tanlab olish mumkin. Uskunalarga lotin alifbosining bosh harflari mos qo‘yilgan va ularni chaqirish uchun klaviatura tugmasi **Shift** tugmasi bilan birgalikda bosiladi. Bu esa klaviatura tugmasi tasodifan bosilib ketishi va uskuna ishga tushishining oldini oladi.

Parametrlar panelida tanlangan uskunaning joriy parametrlari ko‘rsatiladi. Zarurat bo‘lganda bu yerda uskunaning parametrlarini o‘zgartirish mumkin.

Palitralar sohasi **PhotoShop**ning qo‘shimcha imkoniyatlaridan foydalanishda juda qo‘l keladi. Zarur bo‘lganda u yerga palitra chaqiriladi. Kerakmas paytda palitralar olib qo‘yiladi va tasvir bilan ishlash uchun ko‘proq joy ochiladi. Palitralar ham uskunalar kabi bir nechta birlashtirilgan. Ulardan keraklisini ochish uchun palitra oynasining mos jildi ochiladi.



## **YODDA SAQLANG !**

**PhotoShop** interfeysi murakkab ko‘rinsa-da, juda qulay.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **PhotoShop**ning tarixi haqida gapirib bering.
2. **PhotoShop**ning imkoniyatlarini aytib bering.
3. **PhotoShop** interfeysi nimalardan iborat?
4. **PhotoShop** asosiy menyusining qanday bo‘limlari mavjud?
5. Asosiy menyuning Редактирование (Tahrirlash) va Окно (Oyna) bo‘limlaridagi bandlar bilan tanishib chiqing.



## **UYGA VAZIFA**

**PhotoShop** palitralar sohasiga turli palitralar chiqarishni mashq qiling



## **4-DARS. PHOTOSHOPNING USKUNALAR PANELI VA PALITRALARI**

**PhotoShop**ning uskunalar panelida 23 ta tugma bo‘lib, ular dastlab bitta ustun ko‘rinishida joylashgan bo‘ladi. Panelning sarlavha satrida joylashgan qo‘shaloq uchburchak ko‘rinishidagi tugmani bosib, uskunalarini ikki ustun ko‘rinishida joylab chiqish mumkin. Yangidan paydo bo‘lgan qo‘shaloq

uchburchaklarni yana bir marta bosib, uskunalar panelini avvalgi holatiga qaytarish mumkin.



[rectangle icon]	Прямоугольная область	M
[oval icon]	Овальная область	M
[horizontal line icon]	Горизонтальная строка	
[vertical line icon]	Вертикальная строка	
[lasso icon]	Лассо	L
[freehand lasso icon]	Прямолинейное лассо	L
[magnetic lasso icon]	Магнитное лассо	L
[frame icon]	Рамка	C
[perspective crop icon]	Кадрирование перспективы	C
[scissors icon]	Раскрайка	C
[selection tool icon]	Выделение фрагмента	C
[dodge icon]	Точечная восстановл. кисть	J
[healing brush icon]	Восстанавливающая кисть	J
[patch tool icon]	Заплатка	
[move tool icon]	перемещение с учетом содер	J
[red eyes icon]	Красные глаза	J
[stamp icon]	Штамп	S
[textile stamp icon]	Узорный штамп	S
[eraser icon]	Ластик	E
[background eraser icon]	Фоновый ластик	E
[magic eraser icon]	Волшебный ластик	E
[smudge icon]	Размытие	
[sharpen icon]	Резкость	
[hand icon]	Палец	
[brush icon]	Перо	P
[freehand brush icon]	Свободное перо	P
[plus brush icon]	Перо+	
[minus brush icon]	Перо-	
[angle icon]	Угол	
[outline selection icon]	Выделение контура	A
[arrow icon]	Стрелка	
[hand icon]	Рука	H
[rotate view icon]	Поворот вида	R
[color picker icon]	Выбор цвета линий и фона	
[color swatch icon]	Цвета по умолчанию	D
[quick mask icon]	Быстрая маска	Q
[move tool icon]	Перемещение	V
[select tool icon]	Быстрое выделение	W
[wand icon]	Волшебная палочка	W
[pipette icon]	Пипетка	I
[3D pipette icon]	Пипетка 3D	I
[color calibrator icon]	Цветовой эталон	I
[ruler icon]	Линейка	I
[comment icon]	Комментарий	I
[counter icon]	Счетчик	I
[brush icon]	Кисть	B
[pencil icon]	Карандаш	B
[color swatch icon]	Замена цвета	B
[mix brush icon]	Микс-кисть	B
[archive brush icon]	Архивная кисть	Y
[archive artist brush icon]	Архивная художес. кисть	Y
[gradient icon]	Градиент	G
[fill icon]	Заливка	G
[3D material icon]	Выбор 3D материала	G
[lighten icon]	Осветлитель	O
[darken icon]	Затемнитель	O
[rubber icon]	Губка	O
[horizontal text icon]	Горизонтальный текст	T
[vertical text icon]	Вертикальный текст	T
[horizontal text mask icon]	Горизонт. текст маска	T
[vertical text mask icon]	Вертикаль. текст маска	T
[rectangle tool icon]	Прямоугольник	U
[rounded rectangle tool icon]	Прямоуг. с окр. углами	U
[ellipse tool icon]	Эллипс	U
[polyYGON tool icon]	Многоугольник	U
[line tool icon]	Линия	U
[freehand polygon tool icon]	Произвольная фигура	U
[standard window icon]	Стандартное окно	F
[full screen menu icon]	Во весь экран с гл. меню	F
[full screen icon]	Во весь экран	F
[zoom icon]	Масштаб	Z
[color switch icon]	Переключение цветов	X

Uskunalar paneli to‘rt qismga ajratilgan bo‘lib, ularning birinchisida olti-ta, ikkinchisida sakkizta, uchinchisida to‘rtta, to‘rtinchisida esa beshta tugma joylashgan. Uskunalar panelidagi har bir tugmaga bir yoki bir nechta uskuna mos keladi.

Shu sababli, uskunalar soni bir necha marta ko‘p bo‘lib, odatda, bitta tugma ostida bir nechta uskunalar joylashgan bo‘ladi. Agar uskuna tugmasining o‘ng quyi burchagida qora uchburchak bo‘lsa, bu tugma ostida bir nechta uskuna borligini bildiradi.

Bunday tugma ustiga sichqonchani olib kelib, o‘ng tugmasini bossak, bu tugmaga mos keladigan uskunalar ro‘yxati paydo bo‘ladi va ulardan keraklisini tanlab olish mumkin. Odatda, har bir tugma uchun klaviaturada biron bir klavisha mos qo‘yilgan bo‘lib, uni ketma-ket bir necha marta bosish bilan bu tugmaga mos uskunalardan keraklisini tanlab olish mumkin.

Uskunalar ulardan foydalanib bo‘linganidan keyin ham tanlanganligicha qoladi. Bu qulay bo‘lsa-da, dastlab unga ko‘nikish qiyin kechadi. Shuning uchun uskunadan foydalanib bo‘lgach, darhol **Рука** (Dasta) uskunasini tanlashga odatlaning.

Bu uskuna uskunalar panelining to‘rtinchi bo‘limida birinchi bo‘lib joylashgan. U ishchi sohaga sig‘maydigan katta o‘lchamli tasvirning kerakli qismiga o‘tish uchun xizmat qiladi. Buning uchun tasvirning ixtiyoriy joyida sichqonchaning chap tugmasini bosib, uni kerakli yo‘nalishda sudrash yetarli. Asosiysi, bu uskuna tasvirga hech qanday o‘zgarish kiritmaydi.


Qolgan uskunalar bilan keyingi mashg‘ulotlarda, ulardan foydalanish zarratni tug‘ilganda tanishib chiqamiz. **Palitra** deb rassomlar bo‘yoqlarni aralashtirish uchun ishlatajigan taxtachaga aytildi. Uskunalar panelida 70 dan ziyod uskunalar joylashgan. Lekin ular ham **PhotoShop**ning barcha imkoniyatlari ochib bermaydi. Uskunalarning keng imkoniyatlari palitralar yordamida ochiladi. Rassomlar palitraga kerakli bo‘yoqlarni surtib, ulardan yangi rang hosil qilgani kabi **PhotoShop**da ham palitralar sohasiga kerakli palitralarni joylab, ilova bilan ishslashni yanada qulay qilib olish mumkin.

Palitralar ilova oynasining o‘ng tomonidagi palitralar sohasida joylashgan bo‘lib, muloqot oynalariga o‘xshab ketadi. Lekin ulardan farqli ravishda palitralardan keraklilarini ekranga o‘zimiz chiqaramiz yoki uni yopib qo‘yamiz. Bu palitralar yigirmadan ortiq bo‘lib, odatda, bir nechta birlashtirilgan bo‘ladi.

Ba’zi uskunalarning o‘z palitralari bor, ba’zilari esa unchalik murakkab bo‘lmay, ular bilan ishslash uchun parametrler paneli yetarli. Ba’zi palitralar-

da yangi uskunalar joylashgan, masalan, navigator, histogramma, info palitralarini yangi uskunalar deb qarash mumkin.

Ba'zi palitralarni **PhotoShopning** ajralmas qismi deb qarash mumkin. Masalan, **Слои** (Qatlamlar), **Каналы** (Kanallar), **История** (Oxirgi amallar) palitralari **PhotoShopning** o'ziga xos jihatlarini ochib beradiki, ularsiz **PhotoShopni** tasavvur ham qilib bo'lmaydi.



Palitralardan keraklisini ekranga chiqarish uchun asosiy menyuning **Окно** (Oyna) bo'limidan foydalani-ladi. Undagi bandlarning ba'zilari-da bayroqchalar o'rnatilgan va bu palitralar ekranda ko'rinish turadi. Agar kerakli palitra ustida sichqonchaning chap tugmasini bossak, uning bayroqchasi o'rnatiladi va u ekranda paydo bo'ladi. Tanlangan band ustida sichqonchaning chap


tugmasini yana bir marta bossak, bayroqcha olib tashlanadi va palitra ham ekrandan olib tashlanadi.

Misol uchun, **Навигатор** (Yo'naltiruvchi) palitrasini ekranga chiqaraylik. Uning yordamida rasm masshtabini o'zgartirish mumkin. Bu palitra **Гистограмма** (Histogramma) palitralari bilan birgalikda ishlataliladi.

Uning o'ng yuqori burchagidagi ikki tugmadan chapdagisi palitrani yashirish, o'ngdagisi ekrandan olib qo'yish uchun xizmat qiladi. Ularning ostidagi tugma palitraning menyusini ochish uchun xizmat qiladi.

Palitraning o'lchamlarini o'zgartirish uchun o'ng quyi burchagini sichqoncha yordamida sudrash kerak bo'ladi. Palitra oynasining yuqorisidagi sarlavha satrini sichqoncha bilan sudrab, oynani ekranning boshqa joyiga olib o'tish mumkin. Palitra oynasining pastki qismidagi surgichning ko'rsat-kichini sichqoncha yordamida chapga sudrab rasm masshtabini kamaytirish, o'ngga sudrab kattalashtirish mumkin. Surgichning o'ng tomonidagi tugma masshtabni kattalashtiradi. Chap tomonidagisi esa kichiklashtiradi.


Rasmning ishchi sohada ko‘rinadigan qismi qizil ramkaga olib qo‘yiladi. Ramkani sichqoncha bilan sudrab tasvirning ishchi sohadagi qismini surish mumkin.



Masshtabni o‘zgartirishning boshqa usullari ham mavjud. Ulardan eng osoni klaviaturadagi qo‘shtugmalardan foydalanishdir. **Ctrl+ "+"** (**Ctrl** va **+** tugmalarini bir paytda bosish) masshtabni kattalashtiradi. **Ctrl+ "-"** esa masshtabni kamaytiradi.

Dastak uskunasini ikki marta bosib, rasmni ishchi sohani to‘liq egallaydigan qilib, masshtab uskunasini ikki marta bosib, 100% masshtabda rasmni ekranga chiqarish mumkin. Masshtab ekranning quyi qismidagi holat satrida ham ko‘rsatiladi. Uni sichqoncha bilan tanlab, kerakli masshtabni kiritish mumkin.

Masshtab uskunasi ham rasm masshtabini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Sichqonchani bir marta bosib uni tanlaganimizda parametrlar panelida uning parametrlari paydo bo‘ladi. Undagi kerakli tugmalar yordamida masshtabni o‘zgartiramiz:



Ba’zi uskunalarda ular bilan ishlashni tugatmay turib, boshqa uskunani, shu jumladan masshtab uskunasini tanlab bo‘lmaydi. Bunday paytda **Ctrl** va **Alt** tugmalaridan foydalanish mumkin. **Ctrl**ni bosib turib, sichqonchani

ishchi sohada bir marta bossak, masshtab kattalashadi. Alt tugmasini bosib turib, sichqonchani bossak, masshtab kichiklashadi.

Ko‘rib turganingizdek, PhotoShopda bitta amalni ko‘plab usulda bajarish mumkin. Bu esa uning katta yutuqlaridan biridir.



## YODDA SAQLANG !

PhotoShopda yetmishdan ortiq uskunalar bor.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. PhotoShopda kerakli uskunani qanday tanlash mumkin?
2. Uskunalar paneli necha qismidan iborat?
3. Рука (Dasta) uskunasi vazifasini tushuntirib bering va undan foydalanishni mashq qiling.
4. Palitralar sohasidagi palitralarning vazifalari nimalardan iborat?
5. Navigator palitrasni nima uchun xizmat qiladi?
6. PhotoShopni ishga tushirib, unda a) uskunalarni tanlashni; b) palitralarni ekranga chiqarish va yashirishni mashq qiling.



## UYGA VAZIFA

Uskunalar panelining birinchi qismidagi uskunalarni yod oling.



## 5-DARS. PHOTOSHOPDA GRAFIK OBYEKT FAYLLARI BILAN ISHLASH


PhotoShopda ishni boshlash uchun unga birorta tasvirni yuklab olish yoki yangi tasvirni yaratish kerak bo‘ladi. Bu amallarni qanday amalga oshirish bilan tanishib chiqamiz.

Odatda, PhotoShopda mavjud tasvirlar qayta ishlanadi. Lekin ba’zan unda yangi tasvir yaratishga ham to‘g‘ri keladi. Yangi tasvirni yaratish uchun Ctrl+N (New – yangi so‘zidan olingan) qo‘shtugmasini bosish yoki asosiy menyuning Файл (Fayl) bo‘limining birinchi bandi Создать... (... ni yaratish) bandini tanlash kerak. Natijada ekrannda quyidagi Новый (Yangi) mu-loqot oynasi paydo bo‘ladi.

Oynaning o‘ng tomonidagi OK (Ha) tugmasini bosib, taklif qilinayotgan parametrlar bo‘yicha yangi tasvirni yaratish; Отмена (Bekor qilish) tugmasini bosib, yangi tasvir yaratishdan voz kechish mumkin.

Bu tugmalar ostidagi Сохранить набор параметров (Parametrlar to‘pla-

mini saqlash) tugmasini bosib, o‘rnatilgan parametrlardan keyingi tasvirlarni yaratishda foydalanish uchun saqlab qo‘yish mumkin. [Удалить набор ...](#) (Parametrlar to‘plamini o‘chirish) tugmasi kerak bo‘lmay qolgan parametrlar to‘plamini o‘chirib tashlash uchun xizmat qiladi. Bu tugmalar ostida yaratiladigan tasvirning hajmi ko‘rinib turadi:




Oynaning chap tomonidagi [Имя](#) (Nom) maydonchaga yangi tasvir fayli uchun nom kiritiladi. Uning ostidagi [Набор](#) (To‘plam) maydonchasida parametrlar to‘plamini tanlash mumkin. Odatda, bu parametrlar oxirgi yuklab olingan tasvir parametrlari bilan bir xil bo‘ladi. Bu ro‘yxatdan keraklisini tanlab parametrlarni birdaniga o‘zgartirish mumkin.

Parametrlarni bevosita muloqot oynasidagi maydonchalarda o‘zgartirish ham mumkin. Ulardan asosiylari [Ширина](#) (Eni) va [Высота](#) (Balandligi) lardir.

Mavjud tasvirlarni ochish uchun [Ctrl+O](#) ([Open](#) – ochish so‘zidan olin-gan) qo‘shtugmasini bosish yoki asosiy menyuning [Файл](#) (Fayl) bo‘limining birinchi bandi [Открыть ...](#) (Ochish) bandini tanlash kerak. Natijada ekranda quyidagi [Открыть](#) (Ochish) muloqot oynasi paydo bo‘ladi.

Bu muloqot oynasi bilan ishslash boshqa ilovalar, masalan, [Word](#) yoki [Excel](#) ning shu nomli muloqot oynalari bilan ishslashdan deyarli farq qilmaydi.



**PhotoShop** oxirgi ochilgan fayllar ro‘yxatini saqlab qo‘yadi. Bu ro‘yxat-dagi tasvirlarni ochish uchun asosiy menyuning **Файл** (Fayl) bo‘limidagi **Последние документы** (Oxirgi hujjatlar) bandidan foydalaniladi.

**PhotoShop**da qilingan ishlarni saqlash uchun bir nechta buyruqlar mavjud. Ulardan birinchisi **Ctrl+S** qo‘shtugmasi yordamida chaqiriladi. Bu buyruq joriy tasvirni joyi va nomini o‘zgartirmasdan saqlab qo‘yadi.

**Ctrl+Shift+S** qo‘shtugmalari yordamida chaqiriladigan saqlash buyrug‘i ekranga saqlash muloqot oynasini chiqaradi. Bu oyna yordamida tasvirni yangi nom bilan yangi joyga yangi formatda saqlab qo‘yish mumkin.

**PhotoShop**da fayllar bilan ishslash boshqa ilovalardagidan ko‘p farq qilmaydi.

Kompyuter grafikasi ommaviy tarzda qo‘llaniladi va tasvirlarni kompyuter xotirasida saqlash uchun ko‘plab formatlar ishlab chiqilgan. Ulardan ba’zilari keng tarqalgan, ba’zilari faqat tor sohada ishlatiladi.

**Bmp** (ingliz tilidagi **Bitmap Picture**) – rastrli tasvir jumlasidan olingan. Birinchi grafik formatlardan biri, **Microsoft** kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llab-quvvatlanadi. Keng tarqalgan. Lekin oxirgi paytda boshqa formatlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bermoqda.

**Gif (Graphics Interchange Format)** – tasvirlar almashish formati jumlasidan olingan. Bir faylda bir necha tasvirlarni saqlay oladi va sodda

animatsiyalar uchun juda qulay. Kam joy egallaydi. Kamchiligi shuki, ko‘pi bilan 256 ta rangni saqlay oladi. Fotosuratlarni saqlaganda katta yo‘qotishlariga yo‘l qo‘yadi. Internetda va Web dizaynda keng qo‘llaniladi.

**Tiff** (ingliz tilidagi [Tagged Image File Format](#)) – belgilab chiqilgan tasvir fayli formati jumlasidan olingan. Birinchi tasvir formatlaridan biri. Unda bir qator o‘zgartirishlar kiritilgan. [Microsoft](#), [Adobe](#), [Apple](#) kabi yirik kompaniyalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sababli hozirgi paytda ham omma-viyligicha qolmoqda. Skanerlar, fotoapparatlar ishlab chiqaruvchilar ham undan keng foydalanadilar.

**Jpeg** ([Joint Photographic Experts Group](#)) – fotografiya ekspertlarining birlashgan guruhi (Yevropa ittifoqi) tomonidan ishlab chiqilgan. Eng keng tarqalgan format. Barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Kam joy egallaydi, tasvir sifatini to‘liq saqlashi mumkin. Lekin tasvir hajmi ko‘p kamaytirilganda sifati yomonlashadi.

**Pcx** ([PC eXchange](#)) – shaxsiy kompyuterda ma’lumot almashish jumlasidan olingan. Birinchi grafik formatlardan biri. Bu formatda juda ko‘p tasvirlar saqlangan. Oxirgi paytda uning o‘rniga [png](#), [jpeg](#) formatlaridan foydalanilmoqda.

**Raw** (ingliz tilida [raw](#)) – xom, hali tayyor emas, degan ma’noni bildiradi. Sifatli fotoapparatlarda olingan suratlarni saqlash uchun ishlatiladi. Odatda, fotoapparatlar olingan suratni darhol qayta ishlab, uning hajmini kamaytiradi. Bunda fotosuratlarning sifati ba’zan biroz, ba’zan ko‘proq pasayadi. Bu formatda saqlangan fotosuratning kamchiliklarini va ularni bartaraf qilishni foydalanuvchining o‘zi tanlaydi. Bu esa yaxshi chiqmagan fotosuratlarni ham qayta tiklash imkonini beradi. Kamchiligi fotosuratlar katta hajmda bo‘lishi (25 MB gacha). Faqat qayta ishlanmagan fotosuratlarni saqlash uchun ishlatiladi. Oxirgi paytda ommaviylashib bormoqda.

**Png** ([Portable Network Graphics](#)) – tarmoq uchun portativ (ixcham) grafiqa jumlasidan olingan. Internetda keng qo‘llaniladi. U [gif](#) formati o‘rnini egallab bormoqda.

**Pdf** (ingliz tilida [Portable Document Format](#)) – elektron hujjatlar formati degan jumladan olingan. Dastlab poligrafiya mahsulotlarini elektron ko‘rinishda saqlash uchun mo‘ljallangan. Kompyuter texnikasining rivojlanishi

bilan hajmi nisbatan kattaligi, tasvirlash ko‘proq vaqt talab qilishi kabi kam-chiliklari dolzarb bo‘lmay qoldi. Hozirgi paytda keng tarqalgan. Unda matn bilan birga rastr va vektor turidagi tasvirlar ham saqlanadi. Undan tasvirlarni ajratib olsa bo‘ladi. [Adobe](#) kompaniyasi mahsuloti.

Bu formatlar yordamida tasvirlarni nafaqat [PhotoShop](#)da, balki boshqa ilovalarda ham ochish va ular bilan ishlash mumkin. [PhotoShop](#) bu formatlardan tashqari o‘zining bir nechta maxsus formatiga ham ega. Bu formatlar orasida ko‘p ishlatiladigan [.psd](#) kengaytmalisidir. Bu formatda saqlangan tasvirda [PhotoShop](#)ning barcha imkoniyatlari saqlab qo‘yiladi. Shu sababli, qayta ishslash tugallanmagan tasvirlarni shu formatda saqlash va kerak bo‘lganda ularni qayta ishslashni davom ettirish mumkin.



## YODDA SAQLANG !

Fayllar bilan ishslash amallari asosiy menyuning [Файл](#) bo‘limida joylashgan.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. [PhotoShop](#)da mavjud tasvirni ochish qanday amalga oshiriladi?
2. [PhotoShop](#)da joriy tasvirni saqlab qo‘yish qanday bajariladi?
3. [PhotoShop](#) qayta ishlaydigan asosiy formatlarni sanab chiqing.
4. [Jpeg](#), [Raw](#) formatlarining afzallik va kamchiliklarini aytib bering.
5. [PhotoShop](#)ni ishga tushiring. Unga biror tasvir yuklang va tasvirni turli formatlarda, turli joylarga saqlashni mashq qiling.



## UYGA VAZIFA

[PhotoShop](#)da yangi tasvir yaratish jarayonini mashq qiling.



## 6-DARS. PHOTOSHOPDA TASVIRNING GEOMETRIK SHAKL KO‘RINISHIDAGI QISMINI AJRATIB OLİSH

[Word](#) matn protsessorida matn bo‘lagini ajratib olishni esga olaylik. Matn harf va boshqa belgilarning ketma-ketligi bo‘lgani sababli, uning bo‘lagini ajratish uchun bo‘lakning birinchi va oxirgi belgilarini tanlash yetarli edi.

Vektorli tasvirda ham uning bir qismini ajratib olish unchalik qiyin emas. Vektorli tasvirda, masalan, [Word](#)da yaratilgan chizmada, bir nechtagina obyekt bo‘lganligi sababli ularidan keraklilarini ketma-ket tanlab chiqish

mumkin.


Rastrli tasvirda uning bo‘lagini ajratib olish u qadar oson ish emas. Unda bir necha milliongacha piksellar bor va ularni birma-bir tanlab chiqishning iloji yo‘q.

Shu sababli rastrli tasvirlarda ularning bir bo‘lagini ajratib olish uchun bu bo‘lak (soha) ning chegaralarini ajratib olish kerak bo‘ladi. Bu amal ancha qiyin bo‘lib, uni bajarish anchagina mahorat talab qiladi. Bu amalni osonlash-tirish uchun **PhotoShop**da bir qator uskunalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, asosiy menyuning oltinchi bo‘limi (**Выделение** – Ajratish) da tasvir bo‘lagini ajratish uchun ishlatiladigan buyruqlar yig‘ilgan.

Tasvirni to‘liq ajratib olish. Uni ofis ilovalaridagi kabi **Ctrl+A (All – barchasi so‘zidan olingan)** qo‘shtugma yordamida chaqirish mumkin. Bu amalni yana asosiy menyuning **Выделение** (Ajratish) bo‘limining birinchi bandi **Bce** (Barchasi) ni tanlash bilan ham amalga oshirish mumkin. Tasvirning ajratilgan qismi chegarasida harakatlanadigan uzuq chiziq paydo bo‘ladi.

Ajratishni bekor qilish uchun **Ctrl+D (Delete – olib tashlash)** qo‘shtugmasidan foydalanish yoki asosiy menyuning **Выделение** (Ajratish) bo‘limining ikkinchi bandidagi **Отменить выделение** (Ajratishni bekor qilish) buyrug‘ini tanlash mumkin.

Ajratish uskunalari uskunalar panelida birinchi bo‘lib joylashgan. Uning ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bossak, bu tugmaga mos kelgan to‘rtta uskuna ro‘yxati ekranga chiqadi. Ular quyidagi uskunalardir:




To‘g‘ri to‘rtburchakli soha uskunasi – to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishidagi sohani ajratish uchun ishlatiladi.

**Ellipssimon soha** – ellips ko‘rinishidagi sohani ajratadi.

**Gorizontal qator** – piksellarning gorizontal satrini ajratish uchun xizmat qiladi.


**Vertikal qator** – piksellarning vertikal qatorini ajratish uchun ishlatiladi.



Biror-bir sohani ajratib olish uchun sichqonchaning chap tugmasini bosib, ajratiladigan sohaning bir burchagidan ikkinchi burchagiga o'tish va tugmani qo'yib yuborish kerak bo'ladi.

Soha ajratilgach, yana bir marta yangi soha ajratilsa, eski ajratilgan soha bekor qilinadi va o'rnida yangi ajratilgan soha paydo bo'ladi. Navbatdagi soha ajratilayotgan paytda klaviaturadagi **Shift** tugmasi bosib turilsa, eski va yangi sohalar birlashtiriladi va hosil bo'lgan soha ajratiladi. Agar yangi soha ajratishda **Alt** tugmasi bosib turilsa, yangi ajratilgan soha eskisidan ayirib tashlanadi. Yangi sohani ajratishda **Alt** va **Ctrl** tugmalarining ikkalasi ham bosib turilsa, yangi soha bilan eski sohaning kesishmasi ajratib olinadi. Bu to'rtta holat yuqoridagi to'rtta suratda aks etgan.


Ajratish uskunalaridan birortasi tanlanganda parametrlar satrida bu uskularning parametrlari paydo bo'ladi. Parametrlar satrining ko'rinishi quyidagi rasmda ko'rsatilgan:



Undagi ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tugmalar mos ravishda hech qaysi tugmani bosmasdan, **Shift**, **Alt** va **Shift+Alt** tugmalarini bosib turib sohani ajratishga to‘g‘ri keladi. Ya’ni klaviaturadagi tugmalarni bosib turish o‘rniga parametrlar panelidagi tugmani bir marta bosib qo‘yish mumkin.


Oval ko‘rinishidagi sohalarni ajratish ham shu kabi amalga oshiriladi. Shuningdek, to‘rtta ajratish uskunalaridan bitta murakkab sohani ajratishda ham foydalanish mumkin.

Ajratilgan sohalardan namunalar quyidagi rasmlarda keltirilgan:



Yuqorida ko‘rilgan uskunalardan foydalaniб geometrik shakl ko‘rinishida sohalarni ajratib olish qulay. Lekin ajratilishi kerak bo‘lgan soha har doim ham bunday ko‘rinishda bo‘lavermaydi.

PhotoShopda yana bir nechta ajratish uskunalari bo‘lib, ular **Лассо** (Arqon), **Прямолинейное лассо** (To‘g‘ri chiziqli arqon), **Магнитное лассо** (Magnitli arqon) deb ataladi:



Ularning hammasi uskunalar panelida bitta **Лассо** (Arqon) tugmasi ostida yashirilgan. Ularni bu tugma ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib, paydo bo‘lgan menyudan tanlash yoki ularga mos qo‘yilgan klaviaturaning **L** harfini bir yoki bir necha marta bosish bilan tanlash mumkin.

Argon uskunasi tanlanganda sichqonchaning chap tugmasini bosib turib, sichqoncha yurgiziladi. Sichqonchaning ekrandagi izi arqon kabi uning orqasida qoladi. Chap tugmani qo‘yib yuborish bilan arqonning ikkita uchi birlashtiriladi. Hosil bo‘lgan yopiq chiziq o‘rab turgan soha ajralib qoladi.

Mashq sifatida quyidagi rasmdagi o‘ngdan uchinchi daraxtni ajratib olamiz va [Ctrl+C](#) qo‘shtugmasi bilan nusxalab, [Ctrl+V](#) qo‘shtugmasi bilan rasmga qo‘shamiz. Uni surib kerakli joyga o‘tkazamiz. Undagi avtomashinani ajratib olamiz. Undan nusxa olamiz va 5 marta rasmga joylaymiz. Har safar joylangan nusxani kerakli joyga o‘tkazishni unutmang. Aks holda bu nusxani yana ajratib olishga to‘g‘ri keladi. Qilingan ishlarning natijalari quydagi rasmlarda aks etgan:



To‘g‘ri chiziqli lasso yordamida chegaralari to‘g‘ri chiziq kesmalari bo‘lgan obyektlarni, masalan, binolarni, televizorlarni yoki ularning ekranlarini ajratib olish qulay. Mashq sifatida quyidagi rasmdagi noutbuk ekranini ajratib olaylik. Buning uchun to‘g‘ri chiziqli [Лассо](#) (argon) uskunasini tanlaymiz. Sichqonchani ekranning bir burchagiga olib kelib, chap tugmasini bosamiz, so‘ng sichqonchani navbatdagi burchakka olib kelib yana bir marta bosamiz, so‘ng uchinchi burchakda, keyin to‘rtinchchi burchakda bosib, oxiiri birinchi burchak ustida ikki marta bosamiz. Natijada kompyuter ekranini ajratib olamiz:



Ajratib olingan sohani olib tashlash uchun klaviaturadagi **Delete** (O‘chirish) tugmasini bosamiz. Ekranda muloqot oynasi paydo bo‘ladi.

Unda **Использовать** (Ishlatmoq) maydonchasida **Белый** (Oq rang) ni tanlaymiz va **OK** tugmasini bosamiz. Natijada kompyuter ekrani oq rangga bo‘yalib qoladi.



## **YODDA SAQLANG !**

Tasvir bo‘lagini qayta ishlashdan oldin uni ajratib olish kerak.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Tasvirni to‘liq ajratib olish, ajratishni bekor qilish qanday bajariladi?
2. To‘g‘ri to‘rtburchak, oval ko‘rinishidagi soha qanday ajratiladi?
3. Ajratilgan sohalar ustida qanday amallar bajarish mumkin?
4. Arqon uskunasidan qanday foydalaniladi?
5. To‘g‘ri chiziqli arqon uskunasidan qanday foydalaniladi?
6. Yuqorida berilgan mashqlarni kompyuterda bajaring.
7. Прямолинейное лассо (To‘g‘ri chiziqli arqon) uskunasi yordamida suratdagi binoni ajratib olishni mashq qiling.



## **UYGA VAZIFA**

Alt va **Shift** tugmalari yordamida tasvir sohasini ajratib olishni mashq qiling.




## **7-DARS. TASVIR BO’LAGINI AJRATIB OLISHNING BOSHQA USULLARI**

Arqon tugmasidagi uchinchi uskuna **Магнитное лассо** (Magnitli arqon) dan chegarasida fondan keskin ajralib turgan obyektlarni ajratib olishda foydalaniladi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu arqon magnit kabi obyektning chegarasiga yopishib qoladi va obyektni ajratib olish osonlashadi.

Chegarani belgilashni boshlash uchun uning biror nuqtasida sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Sichqonchani chegara bo‘ylab surganimiz sari chegarada yangi tugun nuqtalar paydo bo‘la boshlaydi.

Yangi tugun nuqta noto‘g‘ri tushib qolsa, uni klaviaturadagi **BackSpace** (Bitta belgi orqaga) tugmasini bosib, olib tashlaymiz. Chegara aniq bo‘lmagan joylarda navbatdagi tugun nuqtalarni sichqonchaning chap tugmasini bosish bilan majburan qo‘yib chiqish ham mumkin.




Ajratishni tugatish uchun sichqonchani ajratish boshlangan nuqtaga olib kelish yoki bu nuqta atrofida sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish yetarli. Mashq sifatida o‘rdakchani fonda magnitli arqon yordamida ajratib olaylik. Yuqoridagi rasmlarda tugen nuqtalarining joylashishi va tasvirning ajratish tugallandan keyingi holati ko‘rsatilgan.

[PhotoShopda](#) tasvir bo‘lagini ajratib olishning yana bir usuli bu **Волшебная палочка** (Sehrli tayoqcha)dan foydalanish. Bu uskuna nomidan ham ko‘rinib turibdiki, u mo‘jizalar yarata oladi. Bu tayoqchani olib, tasvirning biron-bir nuqtasiga tekkizsak, bu nuqtaning atrofidagi rangi tanlangan nuqta rangiga yaqin bo‘lgan barcha piksellarni ajratib oladi.

Bu uskuna yordamida tasvirning fonini ajratib olish qulay. Masalan, oldingi mashqdagi o‘rdakcha rasmini olaylik. O‘rdakcha orqasidagi fon qariyb bir xil bo‘lib, uni sehrli tayoqcha yordamida ajratib olamiz.

Sehrli tayoqcha uskunasi [Быстрое выделение](#) (Tezkor ajratish) uskunasi bilan birga joylashgan. Bu uskuna ustiga sichqonchani olib kelib, uning o‘ng tugmasini bosamiz va paydo bo‘lgan menyudan sehrli tayoqchani tanlaymiz.



Sehrli tayoqchani tanlash uchun klaviaturada [Ctrl+W](#) qo‘shtugmasini bosish ham mumkin. Tayoqchani o‘rdakcha rasmidagi fon rangidagi biror nuqtaga olib kelib, sichqonchaning chap tugmasini bosamiz.

Agar fonni emas, noutbukning o‘zini ajratib olish kerak bo‘lsa, asosiy menyuning **Выделение** (Ajratisht) bo‘limidagi **Инверсия** (Teskari) buyrug‘i beriladi yoki unga mos **Ctrl+Shift+I** qo‘shtugmasi bosiladi.

Bu rasmdagi fon bir xil bo‘lgani uchun ham fonni ajratib olish oson bo‘ldi. Odatda, rasmdagi fon bir-biriga yaqin bo‘lgan turli ranglardan iborat bo‘ladi. Yaqin ranglardan qanchasini ajratib olishni parametrlar satrida ko‘rsatish mumkin. Oldingi sahifadagi rasmda 30 soni turgan maydonchada bu parametr qiymati ko‘rsatiladi. Bu qiymat kattalashsa, ajratib olinadigan ranglar soni ham ortadi.

Bu parametrni kattalashtirgandan ko‘ra, fonni bir necha joyini tanlab ajratish yaxshiroq natija beradi. Bunda foning keyingi nuqtasini tanlashda **Shift** tugmasi bosib turilsa, ajratib olingan bo‘lak oldingisi bilan birlashtiriladi.

Quyidagi rasmda fonni sehrli tayoqcha bilan ajratib olsak, o‘ng tomondagi bulut va daraxtlar oldidagi foning bir qismi ajralmay qoladi. Ularni ham ajratib olish uchun **Shift** tugmasini bosib turib, qolib ketgan sohalarni sehrli tayoqchani bu sohalar ustida bosib, qo‘shib olamiz:



**Быстрое выделение** (Tezkor ajratish) uskunasi ham shunga o‘xshash tarzda ishlaydi. Lekin unda soha qadamma-qadam tanlab boriladi. Bunda navbatdagi tugmani bosib tanlash o‘rniga, sichqonchani chap tugmasini bosib turib sudrash bilan kattaroq sohani qo‘shib olish mumkin.



### **YODDA SAQLANG !**

Sehrli tayoqcha bilan tasvir fonini ajratib olish qulay.



### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Magnitli arqondan qanday foydalilanildi?

2. Sehrli tayoqchaning ishlash tamoyilini tushuntirib bering.
3. Tezkor ajratish uskunasi qanday ishlaydi?
4. Pasport uchun tushgan fotosuratingizni yuklang. Магнитное лассо (Magnitli arqon) uskunasi bilan rasmingizni fondan ajratib oling. Ajratmani inversiyalab fonni ajrating va uni o‘chirib tashlang.
5. Oldingi mashqdagi topshiriqni Волшебная палочка (Sehrli tayoqcha) uskunasi yordamida bajaring.



## UYGA VAZIFA

Magnitli arqonning tugun nuqtalariga yangilarini qo‘sish, eskilarini olib tashlash va inversiya amalini bajarishni mashq qiling.




## 8-DARS. TASVIRLARNI KADRLASH VA ULARDA SHAKL ALMASHTIRISH AMALLARINI BAJARISH

Fotosuratlarni olishda ko‘pincha kamchilikka yo‘l qo‘yiladi. Jumladan, kadrga ortiqcha narsalar ham tushib qoladi va ularni kadrda olib tashlashga to‘g‘ri keladi. Bunda fotosuratning chet tomonlarini qirqib tashlash kerak. Bu amalni bajarish uchun [PhotoShop](#)da maxsus uskuna bor. Uning nomi ramka bo‘lib, uni klaviaturadagi **C** harfini yoki uskunalar panelidagi tugmani bosib faollashtirish mumkin.

[PhotoShop](#)ning ishchi sohasidagi tasvirning kesib olinadigan qismining bir uchiga sichqonchani olib kelib, chap tugmasini bosamiz va uni qo‘yib yubormay qarama-qarshi uchiga qarab sichqonchani yuritamiz. Sichqonchanning tugmasini qo‘yib yuborishimiz bilan tasvirning bo‘lagi kesib olinadi va unda ramka paydo bo‘ladi.

Ramkaning to‘rt tomoni va to‘rtta burchagidagi markerlardan zaruri sihqoncha bilan sudrab, ramkaning o‘lchamlarini o‘zgartirish mumkin. Kerak bo‘lsa, ramkani markazi atrofida burishimiz mumkin. Buning uchun sichqonchani ramkaning biror burchagiga tashqi tomondan yaqinlashtiramiz. Sichqoncha kursori aylana yoyi ko‘rinishiga kelgach, chap tugmasini bosib turib, ramkani buramiz. Bu amalni quyidagi qizaloq surati ustida bajaramiz:



Bolalarni suratga olish qiyin ishligini hamma biladi. Bu suratda ham bir qator kamchiliklar bor. Qizaloq suratning bir tomoniga o‘tib qolgan va u boshini qiyshaytirib olgan. Yana bir kamchilik, yorug‘lik qizaloqqa o‘ng tomondan tushayapti, natijada uning chap yuzi o‘ng yuzidan ko‘ra to‘qroq chiqqan. Bu uning kiyimida yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Qizaloqning yuzini ramka bilan ajratib olamiz. Ramkani soat miliga tes-kari yo‘nalishda biroz buramiz. Ramkaning o‘lchamlarini yana to‘g‘rilab olamiz. [Enter](#) tugmasini bosib, o‘zgarishlarni amalga oshiramiz.

Fotosuratlarda uchraydigan kamchiliklardan yana biri bu suratga olish nuqtasining noto‘g‘ri tanlanishidir. Natijada suratga olinayotgan obyekt ro‘paradan emas, balki chap, o‘ng, past yoki yuqorida suratga olinib qoladi. Suratga olish nuqtasidan tasvirning ko‘rinishi uning [perspektivasi](#) deb ataladi. Quyidagi rasmda ko‘p qavatli bino yerdan turib suratga olinganligi ko‘rinib turibdi. Uni qo‘shni binodan turib suratga olingan ko‘rinishga keltirish mumkin.



Buning uchun [PhotoShop](#)dagi [Кадрирование перспективы](#) (Perspektivani o‘zgartirib kadrlash) uskunasidan foydalanish mumkin. Uni chaqirish

uchun klaviaturadagi bosh lotin harfi **C** ni (**Shift+C**) bir necha marta bosamiz. Yoki uskunalar panelidagi ramka uskunasining ustiga sichqonchani olib kelib, o'ng tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan ro'yxatdagi ikkinchi uskunani tanlaymiz. Uning tugmasi  ko'rinishda bo'ladi.

Dastlab suratni to'liq tanlab olamiz. Buning uchun sichqonchani suratning bir burchagiga olib kelib, chap tugmasini bosamiz. Sichqonchani qarama-qarshi burchakkacha sudrab boramiz va tugmani qo'yib yuboramiz. Surat ustida to'r paydo bo'ladi. Yuqori burchaklardagi markerlarni gorizontal yo'nalishda surib, to'rning vertikal chiziqlari bino devori qirrasiga parallel bo'lishiga erishamiz.

Bunda burchaklarni bir necha marta surishga to'g'ri kelishi mumkin. Chunki o'ng tomondagi chiziqlar parallel bo'lgunicha, chap tomondagi chiziqlar parallel bo'lmay ketishi mumkin va aksincha.

Bu uskunadan devordagi surat, televizor, kompyuter yoki planshet ekranidagi tasvirni qiya burchak ostida suratga olingandagi kamchilikni to'g'rilashda ham ishlatish mumkin.



**PhotoShop**da ko'pincha bir nechta rasmlardan yangi rasm yaratishga to'g'ri keladi. Bunda tasvirlarning o'lchamini kichiklashtirish yoki kattalash-tirish, ularni burish, o'girish, qiyalashtirish, qiyshaytirish kabi amallarni bajarishga to'g'ri keladi. Bu amallar shakl o'zgartirish amallari deb ataladi.

Bu kabi amallar bilan kadrlashga bag'ishlangan mashqlarda tanishib chiqqan edik. Lekin u yerda bu amallardan bir nechasi bir paytda bajarilar va ularni dasturning o'zi tanlab bajarar edi. Bu esa har doim ham aniq va kutilgan natijaga olib kelmaydi.

Shakl o'zgartirish amallari asosiy menyuning **Редактирование**

bo‘limidagi **Трансформирование** (Shakl o‘zgartirish) bandida joylashgan. Yangi menyuda o‘n ikkita band bo‘lib, ular quyida keltirilgan:

Ularning vazifalari bilan tanishib chiqamiz:

1. **Применить снова** (Qayta qo‘lash) – oxirgi shakl o‘zgartirish amalini yana bir marta qo‘llaydi.

2. **Масштабирование** (O‘lchamini o‘zgartirish) – tasvir bo‘lagi o‘lchamlarini o‘zgartiradi.

3. **Поворот** (Burish) – tasvir bo‘lagini ixtiyoriy burchakka buradi.

4. **Наклон** (Qiyalash) – tasvir bo‘lagini gorizontal yoki vertikal yo‘nalishda qiyalaydi.

5. **Искажение** (Nochiziqli o‘zgartirish) – tasvir bo‘lagini to‘rburchak ko‘rinishida tanlangan sohani qoplaydigان qilib o‘zgartiradi.

6. **Перспектива** (Perspektivani o‘zgartirish) – suratga olish nuqtasini o‘zgartiradi.

7. **Деформация** (Qayta shakllantirish) – tasvir bo‘lagini cho‘zish bilan qayta shakllantiradi.

8. **Поворот на 180°** (180°ga burish) – tasvir bo‘lagini 180° ga buradi.


9. **Поворот на 90° по часовой** (Soat mili bo‘ylab 90°ga burish).


10. **Поворот на 90° против часовой** (Soat miliga teskari 90°ga burish).

11. **Отразить по горизонтали** (Gorizontal o‘girish) – tasvir bo‘lagini gorizontal yo‘nalishda o‘giradi.

12. **Отразить по вертикали** (Vertikal o‘girish) – tasvir bo‘lagini vertikal yo‘nalishda o‘giradi.

Bu amallarning tayyor suratga qo‘llash natijalari quyidagi rasmlarda ko‘rsatilgan:





Shakl o‘zgartirishlarda yana asosiy menyuning **Редактирование** (Tahrirlash) bo‘limidagi **Свободное Трансформирование** (Erkin shakl o‘zgartirishlar) (**Ctrl+T**) amalidan ham keng foydalaniladi.



### **YODDA SAQLANG !**

Shakl o‘zgartirish amalini qo‘llashdan oldin tasvir bo‘lagini ajratib olish kerak.



### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Qanday shakl almashtirish amallarini bilasiz?
2. Olma rasmini  $90^\circ$ ,  $180^\circ$ ,  $270^\circ$  ga buring.
3. Olma rasmini vertikal va gorizontal yo‘nalishda o‘giring.
4. Qizaloq rasmidagi kamchiliklarni bartaraf qiling.
5. Bino rasmini yuklab, undagi perspektivani o‘zgartiring.
6. O‘zingizning fotosuratingizni yuklab oling. Unga o‘n bitta shakl o‘zgartirish amalini qo‘llang va bu fotosuratlarning barchasidan bitta fotosurat yasang.



### **UYGA VAZIFA**

Televizor yoki kompyuter ekranidagi tasviri ajratib olib, perspektivasi rostlang.



## 9-DARS. NAZORAT ISHI

Quyidagi berilgan variantlardan nazorat ishlarini o'tkazishda foydalanish tavsija etiladi.

### 1-variant

1. Kompyuter ekrani o'lchamlari orasidan keng tarqalganlarini keltiring.
2. **PhotoShop**, uning tarixi va versiyalari.
3. **PhotoShop**da kadrlash amalini bajarib ko'rsating.

### 2-variant

1. 3D grafika qanday yaratiladi va tasvirlanadi?
2. **PhotoShop**ning imkoniyatlari.
3. **PhotoShop**da magnitli arqondan foydalanib tasvir bo'lagini ajratib oling.

### 3-variant

1. Rastqli grafika qanday ishlaydi?
2. **PhotoShop** interfeysi.
3. Sehrli tayoqcha yordamida tasvir bo'lagini ajratib oling.

### 4-variant

1. Fraktallar haqida ma'lumot bering.
2. **PhotoShop**da fayllar bilan ishlash.
3. **PhotoShop**da shakl almashtirish amallarini bajarib ko'rsating.




## 10-DARS. PHOTOSHOPDA QATLAMLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

**PhotoShop**ning bugungi kundagi muvaffaqiyati kalitlaridan biri bu uning qatlamlar bilan ishlay olishidir. Qatlam bu shaffof qog'oz bo'lib, **PhotoShop**da qatlamga qo'shimcha tasvir joylash mumkin. Qatlamlar ustma-ust joylashib, yaxlit bir tasvir hosil qiladi. Har bir qatlamdagи tasvirni boshqa qatlamdagи tasvirlardan alohida tahrirlash mumkin.

Qatlamlardan biz yuqorida foydalangan edik. "O'zbekiston" mehmonxona suratiga to'rtta avtomashinani joylaganimizda ularning har biri alohida qatlamda joylashgan edi. Bu avtomashinalardan birortasining joyini o'zgartirmoqchi bo'lsak, u joylashgan qatlamni tanlab, undagi tasvirni surishning

o‘zi yetarli. Bunda boshqa avtomashinalar va mehmonxona surati o‘zgarmaydi.



**PhotoShop** suratga qo‘shilgan yangi tasvirlarni avtomatik tarzda yangi qatlamga joylaydi. **PhotoShop**da bir vaqtida 50 dan ortiq qatlam bilan ishslash mumkin.

Qatlamlar bilan ishslash uchun asosiy menyuning **Слой** (Qatlamlar) bo‘limida joylashgan buyruqlardan foydalanish mumkin. Lekin **Слой** (Qatlamlar) palitrasidan foydalanish yanada qulay. Bu palitrani ekranga chiqarish uchun asosiy menyuning **Окно** (Oyna) bo‘limidagi **Слой** (Qatlamlar) bandini tanlash yoki klaviaturada **F7** funksional tugmasini bosish kerak. Bu palitraning ko‘rinishi rasmda ko‘rsatilgan. Undagi tugmalarning vazifalari bilan tanishib chiqamiz.

A. Yashirin palitralar; B. Yashirin palitralarni ochish; C. **Слой** (Qatlamlar) jildi; D. **Каналы** (Kanallar) jildi; E. **Контуры** (Konturlar) jildi; F. Palitrani yashirish va ochish tugmasi; G. Palitraning menyusi tugmasi; H. Qatlamning shaffofmasligi (0 dan 100 gacha); I. Qatlamga bo‘yoq quyish (0 dan 100 gacha); J. Qatlamning qotirilganligi belgisi; K. Tanlangan qatlamlarni bir-biri bilan bog‘laydi; L. Qatlamga stil qo‘shadi; M. Niqob qatlam yaratadi; N. Yangi korreksion qatlam yaratadi; O. Qatlamlarning yangi guruhini yaratadi; P. Yangi qatlam yaratadi; Q. Tanlangan qatlamni o‘chiradi; R. Qatlamni ko‘rsatadi yoki yashiradi.

Qatlamlardan birinchisi fon deb ataladi. U boshqalaridan pastda turadi

va uning joyini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Boshqa qatlamlarning o‘rnini almash-tirish mumkin. Yuqorida turgan qatlamdagи tasvir pastdagilarini berkitib qo‘yadi. Agar qatlam nisbatan shaffof bo‘lsa, undan keyingi qatlam biroz ko‘rinib turadi.

Qatlamga **niqob qatlam** qo‘shish mumkin. Qatlamning niqob bilan ber-kitilgan qismini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bu qatlamning bir qismini o‘zgarti-rish kerak bo‘lganda juda qulay. Qatlamdagи kamchiliklarni bartaraf qilish uchun unga **korreksion qatlam** qo‘shiladi. **Stil qatlam** esa qatlamga tayyor stilni qo‘llash uchun ishlataladi. **Bo‘yoq quyish qatlami** qatlamning ustidan bo‘yoq quyish uchun ishlataladi.

Tasvirda qatlamlar soni ortgan sari ular bilan ishslash qiyinlashadi. Bunday paytda bir necha qatlamni bitta guruhga birlashtirish va bu guruh bilan bitta qatlam bilan ishlagandek ishslash mumkin.


Noutbuk va mehmonxona rasmlarini yuklab olamiz. Mehmonxona tas-virini to‘liq ajratib (**Ctrl+A** qo‘shtugmasi), undan nusxa olamiz (**Ctrl+C**). Noutbuk rasmiga o‘tib, unga nusxani joylaymiz (**Ctrl+V**). Noutbuk rasmiga o‘tish uchun uning oynasining ko‘rinib turgan joyini sichqoncha bilan bosish yetarli. Agar oyna boshqa oynalar bilan to‘liq to‘sib qo‘yilgan bo‘lsa, asosiy menyuning **Окно** (Oyna) bo‘limining oxirgi bandlarida joylashgan hujjat oy-nalaridan keraklisini tanlaymiz.

Noutbuk oynasida mehmonxona tasviri paydo bo‘ladi va u ajratib olin-gan (quyidagi rasmlardan birinchisi). Asosiy menyuning **Редактирование** (Tahrirlash) bo‘limidagi **Трансформирование** (Shakl o‘zgartirish) bandini va paydo bo‘lgan menyudan **Искажение** (Nochiziqli o‘zgartirish) bandini tanlaymiz.

Mehmonxona tasviri burchaklarida maxsus markerlar paydo bo‘ladi. Ulardan birini sudrab, noutbuk ekranini burchagiga olib kelamiz (2-rasm). Mehmonxona tasvirining qolgan uchlaridagi markerlarni sichqoncha bilan sudrab, kerakli joyga olib kelamiz (3-, 4-va 5-rasmlar). Yana bir marta bur-chak markerlarining rasmdagi noutbuk ekranini burchaklariga to‘g‘ri qo‘yilga-nini tekshirib (Ekrandagi tasvir butunlay ko‘rinmasligi kerak), **Enter** tugma-sini bosamiz.

Tayyor rasmni yangi nom bilan saqlab qo‘yamiz (6-rasm). Mehmonxona


tasviri alohida qatlamda joylashganligi sababli, undagi o‘zgartirishlar boshqa qatlamdagi noutbuk tasviriga ta’sir qilmadi:




Yana bir mashq bajaramiz. [PhotoShop](#)ga yon oyna suratini yuklab olamiz. Uni to‘liq ajratib, nusxalaymiz. Yangi surat yaratamiz. Uning o‘lchamlari yon oyna surati o‘lchamlari kabi bo‘ladi. Yangi suratga yon oyna suratining nusxasini joylaymiz (quyidagi 1-rasm).


Yon oynadagi mototsiklchilarning tasvirini oddiy arqon yoki magnitli arqon uskunasi bilan ajratib olamiz. Klaviaturadagi [Delete](#) tugmasini bosib, ajratilgan bo‘lakni o‘chirib tashlaymiz (2-rasm).

Mehmonxona suratini yuklab, undan nusxa olamiz. Nusxaning o‘lchamlarini kichiklashtirib, yon oyna ustiga qo‘yamiz (3-rasm).





Mehmonxona va avtomashina suratlari joylashgan qatlamlarning o‘rnini almashtiramiz. Buning uchun qatlamlar palitrasini ochamiz. **Слой 1** degan yozuv ustiga yoki u joylashgan havorang to‘rtburchak ustiga sichqonchani olib kelib, chap tugmasini bosib turib, yuqoriga sudraymiz. **Слой 2** yozuvi tepasida chiziq paydo bo‘lishi bilan sichqoncha tugmasini qo‘yib yuboramiz.



Natijada avtomashina joylashgan birinchi qatlam yuqoriga chiqib, mehmonxona qatlami pastga tushadi, mehmonxona faqat avtomashina oynasidan ko‘rinib turadi. Foning oq rangi esa hech qayerda ko‘rinmaydi. Agar avtomashina tasvirini fondan boshqa qatlamga nusxalamaganimizda uning o‘rnini o‘zgartirib bo‘lmas edi. Avtomashina fonda bo‘limgani uchun uning oynasidagi tasvirni o‘chirganimizda uning o‘rnini fon rangi egallamaydi, u shaffof ko‘rinishga o‘tadi.

**PhotoShop**da shakl o‘zgartirishlar va qatlamlardan foydalanishga misol sifatida berilgan rasmdan kublar yasab, ularni yig‘ishga urinib ko‘ramiz. Berilgan rasm va olingan natija quyida keltirilgan:



Vazifani bajarish algoritmini keltiramiz:

1. Kub tomonlariga qo‘yilishi kerak bo‘lgan rasmni yuklab olamiz, avval ko‘rib chiqilgan ramka uskunasi yordamida (klaviaturada **C** tugmasini bosib chaqiriladi) undan  $80 \times 80$  o‘lchamli qismini kesib olamiz.
2. Yangi tasvir yaratamiz (**Ctrl+N**). Uning o‘lchamlarini  $1000 \times 800$  qilib o‘rnatamiz.
3. Birinchi tasvirga o‘tib, uni to‘liq ajratib olamiz (**Ctrl+A**) va nusxalaymiz (**Ctrl+C**). Ikkinci tasvirga o‘tib, unga birinchi tasvirning ikki nusxasini joylaymiz (**Ctrl+V**).
4. Joylangan ikkinchi nusxa ajratilgan holda turibdi. Uni kursorni boshqarish tugmalari yordamida yoki **Pyka** (Dastak) uskunasini tanlab, birinchi nusxaning tepasiga olib kelamiz.
5. Bu nusxaning vertikal o‘lchamini ikki barobar kamaytiramiz va uni gorizontal yo‘nalishda  $-45^\circ$  ga buramiz.
6. Tasvirga birinchi rasmning uchinchi nusxasini joylaymiz. Uni birinchi nusxaning o‘ng tomoniga dastak uskunasi yoki kursorni boshqarish tugmali yordamida olib kelamiz.
7. Bu nusxaning gorizontal o‘lchamini ikki barobar kamaytiramiz va uni vertikal yo‘nalishda  $45^\circ$  ga buramiz.
8. Uchta nusxa joylashgan qatlamlarni birlashtiramiz. Buning uchun ular joylashgan qatlamlarni **Shift** tugmasini bosib turib tanlaymiz va qatlamlarni

birlashtirish tugmasini bosamiz.

9. Yaratilgan kubni to‘liq ajratib olamiz. Uning nusxasini olib, tasvirga joylaymiz. Yangi kubni surib, birinchisi yoniga keltiramiz.

10. To‘qqizinchi amalni sakkiz marta takrorlaymiz. Har safar yangi nusxani qolganlariga bo‘sh joy qoldirmay zich qilib qo‘shib qo‘yamiz.

11. Qilgan ishlarnimizni **Ctrl+S** qo‘shtugmasi yordamida dastlab **PhotoShop** formatida, keyin **jpeg** formatida saqlab qo‘yamiz. Ikkala hujjatni yopib, **PhotoShop**da ishlashni tugatamiz.



## **YODDA SAQLANG !**

Tasvirga joylangan nusxa ajratilgan holda qoladi. Boshqa uskuna tanlaguncha uni sichqoncha yordamida, yangi joyga o‘tkazish mumkin.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Mehmonxona suratini boshqa suratdagi kompyuter ekraniga joylang.
2. Mehmonxona suratini boshqa suratdagi avtomashinaning yon oynasiga joylang.
3. Yon oynasida mehmonxona rasmi bo‘lgan avtomobil rasmini suratdagi kompyuter ekraniga joylang.
4. Kublarni boshqa usullarda joylab, yangi tasvirlar yarating.
5. O‘zingizning fotosuratlaringizdan kub yasab, ular bilan tasvirni to‘ldiring.
6. Qatlamlarning joyini almashtirish qanday amalga oshiriladi?



## **UYGA VAZIFA**


Oilaviy fotosuratlaringizdan uchtasini olib, ularni kubning uchta tomoniga joylang.



## **11-DARS. PHOTOSHOPDA RANG TIZIMLARI**

Ranglar bilan ishslash uchun bir qator tizimlar ishlab chiqilgan. Ulardan birinchisi qo‘shiluvchi ranglar tizimi deb ataladi. Xonadagi bir nechta chiroqlarni yoqsak, ular taratayotgan yorug‘liklar qo‘shiladi va xona yanada yorishadi. Agar bu chiroqlar turli rangda bo‘lsa, bu ranglar qo‘shilib, xona ulardan ko‘ra yorqinroq (ochroq) rangga kiradi. Boshqa ranglarni uchta aso-

siy rang: qizil (**Red**), yashil (**Green**) va ko‘k (**Blue**) ranglarni turli nisbatda qo‘shish bilan yaratish mumkin. Bu ranglarning nomlaridan qo‘shiluvchi ranglar tizimi nomi **RGB** olingan:



Bu ranglarning har birining yorqinligi 0 dan 255 gacha bo‘lishi mumkin. Natijada  $256 \times 256 \times 256$  ta (o‘n olti milliondan ko‘proq) ranglar hosil qilish mumkin. Masalan, **yashil** va **ko‘k** ranglar qo‘shilganda havo rang (ingliz tilida **Cyan** deb ataladi), **qizil** va **ko‘k** ranglar qo‘shilganda pushti (**Magenta**), qizil va yashil ranglar qo‘shilib sariq (**Yellow**) ranglar paydo bo‘ladi. Uchta asosiy rang qo‘shilganda oq rang chiqadi.

Qo‘shiluvchi ranglar yordamida televizor va kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarning ranglari hosil qilinadi.


Rasm darslaridan bilamizki, oq qog‘ozni bir necha rangdagi bo‘yoqlar bilan bo‘yasak, bu ranglar qo‘shilib, to‘qlashadi. Masalan, sariq va pushti ranglar bilan qog‘ozni bo‘yasak, qog‘oz qizil rangga kiradi. Bunda ranglar oq rangdan ayrıldi va bu ranglar tizimi ayriluvchi ranglar tizimi deb ataladi.

Bu tizimda asosiy ranglar sifatida havo rang, pushti va sariq ranglar olin-gan. Bu uchta rang oq qog‘ozga surtilganda qog‘oz qora rangga kiradi. Lekin toza bo‘yoqlar olish juda qiyinligi sababli bu uchta rangdan hosil qilingan qora rang biron bir bo‘yoq tusiga kirib qoladi. Buning oldini olish uchun ayriluvchi ranglar tizimida yuqoridagi uchta rang bilan birga qora rang ham ishlataladi. Natijada qora ranglar ko‘p bo‘lgan tasvirlarni yaratishda boshqa rangdagi bo‘yoqlarning sarflanishi ham keskin kamayadi.

Ranglarning bu tizimidan rangli printerlarda, plotterlarda hamda nashriyotning bosma mashinalarida foydalaniladi. Bu tizim undagi asosiy ranglar nomlaridan olingan bo‘lib, **CMYK (Cyan, Magenta, Yellow, black)** deb ataladi. Bu tizimda har bir asosiy rang foizda ko‘rsatiladi.

**PhotoShop**da asosan dizaynerlar ishlashadi. Ular uchun qulay va tushunarli bo‘lgan ranglar tizimi ham ishlab chiqilgan. Ulardan biri **HSB** deb ataladi. Bu nom ingliz tilidagi **Hue** (Rang turi), **Saturation** (Rang to‘yinganligi) **Brightness** (Rang yorqinligi) so‘zlaridan olingan.

Bu tizimda ranglar palitrasи doira shaklida qurilgan bo‘lib, har bir rangga uchta parametr mos keladi. Bu parametrlarning birinchisi kerakli rangni tanlash uchun xizmat qiladi. Asosiy ranglar doira chegarasi bo‘lgan aylanada joylashgan.



Ularni tanlash uchun aylanadagi nuqtaga mos keladigan markaziy burchak (0 dan 360 gradusgacha bo‘lgan qiymatni qabul qiladi) qiymati kiritiladi.  $0^\circ$  ga qizil,  $120^\circ$  ga yashil,  $240^\circ$  ga ko‘k rang mos keladi. Ikkilamchi ranglar: sariq ( $60^\circ$ ), havorang ( $120^\circ$ ) va pushti ( $240^\circ$ ) lar asosiy ranglar orasida joylashgan.

Bu ranglar bir-biri bilan qo‘shilib, yangi ranglar paydo bo‘ladi. Masalan, ko‘k rang ( $240^\circ$ ) bilan pushti rang ( $300^\circ$ ) orasida siyohrang ( $270^\circ$ ) joylashgan.

Ikkinci parametr rangning to‘yinganligini bildiradi. Bu parametr 0 dan 100 gacha bo‘lgan qiymatni qabul qiladi. Bu parametrning qiymati kamaygani sari rangning to‘yinganligi ham kamayib boradi va 0 ga teng bo‘lganda bu rang oq rangga aylanib qoladi.

Bu parametrga mos keladigan ranglar tanlangan burchakning radiusi bo‘yicha joylashgan bo‘ladi. Bu radius bo‘ylab harakatlanganda doira chegarasi, ya’ni aylanada tanlangan rang to‘yinganligi kamayib borib oq rangga aylanadi.



turadi. Bir-birini to'ldiruvchi ranglar deb doiraning bitta diametrida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ranglarga aytildi.

Masalan, **qizil** va **havo** rang; **sariq** va **ko'k**; **yashil** va **pushti** ranglar; shuningdek, oq va qora ranglar bir-birini to'ldiruvchi ranglar hisoblanadi. To'ldiruvchi ranglardan biri fon uchun olinsa, ikkinchisi chiziqlar chizish, matn yozish uchun ishlataladi. Bunda chiziq va yozuvlar fonda yaqqol ko'rinish turadi. Matnning biron qismini ajratish uchun matnning asosiy rangiga yaqinroq rang tanlanadi.

Ranglar ikki turga ajratiladi. Ulardan birinchi iliq ranglar, ikkinchisi esa sovuq ranglar deb ataladi. Iliq ranglarga tarkibida qizil va sariq ranglar ko'proq bo'lgan ranglar, sovuq ranglarga tarkibida ko'k va siyoh ranglar ko'proq bo'lgan ranglar kiradi. Ayniqsa, ularga qora va kul ranglar aralashsa, ular yanada sovuqlashadi. Iliq va sovuq ranglar orasidagi yashil va binafsha ranglar neytral ranglar hisoblanadi.

Iliq ranglar odamning kayfiyatini ko'taradi. Sovuq ranglar esa ruhiyatga yomon ta'sir qiladi. Dizayn bilan jiddiy shug'ullanishni istaganlar iliq, sovuq, neytral ranglarni va ular bilan ishlashni yaxshi bilib olishlari kerak.



## **YODDA SAQLANG !**

Turli ranglar inson kayfiyatiga turlich raqqa ta'sir qiladi.

Rangning uchinchi parametri tanlangan rangning yorqinligini bildiradi va 0 dan 100 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Masalan, oq rang tanlangan bo'l-sin. Uning yorqinligi 100 (foiz) ga teng bo'lsa, u oqligicha qoladi. Yorqinlik 0 ga teng qilib olinsa, oq rang qora rangga aylanib qoladi. 50 ga teng bo'lsa, kul rang, 25 ga teng bo'lsa, to'q kul rang, 75 ga teng bo'lsa, och kul rangga aylanadi.

Bu tizimning yaxshi tomoni unda bir-birini to'ldiruvchi va bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar yaqqol ko'rinish turadi. Bir-birini to'ldiruvchi ranglar deb doiraning bitta diametrida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ranglarga aytildi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yorug‘lik nurlari haqida nimalar bilasiz?
2. Qo‘shiluvchi ranglar tizimi qanday ishlaydi?
3. Ayiriluvchi ranglar tizimi qanday ishlaydi?
4. **HSB** ranglar tizimi qanday ishlaydi?
5. **HSB** ranglar tizimidagi har bir parametr nimani anglatadi?
6. Bir-birini to‘ldiruvchi ranglar deb qanday ranglarga aytildi?




## UYGA VAZIFA

Mavzuga doir o‘nta test tuzing.




## 12-DARS. PHOTOSHOPDA RANGLAR BILAN ISHLASH

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ranglar tizimlari tabiatda uchraydigan ranglarning barchasini ham ko‘rsatib bera olmaydi. Ularning yana bir kamchiligi, bu tizimlar apparatga bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, bir tizimda ishlaydigan ikkita turli qurilma ranglarni bir xil ko‘rsata olmaydi.



Apparatlarga bog‘liq bo‘lmagan va ranglarni qamrab olishi eng katta bo‘lgan tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, u **Lab** deb ataladi. Ulardan birinchisi rangning yorug‘ligini (ingliz tilidagi **Lightless** so‘zidan olingan) anglatadi. Ikkinchi parametr **a** esa rangning qizildan yashilgacha, uchinchi parametr **b** rangning sariqdan ko‘k ranggacha bo‘lgan o‘zgarishini aniqlaydi.


**PhotoShop**da bu tizimdan yuqorida keltilirgan bir tizimdan ikkinchisiga o‘tishda foydalilanildi. Ya’ni bir tizimdan olingen rang avval **Lab** tizimiga o‘tkaziladi, so‘ng undan boshqa tizimga o‘giriladi.




[PhotoShop](#)da eng ko‘p bajariladigan amallardan biri bu ranglarni tanlashdir. Ranglarni tanlashning bir necha usullari bo‘lib, ulardan biri [Палитра цветов](#) (Ranglar palitrasasi) dan foydalanishdir. Bu muloqot oynasini ekranga chaqirish uchun uskunalar panelidagi (asosiy yoki fon rang) uskunasini tanlaymiz.

Oynaning o‘rtasidagi vertikal surgichni siljitim, kerakli ranglar sohasiga o‘tamiz. O‘ng tomonda bu sohadagi ranglar ancha batafsil ko‘rsatiladi. Undan kerakli rangni sichqonchaning chap tugmasini bosib tanlash mumkin. Oynaning o‘ng tomonida rangni to‘rtta tizimdan birida kerakli parametrlarni kiritib ham tanlash mumkin.

Rang tanlashning ikkinchi yo‘li palitralar sohasidagi [Цвет](#) (Rang) palitrasidan foydalanishdir. Uning sarlavhasining o‘ng tomonidagi yashirin menyudan kerakli ranglar tizimini tanlab olish mumkin. Ekranda paydo bo‘lgan gorizontal surgichlarni surib, kerakli rang tanlanadi.



Bu palitra bilan birga **Образцы** (Namunalar) nomli palitra joylashgan. Bu palitradan avvaldan tanlab qo‘yilgan bir qator ranglar bo‘lib, ularni sichqoncha yordamida tanlash mumkin:



Bu palitraning yashirin menyusida avvaldan aniqlab qo‘yilgan namuna-larning boshqa to‘plamlarini tanlash, yaratilgan to‘plamni yangi nom bilan saqlash, saqlab qo‘yilgan to‘plamlarni qaytadan yuklab olish, palitra oynasi-ning ko‘rinishini o‘zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin.

Indekslangan ranglardan nashriyotlarda, animatsiya yaratishda va **Internet** tarmog‘ida, shu jumladan **web** sahifalarda keng foydalaniladi.

Oq-qora suratlarni saqlashda yarim tusli (kulrangning turli tuslaridan) foydalaniladi. Bunda har bir piksel uchun bir bayt ajratiladi va piksel kul rangning 256 ta tusidan biri ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.



## **YODDA SAQLANG !**

Ranglar kompyuter grafikasining asosini tashkil etadi.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **Lab** ranglar tizimi qanday ishlaydi?
2. **Lab** ranglar tizimidagi har bir parametr nimani anglatadi?
3. Ranglar palitrasи bilan qanday ishlanadi?
4. PhotoShopga biror tasvir yuklang. Uning ranglar tizimini boshqalariга o‘tkazing va yangi nom bilan saqlab qo‘ying.
5. Yarim tusli ranglar tizimida saqlangan oq-qora suratning qayta rangli tizimga o‘tkazing va undagi o‘zgarishlarni izohlang.




## **UYGA VAZIFA**

Palitralar sohasida ranglar bilan ishlashni mashq qiling.




## 13-DARS. KANALLAR VA FILTRLAR HAQIDA MA'LUMOT

Ranglar tizimida har bir rang bir nechta tashkil etuvchiga ajratiladi. **RGB** tizimida ranglar qizil, yashil va ko‘k tashkil etuvchi ranglarga ajraladi. Tasvirning har bir pikseli o‘z rangiga ega va barcha piksellar uchun bu ranglarning tashkil etuvchilarini qo‘lda aniqlab chiqishning deyarli iloji yo‘q. **PhotoShop** bu yerda ham yordamga keladi. Uning **Каналы** (Kanallar) palitrasи aynan shu maqsadga xizmat qiladi.



Biror rasmni yuklab olib, **Каналы** (Kanallar) palitrasini ochamiz. Buning uchun asosiy menyuning **Окно** (Oyna) bo‘limidagi **Каналы** (Kanallar) bandini tanlaymiz. Palitraning **RGB** tizimi uchun ko‘rinishi quyida keltirilgan.

Rasmda faqat bitta tashkil etuvchini qoldirish uchun unga mos kanalni qoldirib, qolganlarini yopish kerak. Buning uchun bu kanalga mos qo‘shtugmani bosish yetarli. Qizil kanalga **Ctrl+3**, yashil kanalga **Ctrl+4**, ko‘k kanalga **Ctrl+5** qo‘shtugmalari mos qo‘yilgan. Ularni navbatma-navbat bosib, rasmning o‘zgarishini kuzatamiz.




CMYK ranglar tizimiga mos keluvchi kanallar quyidagi rasmda keltirilgan. Ularni ko‘rsatish uchun tasvirning ranglar tizimini o‘zgartirish kerak

bo‘ladi. Buning uchun asosiy menyuning **Изображение** (Tasvir) bo‘limining birinchi bandi – **Режим** (Tartib) ni, paydo bo‘lgan yangi menyudan **CMYK** bandini tanlaymiz.

Kanallarga yangisini qo‘sish mumkin. Bunday kanallardan biri **alfa kanal** deb ataladi. Alfa kanallar tasvirning bir qismini ajratib olish uchun ishlataladi.


Filtrlar **PhotoShop**ning yana bir kuchli tomonidir. Filtr deb oldindan belgilab qo‘yilgan algoritm bo‘yicha tasvirni qayta ishlashga aytildi.

Filtrlar asosiy menyuning **Фильтр** (Filtr) bo‘limida yig‘ilgan. Bu bo‘limning bandlari quyidagi rasmda keltirilgan:



Bo‘limning birinchi yarmida ko‘p ishlataladigan filtrlar va ularga mos qo‘yilgan qo‘shtugmalar keltirilgan. Bo‘limning ikkinchi yarmida qolgan filtrlar 10 ta guruhga bo‘lib chiqilgan. Oxirgi band yordamida internetdan yangi filtrlarni yuklab olish mumkin.

Filtrlarning qo‘llanishiga misollar quyidagi rasmlarda keltirilgan. Bu filtrlar **Стилизация** (Styllashirish) guruhining **Выделение края** (Chetini ajratish) va **Тиснение** (O‘yib chiqish) filtrlaridir:



Quyidagi rasmlarda **Искажения** (Buzilish) guruhidagi **Дисторсия** (Egri-lash) va Зигзаг (Egri-bugri) filtrlarining qo‘llanishi ko‘rsatilgan:



## YODDA SAQLANG !

Filtrlar orqali tasvirlarni tez qayta ishslash mumkin.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **RGB** va **CMYK** ranglar tizimida nechta kanal bor?
2. Filtrlar qanday qilib ishga tushiriladi?
3. Asosiy menyuning **Фильтр** (Filtr) bo‘limidagi bandlar necha guruhga bo‘linadi?
4. Kuchukcha yoki jo‘ja rasmini yuklab olib, unga turli filtrlarni qo‘llab ko‘ring va muvaffaqiyatli chiqqan suratlarni yangi nom bilan saqlab qo‘ying.
5. Fotosuratni yuklab olib, uni rassom tomonidan chizilgan surat ko’ri-nishiga o’tkazing.



## UYGA VAZIFA

Asosiy menyuning **Фильтр** (Filtr) bo‘limi ikkinchi qismidagi filtrlarning bir nechtasini qo‘llab yangi tasvirlar hosil qiling.




## 14-DARS. MO‘YQALAM VA QALAM BILAN ISHLASH

**PhotoShop** foydalanuvchilari orasida fotoograflar bilan birga dizaynerlar, rassomlar ham ko‘p uchraydi. Ular uchun tayyor rasmlarni qayta ishslash bilan birga yangi tasvirlarni yaratish ham muhim. Buning uchun chizish uskunalaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

**PhotoShopda** chizish uskunalaridan **Кисть** (Mo‘yqalam), **Карандаш** (Qalam) va **Линия** (Chiziq) mavjud bo‘lib, ular yordamida mos ravishda chiziqlarni chizish, sohalarni bo‘yash va tasvirga tayyor geometrik shakllar-

ni kiritish mumkin. Bundan tashqari, tasvirlarga vektor grafika elementlarini joylash uchun **Перо** (Pen) deb ataluvchi uskuna ham mavjud.

Mo‘yqalam va qalam uskunalari uskunalar panelida bitta tugma ostiga joylangan. Bu tugma uskunalar panelining to‘rtinchı qatori ikkinchi ustunida joylashgan. Uning ustiga sichqonchani olib kelib, o‘ng tugmasini bossak, unga mos uskunalar ro‘yxati chiqadi. Bu uskunalarini chaqirish uchun klaviaturada lotin harfi **B** ni bir yoki bir necha marta bosish ham mumkin:



**Кисть** (Mo‘yqalam) uskunasini tanlaganimizda, parametrlar paneli quyidagi ko‘rinishga o‘tadi:



Bu tugmalardan asosiyalarini bilan tanishib chiqamiz:

- A** – tayyor mo‘yqalamlarni tanlash.
- B** – mo‘yqalamning diametrini va ko‘rinishini tanlaydi.
- C – Кисть** (Mo‘yqalam) palitrasini ekranga chaqiradi.
- D** – rasmdagi va mo‘yqalam ranglarini aralashtirish tartibi (yigirmadan ortiq variantlar mayjud)
- E** – mo‘yqalamda chizilgan tasvirning shaffofmasligi (shaffoflik ortgan sari bo‘yagan soha ostidagi tasvir ko‘proq ko‘rinib turadi).
- G** – mo‘yqalam tolalarining qattiqligi kamaygan sari bo‘yagan soha bo‘yoq bilan qoplanishi foizi ortib boradi.
- H** – bo‘yoqni surkash tartibidan purkash tartibiga o‘tkazadi (**aerograf** tartibi).


Mo‘yqalamning parametrlarini o‘rnatishda va u bilan ishlashda **Кисть** (Mo‘yqalam) palitrasidan foydalanish qulayroq. Uni parametrlar panelidagi **C** tugmasini bosib yoki boshqa palitralar kabi asosiy menyu orqali chaqirish mumkin. Bu palitraning ko‘rinishi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan.

Bu palitra yordamida mo‘yqalamlar to‘plamini (A), mo‘yqalamning shakli (B), uning kattaligi (D, E), qancha burchakka burilganligi (H), enining necha foiz tashkil etishi (I), ikkita izi orasidagi masofa (K) kabi parametrлari ni tanlash mumkin. Rasmda barg ko‘rinishidagi mo‘yqalam tanlangan, uning o‘lchami 90 pikselga teng, 45° ga burilgan, eni 56% ni tashkil etadi. Ikkita izi orasidagi masofa 100% ga teng. Shuningdek, bu yerda mo‘yqalamning tasvirdagi izi parametrлarini o‘zgartirish (C), mo‘yqalam izini gorizontal (F) va vertikal (G) o‘girish, mo‘yqalamning qattiqligini o‘zgartirish (J) mumkin.

Bu parametrлarning har birini yoki bir nechtasini o‘zgartirib, turli-tuman barglarni olish, ular bilan tasvirni to‘ldirish mumkin. Mo‘yqalamning rangini o‘zgartirish uchun **PhotoShop**ning asosiy rangini o‘zgartirish kerak bo‘ladi. Sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosilsa, bitta barg qo‘yiladi. Chap tugmasini bosib turib sichqonchani sudrasak, sichqonchaning izi barglar bilan to‘ldiriladi.

Bir qarashda mo‘yqalam va qalam bilan ishslash orasida farq yo‘q-dek ko‘rinsa-da, ular turli maqsadlarda ishlatiladi. Qalam yordamida chiziq chizilganda bu chiziqning chetlari aniq ajralib turadi. Mo‘yqalamda esa bunday bo‘lishi shart emas.

Mo‘yqalam birinchi navbatda bo‘yash uchun ishlatiladi. Bo‘yash esa mo‘yqalam qanday tezlik bilan tortilganiga, qanday kuch bilan bosilgani, bo‘yoq surtilayotgani yoki purkalishiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Qalamda esa bunday parametrлarning ta’siri bo‘lmaydi. Uskunalar panelida qalam mo‘yqalam bilan bitta tugma ostida joylashgan. Uni tanlash mo‘yqalamni tanlash kabi amalga oshiriladi.



Qalamning parametrlar paneli mo‘yqalam parametrlari paneli kabi ko‘rinishiga ega. Qalamning parametrlarini ham mo‘yqalam parametrlari kabi o‘zgartirish mumkin. Masalan, qalam chizadigan chiziqning qalinligini o‘zgartirish uchun uning parametrlar panelidagi ikkinchi tugmani (oldingi darsdagi suratda **B** tugma)ni bosamiz.

Hosil bo‘lgan muloqot oynasidagi birinci surgichni surib, qalamning qalinligini o‘zgartirish mumkin. Ikkinchi surgich qalamning yumshoq va qattiqligini o‘zgartiradi. Uni chapga sursak, qalamning qattiqligi oshadi, o‘ngga sursak, qalam yumshoqroq bo‘ladi.

Qalam bilan chiziq chizish uchun sichqonchaning chap tugmasini bosib, u suriladi. Bunda to‘g‘ri chiziq kesmalarini chizish juda qiyin. Agar qalam yordamida kesma chizish kerak bo‘lsa, **Shift** tugmasini bosib turib, kesmaling uchlari bo‘lishi kerak bo‘lgan joyda sichqonchaning chap tugmasini bosish kerak bo‘ladi.

**Shift** tugmasini va sichqonchaning chap tugmasini bosib turib, sichqonchani harakatlantirsak, harakat yo‘nalishiga qarab vertikal yoki gorizontal kesmalar chiziladi.

Agar **Ctrl** tugmasi bosilsa, chizilgan chiziqlni siljitim mumkin bo‘ladi (siljitim uskunasi vaqtincha ishga tushadi). **Alt** tugmasi esa tomizg‘ich uskunasi vaqtincha ishga tushiradi. **Alt** ni bosib turib, tasvirning biror joyiga sichqonchani olib kelib, chap tugmasi bosilsa, shu nuqtaning rangi asosiy rang sifatida tanlanadi va keyingi chiziqlar shu rangda chiziladi.

Qalam yordamida chiziqlar chizishdan tashqari, uning shaklini o‘zgartirib, tasvirga turli shakllarni joylash mumkin. Masalan, yuqoridagi rasmda keltirilgan muloqot oynasining pastki qismidagi maydonchaning vertikal surgichni pastga sursak, unda qalamning yangi shakllari paydo bo‘ladi. Undan maysa yoki barg shaklidagi qalamni tanlab, tasvirni osongina maysalar va barglar bilan to‘ldirish mumkin.





## **YODDA SAQLANG !**

Qalam uskunasi yordamida asosan chiziqlar chiziladi.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Mo‘yqalam uskunalar panelining qayerida joylashgan?
2. Mo‘yqalam palitrasи yordamida uning qaysи parametrlari qanday o‘zgartiriladi?
3. Mo‘yqalam yordamida tasvirga turli rangdagi va turli o‘lchamlarga ega barglarni va maysalarni qo‘sning.
4. Qalam bilan ishlashda **Shift**, **Alt**, **Ctrl** tugmasи qanday vazifalarni bajaradi?
5. Qalam yordamida uchburchak, uning medianalari, balandliklari va bissektrisalarini chizing.
6. Taniqli kinoaktyorlardan birining suratini yuklang, uning yuzini ajratib oling va mo‘yqalam uskunasi bo‘yash bilan uning terisi rangini to‘qlashtiring (ochlashtiring)




## **UYGA VAZIFA**

Qalamning parametrlarini panel yordamida o‘zgartirib chizilayotgan chiziqning o‘zgarishini kuzating va tahlil qiling.



## **15-DARS. TASVIRGA GEOMETRIK SHAKLLARNI VA VEKTORLI OBYEKTLARNI JOYLASH**

PhotoShopda geometrik shakllarni tasvirga joylash uchun bir qator uskunalar mavjud bo‘lib, ular uskunalar panelining uchinchi bo‘limida joylashgan:



Bu uskunalar jami oltita bo‘lib, ular yordamida tasvirga to‘g‘ri to‘rtburchak (**A**), burchaklari doirasimon to‘g‘ri to‘rtburchak (**B**), ellips (**C**), munta-zam ko‘pburchak (**D**), to‘g‘ri chiziq kesmasi (**E**) va ixtiyoriy geometrik shakl

(F) joylash mumkin. Bu uskunalardan biri tanlanganda uning parametrlari parametrlar panelida paydo bo‘ladi. Masalan, quyidagi rasmda burchaklari doirasimon to‘g‘ri to‘rtburchakning parametrlari ko‘rsatilgan:




A    B    C    D    E    F    G    H    I    J    K    L    M    N

Bu parametrlarning vazifasi bilan tanishib chiqamiz:

- A – bu uskuna uchun avvaldan o‘rnatilgan parametrlar;
- B – shaklning turi (chegarasi, ichi yoki ikkalasi);
- C – shaklning ichi rangi;
- D – shakl chegarasining rangi;
- E – chegarasi qalinligi;
- F – chegaradagi chiziq turi;
- G – shakl bo‘yi;
- H – shakl balandligi;
- I – shaklning avvalgi shakllar bilan bog‘lash turi;
- J – shakllarning tekislash usuli;
- K – shakl joylashgan qatlarning boshqa qatlamlar orasidagi o‘rni;
- L – shakl o‘lchamlarini oldindan aniqlab olish;
- M – burchaklardagi chorak doiraning radiusi;
- N – shakllarning chegarasini tekislash.

Bu parametrlarga mos keladigan geometrik shakl quyidagi rasmda ko‘rsatilgan:



To‘g‘ri to‘rtburchak va ellips parametrlari ham xuddi shu kabi bo‘ladi, faqat ularda **M** parametr bo‘lmaydi. To‘g‘ri chiziq kesmasi parametrlarida esa **E** parametr ishlamaydi. Kesmaning qalinligi **M** o‘rnida paydo bo‘ladigan Толщина (Qalinligi) parametri orqali o‘zgartiriladi. Bundan tashqari, **L** parametr kesma uchlaringin ko‘rinishini tanlash uchun xizmat qiladi.


Muntazam ko‘pburchaklar uskunasida **M** parametr ko‘pburchakning to-

monlari sonini tanlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, muntazam ko‘pburchak chizish uchun sichqoncha avval ko‘pburchak markaziga olib kelinadi. So‘ng uning chap tugmasini bosib, markazdan uzoqlashtiriladi. Kerakli o‘lchamga erishgach, sichqoncha tugmasi qo‘yib yuboriladi. Agar sichqoncha tugmasini qo‘yib yubormay, uni ko‘pburchak markazi atrofida aylantirsak, ko‘pburchak ham shu yo‘nalishda o‘zining markazi atrofida buriladi.

Ixtiyoriy geometrik shakl uskunasining parametrlari ham faqat **M** parametr bilan farq qiladi. Bu parametr yordamida mavjud shakllardan keraklisi tanlanadi.

**PhotoShop** rastrli grafika uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan vektorli grafikadan ham keng foydalaniladi. Vektorli grafika obyektlarini yaratish uchun maxsus uskuna bo‘lib, uning nomi **Перо** (Pat)dir.

Pat uskunasi uskunalar panelining uchinchi qismida birinchi bo‘lib joylashgan tugma orqali chaqiriladi. Bu tugma ostida beshta uskuna yashiringan bo‘lib, ular quyidagilardir:



1. **Перо** (Pat) – chegaralari to‘g‘ri yoki egri chiziq bo‘lgan geometrik shakl yaratadi.

2. **Свободное Перо** (Erkin pero) – chegaralari ixtiyoriy bo‘lgan geometrik shakl yaratadi.

3. **Перо+** (Pat+) yaratilgan shakl chegarasiga yangi tayanch nuqta qo‘sadi.

4. **Перо-** (Pat-) mavjud tayanch nuqtani olib tashlaydi.

5. **Угол** (Burchak) – egri chiziqda burchak hosil qilish uchun ishlataladi.


Pat uskunasi tanlanganda uning parametrlari paneli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



Undagi tugmalar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- A** – avvaldan yaratilgan parametrlarni tanlaydi;
- B** – pat yordamida nima yaratilishini tanlaydi;
- C** – yaratilgan obyektni ajratishga aylantiradi;
- D** – yaratilgan obyektni niqobga aylantiradi;
- E** – yaratilgan obyektni geometrik shaklga aylantiradi;
- F** – yaratilgan obyektni undan oldin yaratilgan obyekt bilan birlashtirish usulini tanlaydi;
- G** – yaratilgan obyektning joylashishini tekislash usulini tanlaydi;
- H** – yaratilgan obyekt joylashgan qatlamning boshqa qatlamlarga nisbatan o‘rnini tanlaydi;
- L** – natijalarni ko‘rib turish bayroqchasini o‘rnatadi yoki bekor qiladi;
- M** – yangi obyektni yaratishni optimallashtiradi;
- N** – obyektning chetlarini tekislaydi.

Pat uskunasi yordamida odatda konturlar yaratiladi. Konturlar esa geometrik shaklga, niqobga yoki ajratiladigan soha chegarasiga aylantirilishi mumkin. Shuning uchun pat uskunasida patning qalinligi va rangi kabi parametrlar bo‘lmaydi. Niqoblardan yaratilayotgan tasvirning bir qismini tasodifiy o‘zgarishlardan himoyalash uchun foydalaniladi.



Pat yordamida siniq chiziq chizish uchun pat uskunasini tanlab, chiziq uchlarida sichqonchaning chap tugmasini navbatma-navbat bosib chiqish yetarli. Egri chiziq chizish uchun ham bu chiziqning tugun nuqtalarini ko‘rsatib chiqish kerak bo‘ladi. Lekin bunda egri chiziqning tugun nuqtadan qaysi yo‘nalishda chiqishini sichqonchaning chap tugmasini bosib turib ko‘rsatish kerak bo‘ladi.

Patni ishlatish mehnat va chizmachilik darslarida egri chiziqli chizg‘ichlar: lekalolardan foydalanishga o‘xshab ketadi. Egri chiziqqa qo‘sishimcha tugun nuqtalar qo‘sish yoki ortiqchalarini olib tashlash bilan uni tahrirlash va qurilayotgan egri chiziqning ko‘rinishini butunlay o‘zgartirib yuborish

mumkin. Bunda **Перо+** (Pat+) va **Перо-** (Pat-) uskunalarini juda qo‘l keladi.

Pat uskunasidan foydalanish ancha mahorat talab qiladi. Shuning uchun unda qunt bilan ko‘proq ishlang.



## **YODDA SAQLANG !**

Pat yordamida yaratilgan konturni geometrik shaklga, niqobga yoki ajaratilgan sohaga aylantirish mumkin.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **PhotoShop**da tasvirlarga geometrik shakllarni qo‘shadigan nechta uskuna bor?
2. Geometrik shakllarni tasvirga joylash uskunalarini klaviatura orqali qanday faollashtiriladi?
3. Geometrik shakllarni joylash uskunalarini yordamida tasvirga bir nechta geometrik shakllarni joylang. Ular joylashgan qatlamlar ketma-ketligini o‘zgartiring.
4. Pat uskunasida bir nechta yopiq siniq chizing. Ularni geometrik shaklga o‘tkazing.
5. Pat uskunasi yordamida bir nechta yopiq egri chiziq chizing. Ularni ajaratilgan sohasiga aylantiring.
6. **Перо+** (Pat+) va **Перо-** (Pat-) uskunalarini yordamida mavjud chiziqlarga qo‘shimcha tugun nuqtalar qo‘shing va ulardan ba’zilarini olib tashlang.



## **UYGA VAZIFA**


Oltita geometrik shakl uskunalarining har biridan foydalanib oltita obyektni bitta tasvirga joylang.



## **16-DARS. TASVIRGA MATN JOYLASH**

Tasvirga ko‘pincha matn qo‘shishga to‘g‘ri keladi. **PhotoShop** matn bilan ishslashda ham katta imkoniyatlarga ega. Matn bilan ishslash uskunalarini uskunalar panelining uchinchi bo‘limida ikkinchi bo‘lib joylashgan. Ulardan keraklisini matn uskunalarini tugmasi ustiga sichqonchani olib kelib, chap tugmasini bosish va ro‘yxatdan zarurini tanlash bilan ishga tushirish mumkin. Boshqa uskunalar kabi ularni ham klaviatura orqali ishga tushirish mumkin.

Buning uchun unga mos qo‘yilgan lotin alifbosining bosh harfi **T** ni bir yoki bir necha marta bosish kerak bo‘ladi:



Matn bilan ishslash uchun to‘rtta uskuna mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi gorizontal matn, ikkinchisi vertikal matn, uchinchi va to‘rtinchilari gorizontal va vertikal niqob matn deb ataladi. Bu uskunalar yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgan.

Ulardan birinchisi gorizontal matn uskunasini ishgaga tushiramiz. Parametrlar panelida uning parametrlari paydo bo‘ladi:



Undagi o‘n ikkita parametrdan o‘ntasi rasmda ko‘rsatilgan. Ularning vazifalari bilan quyida tanishib chiqamiz:

- A** – oldin kiritilgan matn parametrlarini chaqiradi;
- B** – matn yo‘nalishini boshqasiga o‘zgartiradi;
- C** – matn uchun shrift tanlaydi;
- D** – matnning ko‘rinishi (oddiy, qiya, yo‘g‘on)ni tanlaydi;
- E** – matn o‘lchamini tanlaydi;
- F** – harflarning fon bilan qo‘silib ketishi usulini tanlaydi;
- G** – matnning qaysi tomonidan tekislanishini ko‘rsatadi;
- H** – matn rangini tanlash uchun ishlatiladi;
- I** – matnning shaklini o‘zgartirish usulini tanlash uchun xizmat qiladi;
- J** – **Символы** (Belgilar) va **Абзац** (Abzats) palitralarini palitralar sohasiga chiqaradi.

Ulardan tashqari, parametrlar panelining oxirida ikkita tugma bo‘lib, ular matn kiritishni tugatish uchun ishlatiladi. Ulardan birinchisi kiritilgan matnni bekor qilsa, ikkinchisi kiritilgan matnni alohida qatlama saqlab qo‘yadi.

Matn kiritishni tugatish uchun **Ctrl+Enter** qo‘shtugmasidan foydalanish


yoki uskunalar panelida boshqa uskunani tanlash yetarli.


Kiritiladigan matn ikki xil bo‘lishi mumkin: oddiy (qisqa) matn va matn bloki. Oddiy matn tasvirga qisqa yozuvlar, masalan, uning nomi, muallifi kabilarni kiritish uchun xizmat qilsa, blokli matn katta hajmdagi matnni kiritish va ularni bezatish uchun ishlatiladi.

Oddiy matn kiritish uchun matn uskunasini tanlab, matn kiritiladigan sohaning chap quyi burchagini tanlash yetarli. Matn blokini kiritish uchun bu blok egallaydigan soha ajratib olinishi kerak. Sohani ajratish to‘g‘ri to‘rtburchak chizish kabi amalga oshiriladi: blokning bir burchagiga sichqoncha ko‘rsatkichi olib kelinadi va uning chap tugmasini bosib turib, sichqoncha ko‘rsatkichi blokning qarama-qarshi uchiga olib kelinib, tugma qo‘yib yuboriladi.


Bu ikki turdagи matnni bir turdan ikkinchisiga o‘tkazish mumkin. Buning uchun sichqonchani matn ustiga olib kelib, o‘ng tugmasi bosiladi. Paydo bo‘lgan mavzubop menyudan [Преобразовать в блочный текст](#) (Matn blokiga aylantirish) yoki [Преобразовать в простой текст](#) (Oddiy matnga aylantirish) bandi tanlanadi.

Matn bilan ishslashda [Символы](#) (Belgilar) va [Абзац](#) (Abzats) palitralari yanada ko‘proq imkoniyatlarga ega. Bu palitralarning ko‘rinishi quyida keltirilgan:





(60-sahifadagi ikkinchi rasm) tanlanadi.




Tasvirga kiritilgan matn ustida bir qator shakl almashtirish amallarini bajarish mumkin. Bunda kiritilgan matn grafik tasvir sifatida qaraladi va undagi harflarning ko‘rinishi o‘zgartiriladi. Bu amallarni bajarish uchun avval matn kiritiladi, so‘ng parametrlar panelidagi **I** uskuna

Natijada ekranda bu uskunaning muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Undagi birinchi maydoncha **Стиль** (Uslub) deb ataladi. Unda shakl almashtirishning turi tanlanadi. Ularning soni o‘n beshta bo‘lib, to‘rtta guruhga ajratilgan. Bu uslublarning nomlari ro‘yxati chapdagi rasmda ko‘rsatilgan:

Ularning nomlari oldida kichik rasmida matn qanday ko‘rinishga o‘tishi sxematik tarzda ko‘rsatilgan. Bu maydonchaning pastida tanlangan uslubning bir nechta parametrlari keltiriladi. Ularni o‘zgartirib, shakl almashtirishni o‘zimiz xohlagan ko‘rinishga keltirishimiz mumkin.

Oynaning o‘ng tomonidagi **OK** tugmasi shakl almashtirishni bajarishga buyruq beradi. **Отмена** tugmasi esa shakl almashtirishni bekor qiladi.

Quyidagi rasmida bu shakl almashtirishlardan ba’zilariga misollar keltirilgan. Ularda shakl almashtirish turi tanlangan bo‘lib, parametrlarning qiymatlari o‘zgartirilmagan.



Matnga uslub qo'llashda [Стили](#) (Uslublar) palitrasidan foydalanish mumkin. Bu palitrani chaqirish uchun asosiy menyuning [Окно](#) (oyna) bo'li midagi [Стили](#) (Uslublar) bandini tanlash kerak bo'ladi. Bu palitra matndan boshqa obyektlar uchun ham uslubni aniqlashda ishlataladi. Buning uchun avval uning yashirin menyusidan (o'ng yuqori burchakdagi tugma) [Эффекты для текста](#) (Matn uchun effektlar) yoki [Эффекты для текста 2](#) (Matn uchun effektlar 2) ni tanlash kerak bo'ladi. Ulardan birinchisini tanlaganimizda palitra quyidagi ko'rinishga o'tadi:



Undagi har bir tugma alohida uslubga tegishli va bu tugmalardan biri bosilishi bilan ajratilgan matnga shu uslub qo'llaniladi. Quyida ulardan ba'zilari namuna sifatida keltirilgan:



## [YODDA SAQLANG !](#)

Matnni bezatish uchun [Стили](#) (Uslublar) palitrasidan foydalansa bo'ladi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. PhotoShopda nechta matn joylash uskunalarini bilasiz?
2. Matn bilan ishlashni tugatishning qanday usullarini bilasiz?
3. Matn joylash uskunasining parametrler panelida qanday parametrler joylashgan?
4. Matn bilan ishlashda qaysi palitralardan foydalaniлади?
5. Matn ustida shakl almashtirish qanday bajariladi?
6. Matn ustida necha xil turdag'i shakl almashtirishlar bor?
7. Стили (Uslublar) palitrasida matn uchun uslublarning nechta to'plami bor?



## UYGA VAZIFA

O'z ismingizni yozib, unga yuqoridaq rasmda ko'rsatilgan shakl almashtirishlari va uslublarini qo'llang.



## 17-DARS. NAZORAT ISHI

Quyidagi berilgan variantlardan nazorat ishlarini o'tkazishda foydalanish tavsija etiladi.

### 1-variant

1. RGB ranglar tizimi.
2. Mo'yqalam bilan ishlash.
3. Tasvirdagi kompyuter ekraniga o'zingizning suratingizni joylang.

### 2-variant

1. CMYK ranglar tizimi.
2. Qalam bilan ishlash.
3. Avtomobilning yon oynasiga muktabingiz binosini joylang.

### 3-variant

1. HSB ranglar tizimi.
2. Tasvirga geometrik shakllar joylash.
3. Fotosuratingizni kubning uch tomoniga joylang.

### 4-variant

1. Lab ranglar tizimi.
2. Tasvirga matn joylash.
3. Yangi tasvir yaratib, unga besh xil geomertik shakl joylang.

## II BOB. WEB-DIZAYN ASOSLARI

Siz ushbu bobni mutolaa qilib, web-sahifa, web-sayt, web-dizayn tushunchalari va uning dasturiy ta'minoti, **Macromedia Flash 8** dasturi yordamida web-sahifalar yaratish, ularga rasmli, grafikli, tovushli ma'lumotlarni joylashtirish usullarini, shuningdek, formalar, animatsiyalar yaratish va ularni joylashtirish hamda web-sahifalar orasida aloqalarni o'rnatish haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz.



### **18-DARS. WEB-SAHIFA, WEB-SAYT VA WEB-DIZAYN TUSHUNCHALARI**

Internetda axborotlarni joylashtirish va ularni kompyuter ekranidagi ko'rinishi qulay bo'lishi uchun web-sahifalardan foydalaniлади.

**Web-sahifa (inglizcha – Web page) – bu HTML fayl kengaytmasisiga ega bo'lgan gipermatnli fayldir.**

Har xil web-sahifalarga tarqatilgan va o'zaro bog'langan hujjat gipermatn deyiladi. Unga matn, rasm, ovoz, video va animatsiya kabi ma'lumotlar joylashtirish mumkin.

Web-sahifada ma'lumotlar sahifa ko'rinishida beriladi. Bu sahifalar, odatda, **HTML** hujjat, ya'ni **HTML** tilida yozilgan hujjat deb qaraladi. Bu holda yozilgan hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar ishlataladi. Bunday dasturlar **Brauzer** (ko'rvuchi)lar deb ataladi. **Windows** muhitida standart ishlataladigan **Brauzer** bu **Internet Explorer** hisoblanadi.

**Web-sayt (inglizcha – Website, web – o'rgimchak to'ri, site – joyi) – bu bir nechta web-sahifalarni kompyuter tarmog'ida bitta manzilda birlashtirilgan fayllar to'plamidir (Domen ga yoki IP ga ega bo'ladi).**

**Domen – bu biror-bir serverda joylashgan saytga olib boradigan manzildir.**

Barcha web-saytlar qaysidir serverda joylashgan bo‘ladi. Aslida Siz **hosting** xizmatidan foydalanib, saytingiz ma’lumotlarini qaysidir serverga joylashtirganingizda saytingiz **IP** manzilga ega bo‘ladi. Masalan: **94.100.180.199**. Agar **domen** bo‘limganida yaratilgan web-saytni yuklash uchun brauzerda **94.100.180.199** raqamlar yoziladi.

**Hosting – bu web-sayt uchun joy ajratib beruvchi xizmat turidir.**

Odatda **domen** beruvchi kompaniyalarda ham **hosting** xizmati bo‘ladi. **Hosting** va **domenni** bir kompaniyadan yoki alohida kompaniyalardan ham olish mumkin. Web-saytlar uchun **hosting** beruvchi kompaniyalarda katta hajmdagi maxsus serverlar mavjud. Ular tinimsiz ishlab turish orqali web-saytlarning ishlashini ta’minlaydi.

**Web-dizayn – bu yaratiladigan web-saytlarga texnik ishlov berish va axborotlarni tizimli ravishda shakllantirishdir.**

Axborotlar bir-biri bilan gipermatnli bog‘lanishlar yordamida web-sahifalarga tarqatiladi. Bunday sahifalar birqalikda web-saytni tashkil etadi. Web-saytlar Internetning yagona axborot oralig‘ida birlashadi. Bunda web-sayt va web-sahifalar o‘zaro har xil usullar bilan bog‘lanadi. Ushbu yagona oraliq **World Wide Web** (butun dunyo o‘rgimchak to‘ri) yoki qisqacha **WWW** deyiladi. Web-sahifalarga gipermurojaat **WWW** ning asosiy xususiyatlaridan biridir. Istalgan bir hujjatdan boshqa bir **WWW** hujjatga **HTML** ning maxsus teglari yordamida murojaat qilinadi. Internetda ishlagan vaqtin-gizda siz web-sahifalarda gipermatnli murojaatlarga duch kelasiz. Bu matn fragmentlari ko‘k shriftda va tagi chizilgan bo‘ladi. Agar siz ushbu yozuvni sichqoncha tugmasi yordamida bossangiz, u avtomatik ravishda boshqa web-sahifaga murojaat qiladi.


Dastlab web-sayt yaratish uchun faqat **HTML** tilini yaxshi o‘zlashtirgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu muammoni hal etish

maqsadida, turli xil axborot texnologiyalari sohasidagi kompaniyalar tomonidan zamonaviy dasturiy vositalar yaratilgan. Ushbu dasturiy vositalardan foydalaniib web-sayt yaratishning barcha bosqichlari **HTML** tili kodiga tayangan holda amalga oshirilgan. Biroq, **HTML** tilining barcha afzalliklariga qaramasdan, web-saytni boshqarish, vaqt o'tgan sayin yangi ma'lumotlarni qo'shishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelindi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida yangi dasturiy ta'minot yaratish ishlarini boshlashga ehtiyoj sezildi. Bu dasturiy ta'minotlar kontentni (ma'lumotlarni) boshqarish tizimlari (**CMS** – Content Management System) deb ataladi.

Ayni paytda web-sayt yaratishni ikki xil usulda amalga oshirish mumkin: statik va dinamik. HTML da yozilgan web-saytlar statik holda bo'lsa, zamonaviy web-saytlar **dinamik** ko'rinishga ega.

**CMS** tizimlarining asosiy afzallik jihat shundaki, dinamik web-saytlarni oson yarata olish va ularni turli xil axborotlar bilan to'ldirish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda, **CMS** asosida qurilgan **Drupal**, **PHP-Nuke**, **WebDirector**, **NetCat**, **Slaed**, **Microsoft CMS**, **WordPress**, **PHPShop** kabi platformalarni misol tariqasida aytish mumkin.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining web-saytini asosiy sahifasidan lavha keltirilgan ([uzedu.uz](http://uzedu.uz)):



Web-sahifalar yaratishning asosi sifatida tasviriy san'atning yangi turi web-dizaynga bevosita aloqadordir. Internet dizaynerlari rasm va tasvirlar tayyorlash bilan cheklanib qolmasdan, balki tayyorlangan rasm va tasvirlarni tarmoqqa joylashtirish, web-sahifalar orasida aloqalar o'rnatish, matn, tasvir

va rasmlarning harakatini amalga oshirish, ranglarni estetik jihatdan to‘g‘ri va chiroyli tanlashga e’tibor qaratilishi lozim.



## **YODDA SAQLANG !**

Web-sayt yaratish ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin: statik va dinamik.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Web-sahifa deganda nimani tushunasiz?
2. Internet tarmog‘idan ([uzedu.uz](http://uzedu.uz)) web-saytini yuklang va uning dizaynini tahlil qiling.



## **UYGA VAZIFA**

1. Web-sayt deganda nimani tushunasiz?
2. Internet tarmog‘idan ([natlib.uz](http://natlib.uz)) web-saytni yuklang va uning dizaynini tahlil qiling.



## **19-DARS. WEB-DIZAYN VA UNING DASTURIY TA’MINOTI. MACROMEDIA FLASH DASTURI YORDAMIIDA WEB-SAHIFA YARATISH VA BEZASH**

Bugungi kunda web-sahifalarni yartish va ularni bezashda **Java Script**, **Macromedia Dreamweaver**, **Macromedia Flash** kabi dasturiy vositalardan foydalananiladi. Ushbu dasturiy vositalar yordamida web-sahifa yaratish, ularga rasmi, grafikli ma'lumotlarni turli usullarda joylashtirish va animatsiyalar yaratish hamda ularni o'rnatish usullari, tovushli ma'lumotlarni joylashtirish, web-sahifalarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash kabi imkoniyatlarga ega.

**Java Script** dasturlash texnologiyasi bo‘lib, **HTML** hujjatlarni yaratishda ishlataladi. Unda makrobuyruq texnologiyasi, ya’ni bir necha buyruqni bir makrobuyruq shaklida tasvirlash keng qo‘llanilgan.

**Java Script**da arifimetik amallar **Paskal** dasturi tili bilan bir xil bo‘lib, matematik funksiyalar esa quyidagicha:

T/r	Fuksiya	Vazifasi
1.	<b>Math.abs(a)</b>	<b>a</b> sonining modulini hisoblaydi.
2.	<b>Math.pow(a,b)</b>	<b>a</b> ning <b>b</b> darajasini hisoblaydi.
3.	<b>Math.sqrt(a)</b>	<b>a</b> sonining kvadrat ildizini hisoblaydi.

4.	$\text{Math.cos}(a)$	a sonining kosinusini hisoblaydi.
5.	$\text{Math.sin}(a)$	a sonining sinusini hisoblaydi.
6.	$\text{Math.tan}(a)$	a sonining tangensini hisoblaydi.
7.	$\text{Math.log}(a)$	a sonining natural logarifmini hisoblaydi.

Java Scriptda formalar hosil qilish va matematik hisob ishlarini bajarish uchun Windows operatsion sistemasining bloknot matn muharriridan foydalaniib, HTML kodi ichida, asosan <HEAD> tegi orasida yoziladi.

1-mashq. Java Scriptda uchburchakning yuzasini Geron formulasidan foydalaniib hisoblovchi forma oynasini hosil qilish. ( $S=\sqrt{(p(p-a)(p-b)(p-c))}$ ),  $p=(a+b+c)/2$ , a, b, c – uchburchak tomonlari uzunliklari).

### Bajarish:

1. Bloknot matn muharriri yukланади.

2.Dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi yoziladi:

```
<html> <head> <title>uchburchak</title> </head>
<body> <font color="green" size=5>Uchburchakning yuzasini hisob-
lash</font>
```

```
<script type="text/javascript"> function hisob() {
var a=1*document.myform.tomon1.value;
var b=1*document.myform.tomon2.value;
var c=1*document.myform.tomon3.value;
if ( ((a+b)>c) && ((a+c)>b) && ((b+c)>a) ) { var p=(a+b+c)/2;
var s=Math.sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
document.myform.javob.value=s; } else {
document.myform.javob.value="Berilgan qiymatlardan uchburchak ya-
sab bo'lmaydi"; } } </script> <form name="myform">
<b><font color="ooooff">Uchburchak tomonlari qiymatlarini kriting:</font></b>
<p> a kesma uzunligi: <input type="text" size="20" name="tomon1">
<p> b kesma uzunligi: <input type="text" size="20" name="tomon2">
<p> c kesma uzunligi: <input type="text" size="20" name="tomon3"> <p>
<input type="button" value="Hisoblash" onclick="hisob()">
<input type="reset" value="Yangilash">
<p> Uchburchak yuzasi <input type="text" size="50" name="javob">
</form> </body> </html>
```



3. Kompyuter xotirasiga biror-bir nom berib **HTML** kengaytmasi bilan saqlanadi (Masalan: sahifa.html).


4. Dasturni yuklab, uchburchak tomonlarining qiymatlari kiritilib, hisoblash tugmasini bosish orqali natijani ko‘rish mumkin.

**Macromedia Dreamweaver 8** dasturi **Macromedia** kompaniyasining dasturiy mahsuloti bo‘lib, ushbu dastur web-sahifa va web-saytlar yaratish uchun qulay dasturiy vosita hisoblanadi. Dasturga turli rasmlar, jadvallar, audio, video fayllar o‘rnatish hamda matn kiritish imkoniyatlari mavjud.

**Macromedia Dreamweaver 8** dasturida giper bog‘lanishlar o‘rnatish uchun -**Hyperlink**, rasmlarni joylashtirish -**Images**, jadvallar yaratish -**Table**, animatsiya effektlari va tugmalarni joylashtirish -**Media: Flash** belgilaridan foydalaniladi. Ishchi sohaga rang berish uchun sichqonchaning o‘ng tugmasi bosilib, hosil bo‘lgan ro‘yxatdan **Page Properties...** bandi tanlanadi. Oynaning **Appearance** bandiga o‘tib kerakli ranglar tanlanadi. Tovushli ma’lumotlarni joylashtirish uchun esa **Insert→Media→Flash video...** ketma-ketligi tanlanadi.

**Macromedia Flash 8** dasturi vektorli grafikadan foydalanishga asoslangan texnologiyadir. **Macromedia Flash 8** dasturi eng samarali grafik formatlardan bo‘lmasa-da, **SWF** formati foydalanuvchilarga cheklanmagan grafiklar bilan ishslash imkoniyatiga ega bo‘lib, web-sahifa va web-sayt yaratish uchun eng qulay dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu dasturiy vositaning qulayligi shundan iboratki, web-sahifa yaratish uchun barcha bezak va animatsiya effektlarini o‘zida yaratish hamda hisob ishlarini bajarish uchun dasturlash imkoniyatlariga ega. Shuningdek, u barcha **brauzer**larda ochilishi, yuklanish darajasi tezligi hamda ma’lumotlarni xatosiz namoyish eta olishi bilan boshqa dasturiy vositalardan ajralib turadi.

**Macromedia Flash 8** dasturini yuklash ketma-ketligi quyidagicha: **Пуск→Все программы→Macromedia→Macromedia Flash 8→flash Document**. Natijada quyidagi oyna hosil bo‘ladi:



Jihozlar panelining vazifalari quyidagi jadvalda aks etgan:

T/r	Jihoz belgisi	Jihoz nomi	Jihoz vazifasi
1.		Selection Tool (V)	Bir nechta shakl va belgilarni belgilashda foydalaniladi.
2.		Subselection Tool (A)	Shakl va belgilarni belgilashda foydalaniladi.
3.		Free Transform Tool (Q)	Obyektni o'zgartirish (aylantirish)da foydalaniladi.
4.		Fill Transform Tool (F)	Rangni o'zgartirishda foydalaniladi.
5.		Line Tool (N)	To'g'ri chiziq chizishda foydalaniladi.
6.		Lasso Tool (L)	Ixtiyoriy shakl va belgini belgilashda foydalaniladi.
7.		Pen Tool (P)	Har xil shakllar chizishda foydalaniladi.
8.		Text tool (T)	Matn yozishda foydalaniladi.
9.		Oval Tool (O)	Aylana va ellips chizishda foydalaniladi.

10.		Rectangle Tool (R)	To‘g‘ri to‘rtburchak chizishda foydalaniladi.
11.		Pencil Tool (Y)	Rasm va har xil shakllar chizishda foydalaniladi.
12.		Brush Tool (B)	Shakl chizish va shakllarni ranglashda foydalaniladi.
13.		Ink Bottle Tool (S)	Shakllarning sohalarini ranglashda foydalaniladi.
14.		Paint Bucket Tool (K)	Shakllarga rang quyishda foydalaniladi.
15.		Eyedropper Tool (I)	Ixtiyoriy sohadagi rangni aniqlashda foydalaniladi.
16.		Eraser Tool (E)	Hosil qilingan shakllarni o‘chirishda foydalaniladi.
17.		Hand Tool (H)	Ish sohani surishda foydalaniladi.
18.		Zoom Tool (M,Z)	Ish sohani katta va kichik qilishda foydalaniladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan dasturiy vositalar yordamida web-sahifa, web-sayt yaratish va ularni bezashda foydalaniladi.



## YODDA SAQLANG !

Java Scriptda arifmetik amallar **Paskal** dasturlash tili bilan bir xil bo‘ladi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Java Scriptda berilgan ikki sonning yig‘indisini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.
2. Macromedia Dreamweaver 8 dasturida quyidagi topshiriqlarni bajaring: matn yozing; matnga rang bering; ishchi oynaga rang bering; yaratilgan faylni kompyuter xotirasida saqlang.



## UYGA VAZIFA

1. Java Scriptda sonning kvadrat ildizini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.

2. **Macromedia Dreamweaver 8** dasturini yuklang va unga rasm joylashtirib kompyuter xotirasida saqlang.



## **20-DARS. WEB-SAHIFALARGA RASMLI, GRAFIKLI MA'LUMOTLARNI JOYLASHTIRISH VA BEZASH**

**Macromedia Flash 8** dasturining jihozlar panelida tasvirlarni chizish va ularga rang berish hamda matnli ma'lumotlarni yozish uchun mo'ljallangan uskunalar joylashtirilgan bo'lib, u to'rt qismdan iborat:

1. **Tools** – bu qismda to'g'ri chiziq, egri chiziq, aylana, ellips, to'rtbur-chak chizish, matn yozish, belgi va shakllarni belgilash, chizilgan shakllarni o'chirish ishlarini amalga oshirish mumkin.

2. **View** – bu qismda ishchi sohadagi tasvirlarni ko'rish va boshqarish mumkin.

3. **Colors** – bu qismda chizilgan shakllar chegarasi va sohalariga rang berish mumkin.

4. **Options** – bu qismda ba'zi bir tanlangan jihozlar uchun qo'shimcha parametrлarni o'rnatish elementlari joylashtirilgan.

Qo'shimcha parametrлar bo'lmagan uskunalar uchun **Options** maydoni bo'sh qoladi.

**Macromedia Flash 8** dasturida grafik obyektlarning qo'shimcha imkoniyatlarini tahrirlash uskunasining **Properties** bo'limida amalga oshirish mumkin.

**Macromedia Flash 8** dasturida yaratilgan web-sahifalarga tayyor rasm-larni joylashtirish uchun quyidagi ketma-ketlik bajariladi:

**File→Import→Import to stage...** yoki **Ctrl+R** tugmalarni bosish orqali rasm joylashtirilgan joy tanlanadi va kerakli rasm belgilanib, **Открыть** tugmasi bosiladi. Rasmning o'lchamlari **Properties** bo'limining **W:** va **H:** qatori dan foydalanib o'zgartiriladi.

**Macromedia Flash 8** dasturida har xil belgi, qo'shimcha tugmalar va web-sahifaga kalendar joylashtirish uchun **Windows→Components** ketma-ketlik tanlanadi.

**1-mashq.** Quyidagi web-sahifani hosil qiling:


Ushbu oynadagi “11-A sinf” tugmasi bosilganda, 11-A sinf o‘quvchilarining ro‘yxati, “11-B sinf” tugmasi bosilganda, “11-B sinf” o‘quvchilarining ro‘yxati, “11-D sinf” tugmasi bosilganda, “11-D sinf” o‘quvchilarining ro‘yxatini chiqarsin.

#### 11-sinf o‘quvchilarining web-sahifasi

11-A sinf
11-B sinf
11-D sinf

#### Bajarish:

1. **Macromedia Flash 8** dasturi yuklanadi.
2. Oynaning o‘lchamlari kompyuter ekraniga moslab olinadi. Buning uchun esa tahrirlash uskunasining **Properties** bo‘limini **Size** bandidan **1366×768pixels** o‘lchami tanlanadi.
3. Oynaga rang berish uchun **Properties** bo‘limining **Background** bandidan foydalanalidi.
4. **Text tool (T)** jihozidan foydalanim “11-sinf o‘quvchilarining web-sahifasi” yozuvini kiritiladi.
5. Kiritilgan yozuvlarni rangi va o‘lchamlari **Properties** bo‘limidan o‘zgartiriladi.
6. Oynaga tugmalar o‘rnatish uchun menyular satridan **Windows→Common→Libraries→Buttons** ketma-ketlik tanlanadi.
7. Ro‘yxatdan kerakli tugma belgilanib, sichqoncha chap tugmasi bilan sudrab ishchi sohaga o‘tkaziladi.
8. Tugmalarga yozuv yozish uchun sichqonchaning chap tugmasi ikki marta ketma-ket bosish orqali amalga oshiriladi. Tugmaning o‘lchamlarini o‘zgartirish uchun **Properties** bo‘limining **W:** va **H:** qatoridan foydalanalidi.
9. **F7** tugmani 3 marta ketma-ket bosib, 3 ta oyna hosil qilinadi va har bir oynaga mos ravishda 11 A, 11 B, 11 D-sinflar haqidagi ma’lumotlar kiritiladi.
10. “11-A sinf” nomli tugma belgilanadi va **F9** tugma bosiladi (dasturlash maydoniga o‘tiladi).
11. “11-A sinf” nomli tugmani bosganimizda navbatdagisi oynaga o‘tish



(11-A sinf o‘quvchilari haqidagi oynaga) uchun tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi:

**on (release) { gotoAndStop(2); }**

12. “11-B sinf” tugmasining dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi: **on (release) { gotoAndStop(3); }**

13. “11-D sinf” tugmasining dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi: **on (release) { gotoAndStop(4); }**

14. Ikkinchchi oynadan birinchi oynaga o‘tish uchun quyidagi dastur kodi kiritiladi: **on (release) { gotoAndStop(1); }**

15. Ishchi sohaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi (F9 tugmani bosish orqali): **stop();**

Agar ushbu kod kiritilmasa oyna faol holatga o‘tkazilganda yozuvlar va tigmalar harakat holatda bo‘ladi.

16. Natijani tekshirib ko‘rish uchun **Ctrl+Enter** yoki **F12** tigmalari bosiladi (oyna faol holatga o‘tadi).

17. Yaratilgan web-sahifani kompyuter xotirasida saqlash uchun quyidagi ketmat-ketlik bajariladi: **D** diskdan (istalgan disk yoki papkada saqlash mumkin) “11-sinf” nomli papka yaratiladi va birinchi marta **File→Sav As..** tanlanib, **Сохранить** tugmasi bosiladi. Ikkinchchi marta **File→Publish Settings...** tanlanadi. Hosil bo‘lgan oynadan **Flash (.swf)** va **HTML (.html)** bo‘limlari belgilanib, **Publish** tugmasi bosiladi.

2-mashq. Xalq ta’limi vazirligining quyidagi web-saytini bosh sahifasini tayyorlash ([uzedu.uz](http://uzedu.uz)):

O'zbek - Узб - Рус - Eng

Vazirlilik Me'yoriy hujjatlar Ta'lim Xizmatlar Matbuot markazi

Virtual qabulxona Ochiq vazirlilik Murojaat yuborish Yagona oyna

Yangiliklar

Yangi yillardagi rejalar muhokama qilindi

Eng ko' o'qilgan

Rahbarlar uchun o'quv-seminar o'tkazilmoqda

Respublikadagi barcha maktabalarning 2018 yilga mo'ljalangan reja hamda ustuvor vazifalari ota-onalar muhokamasi va takliflari asosida

## Bajarish:

1. **Rectangle Tool (R)** johozi tanlanadi.
2. **Properties** bo‘limining **Fill color** bandidan rang beriladi.
3. Oynadagi rasmlar **PhotoShop** dasturida tayyorlanadi yoki tayyor rasmlar yig‘ilib, kompyuterning **D** diskda “Rasmlar” nomli papkaga jamlanadi.
4. **Ctrl+R** tugmalar bosiladi va **D** diskdagи “Rasmlar” nomli papkadan rasm tanlanib, **Открыть** tugmasi bosiladi.
5. Yuklangan rasmlar oynaning kerakli joylariga joylashtiriladi va o‘lchamlari **Properties** bo‘limining **W:** va **H:** qatorida o‘zgartiriladi.
6. **Rectangle Tool (R)** johozi yordamida to‘rtburchak shakllar chiziladi.
7. **Text tool (T)** jihozidan foydalanib oynadagi barcha yozuvlar yoziladi.
8. **Line Tool (N)** jihozidan foydalnib to‘g‘ri chiziq chiziladi.
9. Hosil bo‘lgan web-sahifani kompyuter xotirasida saqlanadi 3(**Ctrl+Shift+S** tugmalari bosiladi va **Имя файл** qatoriga nom berib **Сохранить** tugmasi bosiladi).

Shunday qilib, **Macromedia Flash 8** dasturi yordamida turli web-sahifalar yaratish va unda bezash ishlarini olib borish mumkin.



## **YODDA SAQLANG !**

Web-sahifa yaratishda oynaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodini kiritish kerak: **stop();**



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **Macromedia Flash 8** dasturida hosil qilingan tugmaning dasturlash maydoniga qanday o‘tiladi?
2. Xalq ta’limi vazirligi web-saytining “Ta’limda AKT”, “Sayt xaritasi”, “Forum” sahifalarini tayyorlang.



## **UYGA VAZIFA**

1. **Macromedia Flash 8** dasturining **Properties** bo‘limini tahlil qiling.
2. **Macromedia Flash 8** dasturida 4 ta oyna hosil qiling va ularga tugmalar joylashtiring. Tugmalar bosilganda bir oynadan navbatdagi oy-naga o‘tsin.



## 21-DARS. WEB-SAHIFALARDA FORMALAR YARATISH VA BEZASH

Ma'lumki, web-sahifa va web-saytlar yaratishda formalar hosil qilish va ularga ma'lumotlarni kiritish, kiritilgan ma'lumotlarni jamlash muhim hisoblanadi. **Macromedia Flash 8** dasturida ushbu ishlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

**Macromedia Flash 8** dasturida kataklar hosil qilish uchun **Text tool (T)** jihozidan, web-sahifa ishchi holatga o'tkazilib, qiymatlar kiritiladigan har bir kataklar alohida ko'rinish turishi uchun **Properties** bo'limining **Show border around tex** bandidan, hosil qilingan kataklarga qiymatlar kiritish va hisob natijalarini chiqarish uchun **Input text** bandidan, kiritilgan matnlarni katakka chiqarish uchun **Dynamic Text** bandidan foydalilanildi.

**Macromedia Flash 8** dasturida arifmetik amallar va matematik funksiyalar **Java Script** dasturlash texnologiyasi bilan bir xil.


**1-mashq.** **Macromedia Flash 8** dasturida birinchi oynaning kataklarida o'quvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzili va tug'ilgan yili kiritilganda ikkinchi oynaning bitta katagida hosil qilish.

### Bajarish:

1. **Text tool (T)** jihози yordamida ishchi oynada beshta katak hosil qilinadi va mos ravishda familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzili va tug'ilgan yili yozuvni kiritiladi.

2. Ushbu har bir yozuv uchun **Text tool (T)** jihози yordamida alohida kataklar hosil qilinib, **Properties** bo'limidan **Static text** → **Input text**ga o'zgartiriladi va kerakli o'chamlar tanlab olinadi.

3. Sahifa ishchi holatga keltirilib, ma'lumot kiritiladigan kataklar alohida ko'rinish turishi uchun **Properties** bo'limining **Show border around tex** bandi tanlanadi (har bir matn kiritiladigan katak uchun bajariladi).



4. Input text xossasining Var qatoriga kerakli nom kiritiladi (“Familyasi” yozuvining qatori belgilanib **bir**, “Ismi” yozuvining qatori belgilanib **ikki**, “Otasini ismi” yozuvining qatori belgilanib **uch**, “Tug‘ilgan yil” yozuvining qatori belgilanib **turt** (to‘rt so‘zini qabul qilmaydi), “Yashash manzili” yozuvining qatori belgilanib besh yozuvi kiritiladi);

5. Ishchi sohaning dasturlash maydoniga **stop()**; kodi kiritiladi;

6. Windows menyusida tugma hosil qilinadi va uning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi: **on (release) { gotoAndStop(2); }**



7. F7 tugma bosiladi (ikkinchi oyna hosil qilinadi).

8. Ikkinci oynada **Text tool (T)** jihozidan foydalanib ikkita katak hosil qilinadi va birinchi katakka “Umumiy” yozuvi kiritiladi.

9. Birinchi oynaning kataklariga kiritilgan ma'lumotlar ikkinchi oynanining katagida hosil qilish uchun ikkinchi oynaning ikkinchi katagi belgilanib, **Properties** bo‘limidagi **Static text** -> **Dynamic Text**ga o‘zgartiriladi va **Var** qatoriga “natija” yozuvi kiritiladi.

10. Ikkinci oynaga **Windows** menyusidan tugma hosil qilinadi va uning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi (Tugma belgilanib, **F9** tugma bosiladi):

**on (release)**

**{natija=\_root.bir+\_root.ikki+\_root.uch+\_root.turt+\_root.besh;}**



11. Crtl+Enter tugmalari bosilib, o‘quvchi haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

12. O'tish tugmasi bosilib, ikkinchi oynaga o'tiladi. Ikkinci oynadagi "Umumlashtirish tugmasi" bosilganda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi:

Familiyasi	Maxmudov	Tug'ilgan yili	12.07.2016
Ismi	Vali	Yashash manzili	Navoiy shahar
Otasining ismi	Axmedovich		<input type="button" value="O'tish"/>

Umumiyy	Maxmudov Vali Axmedovich 12.07.2016 Navoiy shahar
	<input type="button" value="Umumlashtirish"/>

**2-mashq.** Xalq ta'limi vazirligi web-saytining quyidagi "Virtual qabulxona" bo'limi sahifasini tayyorlash:

<b>Murojaatni yuboring</b>	<b>Hududiy boshqarmalar</b>	
<b>Murojaatni yuborish uchun barcha maydonlarni to'ldirish shart</b>		
Familiyangiz	Ismingiz	Otagizingning ismi
<input type="text"/>	<input type="text"/>	<input type="text"/>
Hudud	Tuman (shahar)	
<input type="text"/>	<input type="text"/>	
Manzil		
<b>ANDIJON VILOVATIXALQ TA'LIMI BOSHQARMASI</b> <b>Nazarov Anvarjon Zokirovich</b> Tel.: (0 374) 228-26-71 Faks: (0 374) 228-25-89 Web-sayt: <a href="http://andijon_vxtb.uz/">http://andijon_vxtb.uz/</a> E-mail: <a href="mailto:andijon_vxtb@xtra.uz">andijon_vxtb@xtra.uz</a> Manzil: 110000, Andijon viloyati, Andijon shahri, A.Umarxon ko'chasi, 23-uy <b>BUXORO VILOVATIXALQ TA'LIMI BOSHQARMASI</b> Boshqarma boshlig'i		

### Bajarish:

1. Rectangle Tool (R) jahozi tanlanadi.
2. Properties bo'limining Fill color bandidan rang beriladi.
3. Text tool (T) jahozi yordamida barcha yozuvlar yoziladi.
4. Text tool (T) jahozi yordamida kataklar hosil qilinib, Properties bo'limidan Static text -> Input textga o'zgartiriladi va kerakli o'lchamlar tanlab olinadi.
5. Properties bo'limining Show border around tex bandi tanlanadi (har bir matn kiritiladigan katak uchun bajariladi).
6. Hosil bo'lgan web-sahifani D diskda "Virtual qabulxona" sahifasi nomi bilan saqlanadi.

**3-mashq.** Macromedia Flash 8 dasturida berilgan ikki sonning ko'paytmasini hisoblovchi forma oynasini hosil qilish.

### Bajarish:

1. Text tool (T) jahozi yordamida A, B va "Natija": so'zi kiritiladi.
2. Ushbu har bir yozuv uchun jihozlar panelidan Text tool (T) alohida katakchalar hosil qilinib, Properties bo'limidan Static text -> Input textga

o‘zgartiriladi va kerakli o‘lchamlar tanlab olinadi.

3. Sahifa ishchi holatga keltirilib, qiymatlar kiritiladigan har bir kataklar alohida ko‘rinib turishi uchun **Properties** bo‘limining **Show border around tex** belgisi tanlanadi.


4. Ishchi sohaga rang beriladi.

5. Son qiymat kiritish uchun hosil qilingan kataklar belgilanib mos ravishda **Properties** bo‘limining var qatoriga “ason”, “bson” va “natija” jumllari kiritiladi.

6. Windows menyusida tugma hosil qilinadi va uning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi:

```
on (release) {var  
a=Number(_root.ason);  
b=Number(_root bson);  
_root.natija=a*b;}
```

7. **Ctrl+Enter** tugmalari yordamida ishchi holatga o‘tkaziladi.



## YODDA SAQLANG !

Macromedia Flash 8 dasturida arifmetik amallar va matematik funksiyalar Java Script dasturlash texnologiyasi bilan bir xil.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Macromedia Flash 8 dasturi oynasini kataklariga o‘quvchilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, telefon raqami kiritganda, ushbu oynaning o‘zida bitta katakka birlashtiruvchi forma oynasini hosil qiling.
2. Macromedia Flash 8 dasturida berilgan ikkita sonni yig‘indisining kvadratini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.




## UYGA VAZIFA

1. Macromedia Flash 8 dasturining birinchi oynasida o‘quvchining familiyasi, ismi, otasining ismini, ikkinchi oynada telefon raqami, elektron pochta manzili kiritilganda uchunchi oynaning katagida birlashtiruvchi forma oynasini hosil qiling.
2. Macromedia Flash 8 dasturida sonning kvadrat ildizini hisoblovchi forma oynasini yarating.



## 22-DARS. WEB-SAHIFALARDA ANIMATSIYALAR VA ULARNI O'R NATISH

Web-sahifalarga mo'ljallangan animatsiyalar yaratishda **Macromedia Flash 8** dasturidan foydalanish samarali hisoblanadi. **Macromedia Flash 8** dasturida eng sodda animatsiyalar yaratishni bir nechta bosqichlarda amalga oshirish mumkin. Murakkab animatsiyalar yaratish uchun sizdan biroz vaqt talab etiladi. Animatsiyalar yaratishda qavat **Layer** va kadrlar **Frame**dan foydalilanildi. Kadrlar va qavatlar **Timeline** oynasida mavjud bo'lib, uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:



**Macromedia Flash 8** dasturida kadr qo'shish uchun **F6** tugmasidan, qavat qo'shish uchun esa **Timeline** oynasining **Insert Layer** papkasidan foydalilanildi.

**1-mashq.** “11-sinf” so‘zini harakatlantirish.

**Bajarish:**

1. **Text tool (T)** jihozini tanlanib, “11-sinf” yozuvini kiritiladi.
2. **F5** tugma yordamida kerakli o'lcham belgilanib, **F6** tugma bosiladi.
3. Hosil qilingan **Frame**ning ixtiyoriy qismiga sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va menyudan **Create Motion Tween** bandi tanlanadi:



4. “11-sinf” yozuvining koordinatalari o'zgartiriladi (yozuv belgilanib, sichqoncha tugmasi yordamida sudrib kerakli joyga o'tkaziladi);


5. Natijani ko'rish uchun **Ctrl+Enter** tugmalari bosiladi.

**2-mashq.** To'rtburchak shakli harakatlanib aylana ko'rinishiga o'tish.


**Bajarish:**

1. To'rtburchak shakl chiziladi.

2. F5 tugma yordamida kerakli o‘lcham belgilanib, F6 tugma bosiladi.
3. Oxirgi **Frame**da to‘rtburchakni o‘chirib, aylana chiziladi:



Properties bo‘limining Tween bandidan Shape tanlanadi:



4. Natijani ko‘rish uchun Ctrl+Enter tugmalari bosiladi.

**3-mashq.** Sharni harakatlantirish.

Bajarish:

1. Oval Tool (O) jahozi belgilanib, Fill Color bandidan shar tanlanadi.
2. F5 tugma yordamida kerakli o‘lcham belgilanib, F6 tugma bosiladi.
3. Frameda sichqonchani chap tugmasi bosiladi va undan **Create Motion Tween** qatori belgilanadi.



4. Shar belgilanib kerakli joyga siljtiladi. Natijani ko‘rish uchun Ctrl+Enter tugmalari bosiladi.

**4-mashq.** O‘zaro ikki sharni to‘qnashtirish.

Bajarish:

1. **Oval Tool (O)** johozi belgilanib, **Fill Color** bandidan shar tanlanadi va **F5** tugma yordamida kerakli o‘lcham belgilanib, **F6** tugma bosiladi.

2. Shar belgilanib, ishchi soha o‘rtasiga siljtiladi va **Frame**da sichqonchani chap tugmasi bosilib, undan **Create Motion Tween** qatori tanlanadi.

3. **Layer 2** qatlami hosil qilinib, ishchi sohaning oxiriga ikkinchi shar chiziladi va **F5** tugma yordamida kerakli o‘lcham belgilanib, **F6** tugma bosiladi.

4. Shar belgilanib, ishchi sohaning o‘rtasiga siljtiladi (**Layer 1** qatlamidagi sharga qarama-qarshi) va **Frame**da sichqonchani chap tugmasi bosilib, undan **Create Motion Tween** qatori tanlanadi.

5. **Ctrl+Enter** tugmalari bosiladi.



**Macromedia Flash 8** dasturida yartilgan animatsiyalarini web-sahifaga joylashtirish uchun **Ctrl+R** tugmalari bosilib, kerakli fayl belgilanadi va Открыть tugmasi bosiladi.



### **YODDA SAQLANG !**

Animatsiyalar yaratishda qavat **Layer** va kadrlar **Frame**dan foydalani-ladi.



### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **Macromedia Flash 8** dasturida oddiy matnni harakatlantiring.
2. **Macromedia Flash 8** dasturida aylana shakl harakatlanib to‘rtbur-chak shaklga o‘tuvchi animatsiya yarating.



### **UYGA VAZIFA**

1. **Macromedia Flash 8** dasturida shar chizing va uni harakatlantiring.
2. Mustaqil ravishda web-sahifalarga mo‘ljallangan animatsiya effektlarini yarating.



## **23-DARS. AMALIY MASHG‘ULOT**

**Macromedia Flash 8** dasturida bir vaqtning o‘zida bir nechta animatsiya effektlarini hosil qilish imkoniyati ham mavjud bo‘lib, buning uchun har bir **Layer** qatlamida alohida harakatli tasvirlar chiziladi yoki tayyor rasmlar,

chizmalar joylashtirilib harakatlantiriladi.

**1-mashq.** Sharni trayektoriya bo‘ylab harakatlantirish.

**Bajarish:**

1. **Oval Tool (O)** johozi belgilanib va **Fill Color** bandi tanlanib, shar chizib olinadi.

2. Timeline bo‘limidan **Add Motion Guide** qatlamasi hosil qilinadi;


3. Hosil qilingan qatlamga **Pencil Tool (Y)** johozi yordamida shar harakatlanadigan trayektoriya chiziladi;

4. **Layer 1** qatlamida **F5** tugma tanlanib, kerakli masofa belgilanadi.

5. **Add Motion Guide** qatlamida **F5** tugma tanlanib, kerakli masofa belgilanadi.


6. **Layer 1** qatlamining **Frame**da sichqoncha o‘ng tugmasi bosilib, **Create Motion Tween** qatori tanlanadi.

7. Shar belgilanib, chizilgan trayektoriya oxiriga o‘tkaziladi (sichqoncha yordamida sudrab tortiladi):



**2-mashq.** Idishdag‘i suvning bug‘lanishini tasvirlovchi animatsiya effektini hosil qilish.

**Bajarish:**



1. **Layer1** qatlamida, **Rectangle Tool (R)** johozi yordamida idish chiziladi va unga kerakli rang beriladi.

2. **Layer2** qatlamasi hosil qilinadi va unda **Oval Tool (O)** johozi yordamida suvning bug‘lanish belgilarini chiziladi.

3. **Layer1**, **Layer2** qatamlari belgilanadi va **F5** tugma yordamida kerakli masofa belgilanadi.

4. **Layer 2** qatlamining **Frame**da sichqoncha o‘ng

tugmasi belgilanib, **Create Motion Tween** qatori tanlanadi.

5. **Layer 2** qatlamidagi suvning bug‘lanish belgilari yuqoriga siljililadi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Macromedia Flash 8** dasturida avtomobil chizing va uni harakatlan-tiring.
2. **Macromedia Flash 8** dasturida maysani ko‘karish holatini hosil qiling.
3. **Macromedia Flash 8** dasturida gulning ochilish holatini hosil qiling.
4. **Macromedia Flash 8** dasturida idishga olov yoqilganda suvning bug‘lanishini aks ettiruvchi tasvir hosil qiling.
5. **Macromedia Flash 8** dasturida bir idishdan ikkinchi idishga suvni quyishini aks ettiruvchi tasvir hosil qiling.
6. **Macromedia Flash 8** dasturida molekulalarning harakatini aks ettiruvchi tasvir hosil qiling.



## UYGA VAZIFA

1. **Macromedia Flash 8** dasturida turli geometrik figuralarni (shakl-larni) harakatlantiruvchi animatsiya effektlarini hosil qiling.
2. **Macromedia Flash 8** dasturida web-sayt uchun animatsiya effektlari tayyorlang.



## 24-DARS. TOVUSHLI MA’LUMOTLAR VA ULAR BILAN ISHLASH

**Macromedia Flash 8** dasturida tovushli ma’lumotlarni o‘rnatish va ular-dan foydalanish imkoniyati ham mavjud. **Macromedia Flash 8** dasturining ishchi sohaga tovushli ma’lumotlarni joylashtirishning ikki xil usuli mavjud:

1. **File→Import→Import to Stage...** ketma-ketligini tanlash orqali;
2. **File→Import→Import Video...** ketma-ketligini tanlash orqali.

1-mashq. **Macromedia Flash 8** dasturining ishchi sohasiga **.mp3** fayl ken-gaytmali tovushli ma’lumotlarni joylashtirish.

### Bajarish:

1. **File→Import→Import to Stage...** ketma-ketligi tanlanib, tovushli ma’lumotlar joylashtirilgan papka tanlanadi.
2. Papkadan kerakli fayl belgilanadi va **Открыть** tugmasi bosiladi. Tan-

langan fayl **Librare** bo‘limiga yuklanadi.

3. Yuklangan faylni ishchi sohaga o‘tkazilishi kerak. Buning uchun **Librare** bo‘limiga yuklangan fayl belgilanib, sichqoncha tugmasi yordamida sudrab tortiladi:



**2-mashq. Macromedia Flash 8** dasturining ishchi sohasiga **.avi** fayl ken-gaytmali tovushli ma’lumotlarni joylashtirish.

**Bajarish:**

1. **File→Import→Import Video...** ketma-ketligi tanlanadi.



2. Ushbu oynadan **Browse...** tugmasi tanlanib, tovushli ma’lumotlar joy-lashgan papkadan kerakli fayl belgilanib, **Открыть** tugmasi bosiladi.

3. Yuklangan faylni ishchi sohaga o‘tkazilishi kerak. Buning uchun **Librare** bo‘limiga yuklangan fayl belgilanib, sichqoncha tugmasi yordamida sudrab tortiladi.

Ayrim hollarda video fayllarni o‘rnatishda xatoliklar yuz berishi mum-kin. U holda fayl kengaytmasini o‘zgartiruvchi dastur yordamida **.avi** fayl kengaytmasiga o‘tkazish kerak.



## **YODDA SAQLANG !**

**Macromedia Flash 8** dasturining ishchi sohaga tovushli ma’lumotlarni joylashtirish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. **File→Import→Import to Stage...** 2. **File→Import→Import Video...** ketma-ketliklari tanlanadi.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **Macromedia Flash 8** dasturida video fayllarni o‘rnatish ketma-ketli-gini tushuntirib bering.

2. **Macromedia Flash 8** dasturini ishchi sohasiga video va audio fayl-larni o‘rnating.



## UYGA VAZIFA

1. **Macromedia Flash 8** dasturida uchta oyna hosil qiling. Birinchi oy-naga ikkita tugma joylashtiring va ushbu tugmalar orqali navbatdagi oynalarga o'tsin. Ikkinci va uchunchi oynaga video fayllarni joylash-tiring.
2. Mustaqil ravishda web-sahifa tayyorlang va ularga video fayllarni joylashtiring.



## 25-DARS. WEB-SAHIFALAR ORASIDA ALOQALARNI O'R NATISH IMKONIYATLARI

Web-sayt yaratishda web-sahifalar orasida aloqalarни о'rnatish va bir faylga birlashtirish muhim hisoblanadi. **Macromedia Flash 8** dasturida web-sahifalar orasida aloqalarни о'rnatish va ularni bitta faylga birlashtirish imkoniyati mavjud. **Macromedia Flash 8** dasturida web-sahifalarни о'zaro bir-biri bilan gipermatnli va **getURL** operatori yordamida aloqalarни о'rnatish mumkin.

**Macromedia Flash 8** dasturida web-sayt yaratish uchun oldin qo'shimcha sahifalari tayyorlanadi va ularga nom berib, yangi papkada .html fayl kengaytmasi bilan saqlanadi. Undan so'ng asosiy sahifa tayyorlanadi. Asosiy sahifaga turli bezaklar va animatsiya effektlari **Macromedia Flash 8** dasturining o'zida yaratiladi. Ushbu bosqichlardan so'ng, qo'shimcha sahifalar bilan bog'lanishlar o'rnatilib, **.exe** fayl kengaytmasi bilan yaratilgan papkaga saqlanadi.

1-mashq. **Macromedia Flash 8** dasturini yuklab, D diskda joylashgan **1.html** fayli bilan aloqa о'rnatish.

Bajarish:

1. **Macromedia Flash 8** dasturini ishga tushiriladi.



2. **Text tool (T)** jihozidan foydalaniib ishchi sohaga biror-bir so'z kiritamiz, masalan: "Yangiliklar".

3. "Yangilik" yozuvi belgilab, tahrirlash uskunasining **Properties** bo'limidan **URL Link** kiritish maydoniga fayl joylashgan joy va fayl nomi kiritiladi: **d:\1.html**;

4. Fayl alohida oynada ochilishi uchun **Target** bandidan \_blank tanlanadi.

5. Fayl→Publish Settings... ketma-ketligi yoki **Ctrl+Sift+F12** tugmalari bosiladi.

6. Hosil bo‘lgan oynadan .exe bo‘limi belgilanib, Publish tugmasi bosiladi.

Internetda joylashgan saytlarga murojaat qilish uchun **URL Link** maydoniga sayt manzili kiritiladi. Masalan, Ziyonet axborot ta’lim portaliga murojaat qilish uchun <http://www.ziyonet.uz> manzili yoziladi.

**2-mashq.** `getURL` operatori yordamida web-sahifalar orasida aloqalarni o‘rnating.


#### Bajarish:

1. **Macromedia Flash 8** dasturi ishga tushiriladi va ishchi oynaga **Windows** menyusida tugma joylashtiriladi.

2. Tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodi kiritiladi:

```
on (release) { getURL("d:\ maktab.html", "_blank"); }
```

(Shell belgisidan keyin bitta bo‘sh joy qoldirib matn yoziladi).



3. Fayl→Publish Settings... ketma-ketligi yoki **Ctrl+Sift+F12** tugmalari bosiladi.

4. Hosil bo‘lgan oynadan .exe bo‘limi belgilanib, Publish tugmasi bosiladi.

Internetda joylashgan web-saytlarga murojaat qilish uchun uning manzili ko‘rsatiladi. Masalan, Ziyonet axborot ta’lim portaliga murojaat qilish uchun esa `getURL("http:// www.ziyonet.uz", "_blank");` kodi kiritiladi.


**3-mashq.** 20-darsda yaratilgan Xalq ta’limi vazirligi web-saytining bosh sahifasi bilan 21-darsda yaratilgan web-sahifalar orasida bog‘lanish o‘rnatishi.

#### Bajarish:

1. Yaratilgan web-sahifa yuklanadi;

2. “Virtual qabulxona” so‘zini belgilab, tahrirlash uskunasining **Properties**

bo‘limidan **URL Link** kiritish maydoniga fayl joylashgan joy va fayl nomi kiritiladi: “d:\ Virtual qabulxona sahifasi.html”;



Yuqoridagi darslarda yaratilgan barcha web-sahifalar ushbu tartibda birlashtiriladi. Natijada Xalq ta’limi vazirligining web-sayti hosil qilinadi:

The screenshot shows the homepage of the 'Xalq ta’limi' website. At the top is a navigation bar with five items: 'Virtual qabulxona' (with a graduation cap icon), 'Ochiq vazirlik' (with a computer monitor icon), 'Murojaat yuborish' (with a laptop icon), and 'Yagona oyna' (with a person icon). Below the navigation bar are three main news sections. The first section on the left is titled 'Statistik va tahlil' and lists: 'Kvotopiltagiq qo’shiq kirovchi', 'Ja’bonda Aks!', 'Oshma', 'Sa’envoskor', 'Fayl sahifasi', 'Duluyu muddosi', and 'Ejami'. The middle section is titled 'Yangiliklar' and features a photo of a group of people at a meeting. The text below the photo reads: 'Yangi yildagi rejalar muhokama qilindi'. The third section on the right is titled 'Eug ko’ n’qilgan' and features a photo of a group of people at a podium. The text below the photo reads: 'Rahbarlar uchun o’quv-seminar o’tkazilmoqda'. Below these sections is a large photo of a group of people seated at a long table.

Ushbu yaratilgan web-saytimiz statik web-sayt hisoblanadi.



## **YODDA SAQLANG !**

Web-sahifalar orasida bog‘lanish o‘rnatalgan faylni **.exe** fayl kengaytmasi bilan saqlash kerak.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. **getURL** operatori yordamida web-sahifalar bilan bog‘lanish o‘rnating.
2. Maktabingiz web-saytini tayyorlang.



## **UYGA VA VAZIFA**

1. Web-sahifa tayyorlang va ularni **getURL** operatori yordamida biror-bir web-sayt bilan bog‘lang.
2. O‘zingiz haqingizda ma’lumot beruvchi web-sayt tayyorlang.



## 26-DARS. NAZORAT ISHI

Quyidagi berilgan variantlardan nazorat ishlarini o'tkazishda foydalanish tavsija etiladi.

### 1-variant

1. **Java Script**da doira yuzasi va aylana uzunligini hisoblovchi forma oy-nasini hosil qiling.
2. **Macromedia Dreamweaver 8** dasturida rasm joylashtirish ketma-ketligini keltiring.
3. **Macromedia Flash 8** dasturida “11-sinf” yozuvini harakatlantiruvchi animatsiya yarating.

### 2-variant

1. **Java Script**da berilgan uchta son ko‘paytmasining kvadrat ildizini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.
2. **Macromedia Flash 8** dasturida web-sahifalarni bog‘lash ketma-ketligini keltiring.
3. **Macromedia Flash 8** dasturida “8-dekabr O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi” yozuvini harakatlantiruvchi animatsiya yarating.

### 3-variant

1. **Macromedia Flash 8** dasturida berilgan uchta sonning yig‘idisini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.
2. **Macromedia Dreamweaver 8** dasturida tugmalarni joylashtirish ketma-ketligini keltiring.
3. **Macromedia Flash 8** dasturida “1-sentabr O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi kuni” yozuvini harakatlantiruvchi animatsiya yarating.

### 4-variant

1. **Java Script**da berilgan uchta sonning o‘rta arifmetigini hisoblovchi forma oynasini hosil qiling.
2. **Macromedia Dreamweaver 8** dasturida ixtiyoriy jadval yaratish ketma-ketligini tushuntirib bering.
3. **Macromedia Flash 8** dasturida “Xush kelibsiz web-saytga” yozuvini harakatlantiruvchi animatsiya yarating.


### **III BOB. AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGI**

Siz ushbu bobni mutolaa qilib, axborot xavfsizligi tushunchasi, uning samaradorligi ko'rsatkichlari, axborot xavfsizligi muammolari, axborotlarni himoyalashning tarkibiy qismlari va usullari hamda kompyter tarmoqlari, ularni himoyalash, Internetda saqlanayotgan axborot manbalarining xavfsizligi muammolari, elektron hukumat va uning imkoniyatlari, elektron pochta xizmati tuzilmasi, kompyuterlarni viruslardan himoyalash usullari haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz.



#### **27-DARS. AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI**

Butun dunyoda globallashuv jarayonining tezkor rivojlanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi insoniyatning ma'lumot olish darajasini amalda cheksiz oshirish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan bir qatorda Internet tizimida konfidensial ma'lumotlarning oshkor etilishi ham oshib bormoqda. Masalan, 2015-yilda jahonda 1,5 mingdan ziyod, ya'ni oldingi yilga nisbatan 7,8 foizga ko'p yashirin ma'lumotlarning oshkor bo'lishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich, jumladan, AQSHda 859 ta, Rossiyada 118 ta va Buyuk Britaniyada 112 tani tashkil etdi. Bunga asosiy sabab sifatida inson omili va tashqi tajovuzlar e'tirof etiladi. Tashqi tajovuz natijasida ko'plab ma'lumotlar olib ketilsa-da, eng qimmatbaho ma'lumotlarning chiqib ketishini shaxsiy manfaatdorlik asosida ofis xizmatchilar tomonidan amalga oshirilmoqda.



Keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki, ma'lumotlar eng ko‘p yo‘qotilan sohalar jumlasiga yuqori texnologiyalar, sanoat va transport sohalarini kirmoqda. 2015-yilda ushbu sohalarda asosiy yo‘qotish Internet tizimi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, ta’lim, moliya va bank sohalarida inson omili 25 – 30 foizni tashkil qilmoqda. 90% hollarda to‘lov va shaxsiy ma'lumotlar tashqariga chiqib ketishi aniqlandi.

**Axborotni muhofazalash – bu ma'lumotlarni o'g'irlash, yo‘qotish, soxtalashtirish, qalbakilashtirish, ruxsatsiz foydalanish va ko‘paytirishning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidir.**

Kompyuter tizimlarida axborotni muhofazalash tushunchasi bilan bir qatorda axborot xavfsizligi atamasi ham keng tarqalgan.

**Axborot xavfsizligi – foydalanish talablari asosida ma'lumotning yashirinligi, yaxlitligi va foydalanuvchanligini ta'minlashdir.**

Umuman olganda, axborotga tahdid ikki xil bo‘lishi mumkin: ma'lumotni ochish yoki uning mazmunini o‘zgartirish.

**Ma'lumotni ochish – tasodifan yoki xusumatli harakatlar natijasida begona shaxsga axborotning mazmuni ruxsatsiz oshkor etilishdir.**

Agar ma'lumotlar biror firmaning e'lon etilmagan yangiligi yoki korxonaning ko‘p yillar davomida to‘plagan va biror yirik muammoni hal etishga yo‘naltirilgan tajribalar natijasi bo‘lsa, ushbu tajovuzdan kelayotgan zarar keskin oshib ketishi mumkin.


Ma'lumotlar mazmunini o‘zgartirish axborot xavfsizligi uchun katta tahdid hisoblanadi. Bank va iqtisodiyot tizimida muomaladagi to‘lov xabar nomasi yuborilayotgan huquqiy manzil aniq ko‘rsatilgan ochiq ma'lumot si fatida harakatlanadi. Ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlariga ko‘ra, biror yo‘l bilan bank hujjatlari mazmunini, shaxsiy manfaatdorlik asosida qasddan soxtalashtirishdan banklarga va tashkilotlarga kelayotgan zarar keskin oshib ketmoqda. Ushbu ko‘rinishdagi xurujlar davlatlar chegarasidan chiqib, dunyo miqyosida amalga oshirilmoqda. Masalan, Sankt-Peterburglik dasturchi V. Levin, 1994-yilda o‘zining kompyuteri yordamida Internet orqali London shahridagi “Siti bank of Amerika”ning muhofaza tizimini buzib, dunyoning turli mamlakatlaridagi bank mijozlarining hisob raqamlaridan 10 million dollar miqdoridagi mablag‘ni noqonuniy o‘zlashtirib, o‘zining turli mamlakatlardagi hamtovoqlari hisobiga o‘tkazadi.

Ushbu holat bo‘yicha AQSH federal qidiruv byurosi tezkor-qidiruv harakatlarini amalga oshirib, jinoyatchilar to‘dasini bir vaqtning o‘zida hibsga oldi. Jinoyatchilar 400 ming dollardan tashqari barcha mablag‘ni bank hisobiga qaytarishdi va turli muddatga ozodlikdan mahrum etildilar.

Bank amaliyoti sohasida ma'lumotning yaxlitligi asosiy shart hisoblansa, ommaviy turdagи ma'lumotlar uchun foydalanuvchanlik darajasining yuqori bo‘lishi qadrlanadi. Davlat xavfsizligiga oid hujjatlar uchun uning yashirinligini ta’minlash asosiy mezon hisoblanadi.

Ma'lumotning yashirinlik xususiyati uni ruxsat etilmagan shaxslar uchun tushunarsiz holatda lokal, mintaqaviy va global tarmoqlarida uzatilishidir. Ma'lumotlarni ruxsatsiz o‘zgartirishdan saqlash axborotning yaxlitlik xususiyati deb yuritiladi.

Foydalanuvchanlik xususiyati ma'lumotdan istalgancha, hech qanday to‘siqlarsiz foydalanish imkoniyatini belgilaydi va u ochiq turdagи axborotlar uchun o‘rnlidir.



1 – Elektromagnit to‘lqin. 2 – Parametrik to‘lqin. 3 – Tebranma tovush to‘lqin. 4 – Elektr signali.

Yuqoridagi rasmlarda axborotdan ruxsatsiz foydalanishning mumkin bo‘lgan kanallari tasvirlangan. Keyingi sxematik rasmida kompyuter tarmoqlarida axborot tashuvchi vositalar sxematik ko‘rinishda tasvirlangan:

### Simli va simsiz aloqa tizimlari

Mijoz kompyuter,  
noutbuk,  
smartfon va.h.k

Tarmoqli  
to‘r stansiya

Asosiy to‘r

Internet

Ma’lumot jamlash

Simsiz mobil aloqa tizimi

Ushbu sxemadan aloqa tizimining ixtiyoriy qismida ruxsatsiz kirish imkoniyati mavjud ekanligi yaqqol ko‘rinmoqda. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta’minlash uchun foydalanuvchilarni **identifikatsiyalash**, autentifikatsiyalash, avtorizatsiyalash zarur bo‘ladi.

**Identifikatsiya – foydalanuvchini tizimga o‘zini tanitish jarayoni bo‘lib, unda mijozning maxsus shaxsiy kartalaridan yoki uning biometrik xususiyatlaridan foydalaniladi.**



Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun shaxsning, masalan, barmoq izi, ovoz tahlili, ko'z qorachig'i, yuz tuzilishi va boshqa biometrik belgilaridan foydalaniladi.



**Autentifikatsiya – foydalanuvchining to'g'riliqi tekshiriladi va uning asosida tizimda faoliyat olib borishi mumkinligi yoki mumkin emasligi belgilanadi.**

**Avtorizatsiya – foydalanuvchiga tizim tomonidan berilgan huquqlar majmuasidir.**

Axborot xavfsizligini ta'minlash tarkibiga ma'lumotlar resurslari barqarorligi hamda jamiyat va shaxsning axborotdan foydalanishdagi qonuniy huquqlari ta'minlanishi kiradi.

Axborot xavfsizligi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- himoyalash zarur bo'lgan axborot va texnik resurslarni aniqlash;
- axborotlarga tahdidlar va maxfiylikni buzish mumkin bo'lgan tuyuklarning to'la to'plamini belgilash;
- axborot xavfsizligining zaifligi va xatarlarning darajasini baholash;
- muhofaza tizimiga qo'yilgan talablarni aniqlashtirish;
- muhofazalash tizimining yaxlitligi va boshqarilishini nazoratga olish.



## **YODDA SAQLANG !**

Ma'lumotni ochish – tasodifan yoki xusumatli harakatlar natijasida begona shaxsga axborotning mazmuni ruxsatsiz oshkor etilishidir.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Axborot xavfsizligi deganda nimani tushinasiz?
2. Axborot xavfsizligiga tahidlarning qanday turlari mavjud?
3. Foydalanuvchini identifikatsiyalash usullarini tushuntirib bering.



## UYGA VAZIFA

1. Kompyuterni himoyalash ahamiyatini jahon tajribasi misollarida asoslab bering.
2. Shaxsning biometrik belgilari bo'yicha identifikatsiyalashning davlat va jamiyatdagi o'rnini izohlab bering.



## 28-DARS. AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI. AXBOROTLARNI HIMOYALASHNING TARKIBIY QISMLARI VA USULLARI


XXI asrning birinchi o'n yilligiga kelib axborotning ahamiyati keskin oshib ketdi. Ma'lumotning qimmatbaholigi faqat davlat sirlarini qo'riqlash nuqtai nazaridangina emas, balki tijorat rivoji sababli ham oshib bormoqda, chunki axborotga ega bo'lgan mamlakat jahonni boshqaradi.

Yangi innovatsion texnologiyalarni loyihalashtirish jarayoniga sarf qilinayotgan vaqt iqtisodi, telekommunikatsion tizimlar va qurilmalar bozoridagi sobitqadam sifat o'zgarishi natijasida raqobatbardoshlik talablari oshib bormoqda. Demak, har qanday tashkilot o'zini "chaqirilmagan kuzatuvchilardan xalos qilishi zarur bo'лади.

Axborot xavfsizligi tahdidlari turli belgilar orqali tavsiflanishi mumkin:

- axborot yashirinligini buzish, asosan inson omili yoki muhofaza apparat ta'minoti faoliyatini izdan chiqarish;
- ma'lumotlar mazmunini o'zgartirishga doir ruxsatsiz faoliyatlar orqali axborot yaxlitligiga zarar yetkazish;
- axborot foydalanuvchilariga kompyuter viruslari orqali tahidilar;
- axborot xavfsizligiga ichki va tashqi tahidilar;
- axborot xavfsizligi buzilishida global, hududiy va lokal tarmoqlar tahidilari.

Axborotlarni himoyalashda avvalo tashqi tahnidga e'tibor qaratilishi kerak. Quyidagi rasmda axborotdan beruxsat foydalanish mumkin bo'lgan kanallar ko'rsatilgan:



Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun tashkiliy, texnik va dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Tashkiliy vositalar tarkibiga texnik-tashkiliy va huquqiy-tashkiliy tadbirlarni kiritishimiz mumkin. Texnik-tashkiliy tadbirdarda xavfsizlik choralarini ta'minlash uchun ofis xonasidagi kompyuter, telefon, televizor, radio, signalizatsiya va shunga o'xshash axborot chiqish ehtimoli bo'lgan barcha vositalar ro'yxatdan o'tkaziladi.

Texnik vositalar elektron, elektromekanik va boshqa qurilmalardan iborat bo'lib, tizimlarni texnik himoyalashda bevosita foydalaniladi. Keng imkoniyatlari ( $0,01 - 1000$  MHz) elektromagnit generatorlari kompyuter va boshqa uskunalardan chiquvchi qo'shimcha to'lqinlarini sezdirmaslik vazifasini o'taydi.

Axborotni yashirin olishga mo'ljalangan mobil aloqa telefonlarini aloqadan uzish, elektr tarmog'idan ma'lumot chiqmasligini ta'minlovchi filtrlar, diktofonlarni kuchli elektromagnit to'lqinlar bilan ishdan chiqaruvchi vosi-

talar qo‘llaniladi.

Dasturiy vositalar tarkibiga axborot xavfsizligi, foydalanuvchilar shaxsini **identifikatsiyalash**, kirish nazoratini o‘rnatish, ma’lumotlarni yashirin ko‘rinishga keltirish kabi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan maxsus dasturiy vositalar tizimi kiradi.

Axborotni himoyalovchi dasturiy vositalarning tarkibi quyidagilardan iborat:

- bir necha fayl yoki jiddlarni yig‘ish orqali ularning hajmini keskin kamaytirib tashqi ta’sirlardan himoyalash dasturlari;
- kompyuter tizimiga beruxsat kirishdan himoyalash dasturlari;
- tizimni **viruslardan** himoyalashga mo‘ljallangan **antivirus** dasturlari;
- ma’lumotlar yashirinligini ta’minlovchi kriptografik dasturlar.


### 1-mashq. Windows 7 operatsion tizimini himoyalash.

Bajarish:

1. Пуск tugmasini faollashtirish orqali **Панель управления** bo‘limidan **Учетные записи пользователей и сем...** qismiga kiriladi va u yerdan **Учетные записи пользователей** bandi faollashtiriladi;
2. Внесение изменений в учетную запись пользователя oynasidan **Изменение своего пароля** muloqot darchasiga kiriladi;

3. Agar kompyuterga oldin parol qo‘yilgan bo‘lsa, **Текущий пароль** qatoriga oldingi parol kiritilib, so‘ngra **Новый пароль** va **Подтверждение пароля** qatoriga yangi parol kiritiladi:

Изменение своего пароля



Внесение изменений в учетную запись пользователя




Ushbu ketma-ketlik bajarilgandan so‘ng, kompyuter ishga tushirilganda yangi parol bilan kirish zarur bo‘ladi.

2-mashq. MS Excel 2010 elektron jadvalida ma’lumotlarni himoyalash. Bajarish:

1. MS Excel 2010 ning menyusida **Рецензирование** tasmasi faollashtiriladi;

2. Tasmaning **Защитить лист** bandi bosiladi. Natijada ekranda **Защита листа** muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Hosil bo‘lgan oynanining **Пароль для отключения защиты листа** qatoriga parol kiritiladi.

Himoyalangan varaqdagi ma’lumotlarni o‘zgartirish uchun MS Excel 2010ning menyusidan **Рецензирование** tasmasi faollashtiriladi. Tasmaning **Изменение** qismidan **Снять Защитить листа** bandi tanlanadi. Natijada **Снять Защитить листа** muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu hosil bo‘lgan oynanining ma’lumot kiritish qatoriga oldin himoyalangan parol kiritiladi.



3-mashq. MS Excel 2010 da yaratilgan faylni himoyalash.

Bajarish:

1. **Файл→Сохранить** как→**Сервис→Общие параметры...** ketma-ketligi tanlanadi;


2. Hosil bo‘lgan oynadan **Пароль для открытия** qatoriga parol kiritilib, va **OK** tugmasi bosilib, navbatdagi oynaga o‘tiladi;

3. Oynanining **Введите пароль еще раз** qatoriga yuqoridagi parol qayta kiritilib, **OK** tugmasi bosiladi;

4. Yaratilgan faylga nom berib **Сохранить** tugmasi bosiladi.

4-mashq. Fayllarni ko‘rinmas qilish.


Bajarish:



1. Total Commander dasturidagi biror jildni tanlab, ichidagi fayllar guruhi belgilanadi;

2. Fayl menyusiga kirib **Изменить атрибуты** tugmasi bosiladi va hosil bo'lgan muloqotli darchadan fayllarga **Скрытый** belgisi o'rnatiladi va **OK** tugmasi bosiladi.

Natijada **Скрытый** taqvimidagi barcha fayllar ko'rinas holga keladi.




**5-mashq.** Ma'lumotlarni arxivlash.

### Bajarish:

1. Arxivlanadigan fayl belgilanib, sichqonchaning chap tugmasi bosiladi va arxivlash bo'limidan **Добавить в архив** bandi faollashtiriladi;

2. Hosil bo'lgan arxivlashtirish darchasidan faylni ixchamlashtirish usuli tanlanib, **OK** tugmasi bosiladi.



Arxivlashdan asosiy maqsad fayllarni **viruslardan** himoyalash va ixchamlashtirishdan iborat.



### YODDA SAQLANG !

Axborot xavfsizligini ta'minlashning eng sodda va samarali usullari dan biri, biror muddatga fayllarni ko'rinas holatga keltirishdan iboratdir.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Axborot xavfsizligiga asosiy tahididlар nimalardan iborat?
2. **MS Power Point**da yaratilgan taqdimotlarni himoyalang.



### UYGA VAZIFA

1. Kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlarni himoyalash usullarini tasniflang.
2. Kompyuterga shaxsiy parolingizni o'rnating.



## 29-DARS. MINTAQAVIY VA GLOBAL KOMPYUTER TARMOG'I VA UNI HIMOYALASH

O'tgan asrning 50-yillarida ishlab chiqilgan kompyuterlar qimmatbaho va chekli miqdorda bo'lib, ular o'ta muhim vazifalarni bajarish uchungina xizmat qilar edi.

Keyinchalik arzon va yuqori samarali protsessorlarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlar tizimi vujudga kelaboshladi va ular lokal kompyuter tarmoqlari (LKT) (inglizcha – LAN Local Area Network) deb nomlandi. Lokal tarmoqqa bog'langan har bir kompyuter maxsus plata-tarmoq adapteriga ega bo'lishi zarur.

Korxona va tashkilotga tegishli bo'lgan lokal kompyuter tarmog'i shahar yoki viloyat miqyosida foydalanuvchilar uchun hamkorlikda aloqa o'rnatish imkonini bermaydi. Ushbu muammo Mintaqaviy kompyuter tarmog'i (MKT) yordamida amalga oshiriladi.



MKTga misol sifatida respublikamizdagi bank va soliq sohasidagi yagona avtomatlashtirilgan tizimlari, shaharlardagi dorixonalarning ma'lumot beruvchi kompyuter tizimlarini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy kompyuterlar telefon tarmoqlari orqali modem vositasida bog'lanadi. Natijada foydalanuvchilar yuqori unumдорli superkompyuterlar orqali o'zlarini uchun ajratilgan resurslarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu superkompyuterlar bir tizimga birlashishi natijasida MKT paydo bo'ladi.

**Modem – telefon stansiyalari vositasida kompyuterdagи axborotlarni uzatish va qabul qilish uchun ikkilik sanoq tizimidagi ma'lumotlarni elektr signalalariga aylantirish va asliga qaytarish vazifasini o'taydi.**

Bir necha 10 kilometrli masofalarda LKTdan ma'lumot jo'natish uchun

tezligi 100 bit/s va tashqi muhit ta'sir etmaydigan **koaksial** kabellar ishlataladi.

Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan **optik tolali** kabellar nur o'tkazuvchanlik xususiyati bilan farqlanadi. **Optik tolali** kabellarda plastmassa yoki kremniydan yasalgan tolalar nur o'tkazmaydigan tashqi qobiq bilan o'ralgan bo'ladi. Ushbu aloqa vositasida elektr signallari nurga aylantirilib ma'lumot jo'natiladi va teskarisi bajarilib axborot qabul qilinadi. Ushbu kabelda signal jo'natish tezligi 3 Gbit/s ni tashkil qiladi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan to'plangan barcha bilim manbalaridan to'la foydalanish, kurrai zaminimizda ro'y berayotgan voqeja va hodisalardan hamda ilm-fan yangiliklaridan tezkor xabardor bo'lish yoki ogoh etish uchun Global hisoblash to'ri (GHT) dan foydalaniadi.

GHT (WAN—Wide Area Network) bir necha 10 va 100 kv. km maydon hududlarni birlashtiradi. GHT ichida axborot almashish – telekommunikatsiya (grekcha tele – “uzoq” va lotincha communicato – “aloqa”) deb ataladi.

Internet millionlab kompyuterlar vositasida lokal, hududiy va korporativ tarmoqlarni birlashtirgan kommunikatsiyali to'rdir.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari tarkibiga yer usti radiorele uza-tuvchi stansiyalari va koinot sun'iy yo'ldoshlari yordamida radioto'lqinlar orqali amalga oshiriluvchi simsiz ma'lumot uzatish va qabul qilish qurilmalari kiradi. Tekislikdagi radioto'lqinlarni ko'rish chegarasida har 50 km masofada signallarni kuchaytirish uchun retranslyatsiya stansiyalari orqali juda uzoq masofaga ma'lumotlar uzatiladi. Sun'iy yo'ldoshlar o'ta yuqori chas-totali radioto'lqinlar bilan ish ko'radi. Turli darajali orbitadagi kosmik stansiyalar guruhalidan keluvchi signallar yer yuzidagi parabolik antennalarda qabul qilinadi va kerakli manzillarga yuboriladi.

Internet tizimida telekommunikatsiyaviy uzatish turli darajalarda amalga oshiriladi va foydalanuvchilarning o'zaro aloqalari protokollar bilan tartibga solinadi.

**Internet Protokol (IP)** – to'rlararo munosabatni tartibga soladi va aloqa uzatishda “yagona muloqot tili” standartini aniqlaydi.

**IP адрес** – Internet tizimiga ulangan har bir kompyuter uchun belgilan-

gan 32 bitli takrorlanmas manzil.

**Simple Mail Transfer Protocol (SMTP)** – Internet tizimida pochta uzatilish me'yorlarini tartibga soluvchi protokol.

**User Datagram Protocol (UDP)** – qabulini tasdiqlamagan holatda ma'lumot paketlarini jo'natishni tashkil qiladi.

**Transmission Control Protocol (TCP)** – virtual bog'lanishlarni hosil qilib, axborotlarni kerakli manzilga aniq yetib borishini ta'minlovchi protokol.

**Telnet** – Internet tizimidagi ixtiyoriy kompyuter bilan ishlash imkonini yaratadi.

Bu kabi protokollar to'r konfiguratsiyasini talab darajasida saqlab turish uchun xizmat qilib, oddiy foydalanuvchi ularning mayjudligini sezmaydi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, **TCP/IP** protokollaridan foydalanuvchi Internetning bir bo'lagiga aylanib qoladi.

**TCP/IP** protokollari turli parametrlar bilan xarakterlanadi, ularni bilish Internet tizimidagi bog'lanishlarda bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklardan himoyalash muhimdir.

Hozirgi paytga kelib har bir foydalanuvchi o'z shaxsiy kompyuteri vositasida lokal va mintaqaviy tarmoqlar hamda Internet tizimi yordamida butunjahon hamjamiyati bilan aloqa qiladi, ma'lumotlar uzatadi va qabul qiladi. Lekin Internet tizimida oxirgi paytlarda kompyuter jinoyatchiligi haddan ziyod avj olayotganligi bois, axborot xavfsizligini ta'minlash alohida muhim vazifalardan biriga aylandi.

Tarmoq xavfsizligini ta'minlashni brandmauer tizimi amalga oshiriladi.

**Brandmauer – ikki va undan ortiq qismlarga ajratilgan tarmoqdagi qismlar orasida axborotlar paketini o'tish qoidalari yaratilgan majmuaviy tizimdir.**

Odatda, ushbu chegara lokal tarmoq bilan Internet orasida qo'yildi. Brandmauer kelayotgan barcha ma'lumotlarni qaysi birini o'tkazish yoki o'tkazmasligini hal qiladi.

Barcha brandmauerlarni ikki xil turga ajratish mumkin:

- marshrutizator filtri orqali IP paketlarni saralab o'tkazuvchi vositalar;
- lokal tarmoqda aniqlangan himoya strategiyasi doirasida axborotlar

paketining o‘tishini ta’minlovchi amaliy darajali serverlar.

Axborot xavfsizligini ta’minlashning eng samarali usullaridan biri, bu ma’lumotlarni shifrlashdir.

**Kriptologiya – (Kriptos – yashirin, logos – fan) ma’lumotni himoya qilishni asrlar davomida yig‘ilgan manbalari va usullariga xos qonuniyatlarni o‘rganadi.**

Kriptologiya fani kriptografiya va kriptotahlil tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.



Gay Yuliy Sezar  
Eramizdan oldingi  
100-44 yillar

**Kriptografiya** boshlang‘ich matnni yashirish, ya’ni shifrlash orqali maxfiy ko‘rinishga keltirish, (shifrogrammalar hosil qilish) usullari bilan shug‘ullanadi.

**Kriptotahlil** maxfiy ma’lumotlarni ruxsat etilmagan vaziyatlarda ham ochish imkoniyatlarini, boshqacha qilib aytganda, deshifrogrammalar olish usullarini o‘rganadi.

**Shifrlash** tizimlari. Buyuk Rim imperatori Gay Yuliy Sezar choparlari orqali jo‘natilayotgan xabarnoma mazmunini yashirish uchun quyidagi shifrlash tizimidagi foydalangan: **abcdefghijklmnopqrstuvwxyz** 26 lotin alifbosi ketma-ketligini, masalan, 5 ta harf o‘ngga surib yangi shifrlash alifbosi **fghijklmnopqrstuvwxyzabcde** ni hosil qilgan va ularni ostma-ost joylashtirgan:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>	<i>d</i>	<i>e</i>	<i>f</i>	<i>g</i>	<i>h</i>	<i>i</i>	<i>j</i>	<i>k</i>	<i>l</i>	<i>m</i>
<i>f</i>	<i>g</i>	<i>h</i>	<i>i</i>	<i>j</i>	<i>k</i>	<i>l</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>o</i>	<i>p</i>	<i>q</i>	<i>r</i>
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
<i>n</i>	<i>o</i>	<i>p</i>	<i>q</i>	<i>r</i>	<i>s</i>	<i>t</i>	<i>u</i>	<i>v</i>	<i>w</i>	<i>x</i>	<i>t</i>	<i>l</i>
<i>s</i>	<i>t</i>	<i>u</i>	<i>v</i>	<i>w</i>	<i>x</i>	<i>t</i>	<i>z</i>	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>	<i>d</i>	<i>e</i>

Uzatilayotgan ochiq matn birinchi satrdagi harflardan tashkil topadi. Masalan, Yuliy Sezarning mashhur **vine vide vice – keldim ko ‘rdim yengdim**

iborasidagi harflar yuqoridagi jadvalda ko‘k rang bilan ajratilgan.

4	5	9	11	14	22
d	e	i	k	n	v
i	j	n	p	s	a
ansj anij anpj					

Ushbu harflarga mos ravishda ikkinchi satrdagi ma’nosи tushunarsiz so‘zlardan tashkil topgan ketma-ketlig shifrogramma hosil bo‘ladi. Shifrogrammani ochish uchun qabul qiluvchida 5 raqami kalit bo‘ladi. Birinchi jadvaldagi ikkinchi satr harflariiga mos ravishda birinchi satr dan boshlang‘ich matn qaytadan hosil qilinadi.

Ushbu shifrlash usuli eng sodda usul hisoblanadi, shifrning kalitini bilmagan shaxs 25 ta variantni qarab chiqib, kalit noma’lum bo‘lsa-da, yopiq matnni ochish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1550-yilda o‘quvchilarga kub tenglamani yechish yo‘lini birinchi bo‘lib aniqlagan italyan matematigi Djerolamo Kardano “De subtilitate libri xxi” risolasida trafaret deb nomlangan shifrlash usulini e’lon qildi. Bu usulga ko‘ra maxfiy matn biror kattaroq oddiy mazmunli maktubni ichiga joylashtirilib jo‘natiladi. Maktubni ustiga ma’lum bir qonuniyatda yasalgan **Kardano trafareti** yotqiziladi, natijada maxfiy xabar ochiladi:



Djerolamo Kardano  
(1501–1576 yillar)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1										
2										
3										
4										
5										
6										

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	k	o	m	p	y	u	t	e	r	
2	i	n	f	o	r	m	a	t	i	k
3	b		d	a	r	s	l	a	r	
4	a	k	a	l	i	t	l	a	r	
5	h	a	x	b	o	r	o	t	l	a
6	o	m	a	k	t	a	b	s	i	n

Yuqorida keltirilgan shifrlash usullari uchun kalit lokal tarmoq kompyuter tizimidagi faqatgina uzatuvchi va qabul qiluvchining o'zlarigagina ma'lum bo'lishi talab etiladi. Aks holda ma'lumotning maxfiyligini saqlash mumkin emas.

### **Simmetrik yopiq kalitlar usuli – kalitning faqat uzatuvchi va qabul qiluvchiga ma'lum bo'lishidir.**

Zamonaviy **kiptografik** usullar yordamida axborot xavfsizligini to'la ta'minlanishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- shifrlangan ma'lumotni faqat kalit ma'lum bo'lganda ochish mumkin bo'lishi zarur;
- shifrlangan ma'lumot qismi bo'yicha shifrlash kalitni aniqlash uchun zarur bo'lgan amallar soni kalitlarning mumkin bo'lgan variantlari umumiylidan kam bo'lmasligi kerak;
- shifrlash algoritmini qo'llash jarayonida o'zgarmay qolishi zarur;
- kalitlar oson aniqlanadigan bo'lishi mumkin emas;
- shifrlangan matn uzunligi boshlang'ich matn uzunligiga teng bo'lishi zarur.



### **YODDA SAQLANG !**

**Kriptologiya** – (Kriptos – yashirin, logos – fan) ma'lumotni himoya qilishni asrlar davomida yig'ilgan manbalari va usullariga xos qonuniyatlarni o'rghanadi.



### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Mintaqaviy tarmoqning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. **Kriptologiya** fani va uning qismlari nimani o'rghanadi?



### **UYGA VAZIFA**

1. Internet tizimida telekommunikatsiyaning mohiyatini misollarda tushuntiring.
2. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan hududiy aloqa tarmoqlari ning ishslash tizimini tasniflang.



## 30-DARS. INTERNETDA SAQLANAYOTGAN AXBOROT MANBALARINING XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Internet tizimi orqali moliyaviy harakatlarni amalga oshirish, tovar-boylik va xizmatlarni buyurtmalash, plastik kartochkalarni qo'llash, masofaviy muloqotni amalga oshirish va boshqa imkoniyatlardan foydalanish, o'z navbatida, axborot xavfsizligini ta'minlashni ham talab qiladi. Internet tizimi orqali tarqatilayotgan har qanday ma'lumotlar hamma vaqt bir necha yo'naliishlar va serverlar orqali o'tib kerakli manzilga yetib keladi. Ushbu yo'naliishlarda tizimdagи axborotlar yaxlitligi va daxlsizligiga turli tashqi tahdidlar bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, Internet tizimi har qanday axborot manbasiga cheklov-siz murojaat qilish imkoniyatini ta'minlashdir. Axborot xavfsizligi muammo-si esa, ma'lum darajada ma'lumotlardan foydalanishdagi cheklovlar tizimiga olib keladi. Lekin **criptografiya** usullari yordamida foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklamay ma'lumotlarni himoya qilish mumkin.

**Kriptografiya** usullari asosida axborotni maxfiylashtirish shifrlash algoritmi yotadi. Lekin boshlang'ich ma'lumotga qaytish uchun, shifrlash algoritmini aniqlash kaliti zarur. Shunday qilib, algoritm va kalit **kriptografiyaning** assosiy tushunchasidir.

Simmetrik shifrlash algoritmlari foydalanuvchilar uchun ma'lum deb hisoblanadi. Axborot xavfsizligining asosida simmetrik kalitlar maxfiyligi darajasi yotadi. Berilgan shifrlash algoritmi uchun kalitning variantlari soni bilan xavfsizlik darajasi baholanadi.

Hozirgi paytga kelib simmetrik yopiq kalit bilan shifrlashning birmunucha kamchiliklari namoyon bo'lmoqda. Maxfiylik saqlangan holda ma'lumot jo'natuvchi va qabul qiluvchi uchun kalitlarni hosil qilish, saqlash va kerakli manzilga yetkazishda murakkabliklar paydo bo'lmoqda. Masalan, bank tizimida moliyaviy faoliyat yurituvchi mijozlar soni juda ko'p bo'lganligidan, ularning har birini alohida yashirin kalit bilan ta'minlash amalda mumkin emas. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlashda asimmetrik kalitlarning afzalliklari ma'lum bo'lmoqda.

**Asimmetrik kalit** usulida ma'lumot jo'natuvchi ochiq kalit bilan axbo-

rotni shifrlaydi, qabul qiluvchi esa yopiq kalit yordamida faylni deshifrlaydi (yashirin ma'lumotni ochadi).

Simmetrik shifrlash usulidagi kamchiliklardan xoli, amerikalik olimlar R. Rivest, A. Shamir va L. Adelman tomonidan kashf etilgan **RSA** asimetrik kalitlar asosidagi shifrlash usuli hozirgi paytda keng tarqalgan. Bank tizimida keng qo'llaniladigan elektron imzoning maxfiyligini ta'minlash **RSA** usuliga yaqin usullar zimmasiga yuklatilgan.

**RSA** usuli bo'yicha kalitlarni hosil qilish algoritmi:

1.  $p$  va  $q$  o'zaro teng bo'lmagan tub sonlar tanlab olinadi;
2.  $n=p*q$  modul hisoblanadi;
3.  $n=(p-1)(q-1)$  hisoblanadi;
4.  $1 < d < n$  tengsizlikni qanoatlantiruvchi va  $n$  soni bilan o'zaro tub bo'lgan  $e$  aniqlanadi;
5. Yashirin  $d$  soni  $(d*e) \text{ mod } n=1$  tenglamani qanoatlantiruvchi qilib tanlab olinadi;

Shunday qilib,  $(e, n)$  – ochiq va  $(d, n)$  – yopiq kalitlar juftligini hosil qildik.

**RSA** usuli bilan shifrlash va deshifrlash.

Matnni  $(e, n)$  ochiq kalit bilan shifrlash uchun:

- shifrlanayotgan matnni  $M(i) = 0, 1, 2, \dots, n-1$ , bloklarga ajratib olamiz;
- matn bo'lagi  $M(i)$  ni  $C(i) = (M(i)e) \text{ mod } n$  formula asosida shifrlaymiz;
- shifrlangan matn bo'lagi  $C(i)$  ni yopiq kalit  $(d, n)$  yordamida  $M(i) = (C(i)d) \text{ mod } n$  formula asosida deshifrlab boshlang'ich matnni hosil qilamiz.
  - Yopiq kalitlarni ochish hal qilib bo'lmas muammoga aylanishi uchun:
    - 1. Ikkita juda katta tub sonlar (masalan har biri 1024 bitdan iborat) ni bir-biridan juda ham uzoq yoki yaqin qilmasdan tanlab olish zarur bo'ladi;
    - 2.  $(p-1)(q-1)$  va  $(q-1)(q-1)$  sonlarning eng katta umumiyligi bo'luvchilari mumkin qadar yaqin bo'lishi zarur;
    - 3. Odatda e soni sifatida Fermaning tub sonlari: 17, 257, 65537, ... olinadi;
    - 4. Yopiq kalit maxfiy saqlanishi zarur.
  - **1-mashq.**
    - $p=3$  va  $q=11$  sonlarni tanlab olamiz;
    - $n=3 \cdot 11=33$  sonni aniqlaymiz;

- $(p-1) \cdot (q-1)=20$ . Demak, shartga ko‘ra, masalan  $e=7$ ;
- $(d \cdot 7) \bmod 20=1$  shartni qanoatlantirsak,  $d=3$  son hosil bo‘ladi;
- Lotin alifbosi harflarini 0 dan 26 gacha bo‘lgan tartibda raqamlab olamiz:  $A=1, V=2, S=3$ ;
- matnni ochiq  $(7,33)$  kalit bilan shifrlaymiz;
- $C(1) = (37) \bmod 33 = 2187 \bmod 33 = 9$ ;
- $C(2) = (17) \bmod 33 = 1 \bmod 33 = 1$ ;
- $C(3) = (27) \bmod 33 = 128 \bmod 33 = 29$ .
- Yopiq  $(3,33)$  kalitdan foydalaniib shifrnini ochamiz:
- $M(1)=(93) \bmod 33 = 729 \bmod 33 = 3 \rightarrow S$ ;
- $M(2)=(13) \bmod 33 = 1 \bmod 33 = 1 \rightarrow A$ ;
- $M(3)=(293) \bmod 33 = 24389 \bmod 33 = 2 \rightarrow V$ .

1977-yili mashhur yozuvchi va aniq fanlarning jonkuyari Martin Gardner [Scientific American](#) jurnalida qiziqarli matematika bo‘yicha risolasini “Oshkor etish uchun million yil ketuvchi mutlaqo yangi shifri” deb nomladi. Shifrlash usulini ko‘rsatib, ochiq kalit uchun n ning qiymatini ham taqdim qildi:

$n = 114\,381\,625\,757\,888\,867\,669\,235\,779\,976\,146\,612\,010\,218\,296\,721\,242\,362\,562\,561\,842\,935\,706\,935\,245\,733\,897\,830\,597\,123\,563\,958\,705\,058\,989\,075\,147\,599\,290\,026\,879\,543\,541$ .

$n$  sonni tub sonlarga ajratgan insonlarga pul mukofoti va’da qildi. Qo‘sishimcha savollar bo‘yicha Massachusset texnologiya instituti xodimlari R.Rivest, A.Shamir va L.Adelmanga murojaat qilishlari mumkinligini bildirdi.  $n$  kalit va shifrlangan matnni ham e’lon qildi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun 600 kishi hamkorlikda 17 yil ishlashlariga to‘g‘ri keldi. Natijada

$p = 32\,769\,132\,993\,266\,709\,549\,961\,988\,190\,834\,461\,413\,177\,642\,967\,992\,942\,539\,798\,288\,533$

$q = 3\,490\,529\,510\,847\,650\,949\,147\,849\,619\,903\,898\,133\,417\,764\,638\,493\,387\,843\,990\,820\,577$  tub sonlari aniqlandi va shifr oshkor etildi.

Shunday qilib, [RSA](#) usulining misli ko‘rilmagan kriptoustuvorligi isbot etildi. Yuqorida 64 va 65 xonalik tub sonlar ishlatilgan. Demak, juda katta sonlar bilan ish ko‘rilgandagina [RSA](#) usulining elektron raqamli imzoni shakllantirishda ustivorligi yuqori bo‘ladi.

**Elektron raqamli imzo (ERI)** – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERIning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERIning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlashdan iborat.

### **Elektron raqamli imzo (ERI) – yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzodir.**

ERI qonunda talab etilgan shartlarga rioya qilinganda qog'oz hujjatga shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga egadir.

ERI ma'lumotlarni **criptografik** o'zgartirish natijasida hosil qilingan belgilarning tartiblangan ketma-ketligidir.

ERI Internet tizimida harakatlanayotgan har qanday hujjat uchun uning yaxlitligini buzish yoki mazmunini o'zgartirish imkoniyati bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda, bunday xatar ayniqsa bank tizimida moliyaviy to'lov xabar nomasi uchun o'ta xavflidir. Chunki xabarnomadagi manzil yoki mablag' miqdorini o'zgartirish o'ta noxush voqealarga olib kelishi muqarrar.

ERIni olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligiga murojaat qilinadi va belgilangan tartibdag'i ariza to'ldirib ro'yxatdan o'tiladi. Ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab bir yil muddatga beriladi va amal qilish muddati shartnoma bilan uzaytiriladi.



### **YODDA SAQLANG !**

Asimmetrik kalit usulida ma'lumot jo'natuvchi ochiq kalit bilan axborotni shifrlaydi, qabul qiluvchi esa yopiq kalit yordamida faylni deshifrlaydi.



### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Simmetrik shifrlash usullarining maxfiylik mezoni nimadan iborat?
2. RSA usuli bo'yicha kalitlarni hosil qilish algoritmini tushuntiring.



### **UYGA VAZIFA**

1. Elektron imzoning mazmuni nimadan iborat?
2. Ingliz tilidagi harflarini 1 dan 26 tartibda raqamlab, "million", "secret", "azamat" so'zlarini RSA usuli yordamida shifrlang va deshifrlang.



## 31-DARS. ELEKTRON HUKUMAT

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholi manfaatlарини та'minlashга xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan bugun **elektron hukumat** degan tushuncha kundalik turmushimizdan chuqur o'rinnegallamoqda.

**Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini hamda idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.**

**Elektron hukumat** barcha ichki va tashqi aloqalarni, jarayonlarni tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanib turadigan hukumat hisoblanib, Internet tarmog'i orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo'g'lnlari tomonidan fuqarolarga elektron vositalar bilan xizmatlar ko'rsatish va fuqarolarga davlat organlarning faoliyati haqida axborot berishdan iborat.

**Elektron hukumat** tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi 10 yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. **Elektron hukumat** AQSH, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Singapur, Norvegiya, Janubiy Koreya, Kanada, Niderlandiya, Daniya hamda Germaniya singari mamlakatlarda samaradorligini ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda juda ko'plab davlat xizmatlaridan uydan chiqmagan holda, onlayn rejimida foydalanishadi. Davlat organlari so'rovlarga javoblar, turli to'lovlar, rasmiy hujjalarning namunasini olish, ularni to'ldirish, **elektron imzo** bilan yuborish, oliy o'quv yurtlarida masofadan turib tahsil olish, ichki ishlar idoralariga ariza bilan murojaat etish va boshqalar shular jumlasidandir. Masa-lan, Janubiy Koreyada shaxslar rasmiy web-sayt orqali o'zining murojaatini ko'rib chiqilishi qaysi bosqichda ekanligini kuzatib borishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ham **elektron hukumat** joriy qilingan bo'lib, u orqali

ko‘plab davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Respublikamizda elektron hukumatning tuzilmasi quyidagicha:



**Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shafafoligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;
- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalgalashish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;
- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;
- aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalgalashish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida “Yagona darcha” tamoyilini joriy etish;

- tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtirushi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida hamda davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;
- tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini hamda kommunal xizmatlarni hisobga olishni, nazorat qilishni va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;
- naqd bo‘limgan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Mazkur vazifalarini bajarish maqsadida respublikamizda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) yaratilgan.

Elektron hukumat 4 ta yo‘nalishda faoliyat olib boradi.

1. **G2G (Government to Government)** – Davlat-davlatga. Bu tizimda davlat boshqaruvi apparati ichki tuzilmalari, markaziy va mahalliy hokimiyatlar, turli davlat idoralari, tashkilot va muassasalari orasidagi o‘zaro munosabatlarda elektron hukumat tizimini joriy etilishishi, elektron hujjat aylanishi, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlashni doimiy monitoring va hisobot shakllari kabi vazifalarni amalga oshiradi.

2. **G2C (Government to Citizens)** – Davlat fuqarolarga. Bu tizimda fuqarolar yagona davlat interaktiv xizmatlari portali orqali, o‘zlarining davlat organlariga ariza, shikoyat yoki taklif kabi murojaatlarini elektron tarzda yuborishlari va ularga javob olishlari, turli xil davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, rasmiy hujjatlarning elektron nusxalarini shakllantirib olishlari, turli xil ma’lumotnoma, xabarnomalarni olishlari, shuningdek, to‘lovlar bo‘yicha tranzaksiyalarni onlayn usulda amalga oshiradilar.

3. **G2B (Government to Business)** – Davlat tadbirkorlarga. Bu tizimda yuridik shaxslar, ishbilarmonlar va tadbirkorlar uchun ruxsatnomalar olish, turli xil rasmiy jarayonlarni interaktiv usulda soddalashtirilgan tarzda amalga oshirish, shuningdek, davlat yig‘imlarini, to‘lovlarni, hisobotlarni va rasmiy murojaatlarni on-layn yuborishga oid xizmatlarni amalga oshiradi.

4. **G2F (Government to Foreigners)** – Davlat xorijliklarga. Bu tizimda davlat va xorijlik shaxslar o‘rtasida milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlarga tayangan holda interaktiv xizmatlar ko‘rsatiladi. Masalan, viza masalalari, investitsiyalar, ta’lim va turizm sohalariga oid xizmatlarni amalga oshiradi.

Bu tizim idoralararo va davlat muassasalari o‘rtasida axborot almashish samaradorligini amalga oshirishga, joylarda rejalashtirish va boshqaruvning sifatini yuksaltirishga xizmat qilishda, jamoatchilik fikrini muntazam monitoring qilib borishda hamda unga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Davlat va biznes munosabatlarida esa ma’muriy tartib-taomillarni avtomatlashtiriladi. Natijada biznesni ro‘yxatga olish, soliq hamda statistika hisobotlarini, boj-xona deklaratsiyalarini topshirishda tadbirkorlarning vaqtini va mablag‘i te-jaladi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida, jumladan, belgilangan tartib-taomillarni buzganlik uchun shikoyat bildirish, tadbirkorni muroja-at qiluvchining mobil telefon raqami orqali identifikatsiya qilish maqsadida ro‘yxatga olish, muhandislik-kommunikatsiya texnologiyalariga ulanish uchun ariza berish, tadbirkorlik subyektlariga o‘zimizda ishlab chiqarilgan avtomobil transporti vositalarini xarid etish uchun ariza berish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olish maqsadida arizani rasmiylashtirish singari xizmatlar joriy qilingan.



## **YODDA SAQLANG !**

Elektron hukumat 4 ta yo‘nalishda faoliyat olib boradi. 1. G2G – Davlat-davlatga. 2. G2C – Davlat fuqarolarga. 3. G2B – Davlat tadbirkorlarga. 4. G2F – Davlat xorijliklarga.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Elektron hukumatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) dan ro‘yxatdan o‘ting.




## UYGA VAZIFA

1. Elektron hukumati faoliyatini nechta yo‘nalishdan iborat?
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz))ning imkoniyatlari bilan tanishib chiqing.

### 32-DARS. ELEKTRON POCHTA XIZMATI TUZILMASI

Elektron pochta (EP) o‘z faoliyatini o‘tgan asrning 70-yilidan boshlagan. Internetning eng birinchi xizmat turlaridan bo‘lib, butun olam to‘rida eng asosiy muloqot vositasiga aylandi. Uning ishlash prinsipi juda sodda bo‘lib, kompyuterda kerakli shaxsga elektron xat jo‘natiladi. Ushbu xat murakkab bog‘langan to‘rlardan o‘tib kerakli manzilga borib yetadi. Internetda elektron pochta orqali xat jo‘natish tuzilmasi quyidagicha:



Tuzilmadagi qisqartmalarning yoyilmasi quyidagicha:

- **Mail User Agent (MUA)** – foydalanuvchining agenti sifatida elektron xatlarni tayyorlash, uzatish, qabul qilish va ko‘rib chiqish vazifasini bajaradi va foydalanuvchining kompyuterida o‘rnatiladi. Xuddu shuningdek, foydalanuvchining agenti sifatida: [Microsoft Outlook](#), [Netscape Communicator](#), [The Bat](#), [Eudora](#), [Elm](#), [Pine](#) va boshqalar bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda [CGI](#) interfeysi qo‘llab, xavfsiz [HTTPS](#) protokollari asosida web-brauzer yorda-

mida faoliyat olib boruvchi agentlar qo'llanilmoqda;

- **Local Delivery Agent (LDA)** – lokal tarmoq orqali yetkazuvchi agentlik;
- **Message Submission Agent (MSA)** – xabar jo'natish agentligi;
- **Mail Transfer Agent (MTA)** – pochta serveri elektron xabarlar Internet tizimidan o'tib boruvchi tugunlardir. **MUA** vositasida tayyorlangan xabar bir yoki bir necha **MTA** lardan o'tib Internet omborxonasiagi alohida foydalanuvchiga tegishli **LDA** ga tushadi. **MTA** ga manzillarni tahlil qilish va shu asosda xabar marshrutini aniqlash vazifasi yuklatiladi. **MTA** uzatilayotgan xabarlarni qayta ishlab, **virus**ga tekshiradi, anonim xat – spamlarni muomaladan chiqaradi.
  - Hozirgi paytda **MTA** vazifalarini amalga oshiruvchi **Postfix**, **smail**, **gmail**, **exim** va boshqa dasturlar ham mavjud.
  - **DNS**-Internet server.

Elektron pochta orqali faqat matn emas, balki jadval, chizmalar, tovush va video fayllarni ham jo'natish mumkin. Bunda pochta bo'limi xizmatini pochta serveri, pochta uzatish vazifasini Internet kanallari bajaradi. Bu yerda shaxsiy pochta qutisi – foydalanuvchining kiruvchi va chiquvchi xatlarini o'zida saqlashga mo'ljallangan pochta serveri diskidagi maydon hisoblanib kompyuterning xotirasini egallamaydi. Server diskidagi maydonga **yandex.ru** foydalanuvchisiga 10 GB, **mail.ruga** 8 GB, **gmail.com**ga esa 15 GB xotira yachevkasi ajratiladi.

**E-mail address turlari:** [gmail.com](mailto:gmail.com), [yandex.ru](http://yandex.ru), [mail.ru](http://mail.ru), [inbox.uz](http://inbox.uz), [umail.uz](http://umail.uz). Ushbu web-saytlarning qaysi biri bilan ishlashning farqi yo'q, foydalanuvchining o'ziga havola etiladi.

**Elektron pochta.** Foydalanuvchining elektron manzilining umumiyl tuzilmasi quyidagicha: **pochta nomi@sayt** nomi. domen ([info@umail.uz](mailto:info@umail.uz))

O'zbekistonda **.uz** domenida xat olish va xat yuborishga ommalashgan web-sayt **umail.uz** va **inbox.uz** bo'lib, dastlab **umail.uz** web-saytida elektron pochta ochish usulini ko'rib o'tamiz. Buning uchun **ID.uz** web-saytiga kiramiz va "Ro'yxatdan o'tish Parolni qayta tiklash" yozuvi tanlanadi.

Natijada ekrannda foydalanuvchining **login**, **familiyasi**, **ismi**, **otasining ismi**, **umail.uz** da pochta qutisi ochish, asosiy pochta qutisi, maqbul parol,

parolni qayta kriting qatorlar va ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tavsija etiladigan qator va kod haqidagi ro‘yxatga olish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu oynadagi qatorlar to‘ldirilib, “Jo‘natish” tugmasi bosiladi.

Yuqorida ketma-ketlikdan so‘ng, [umail.uz](#) sayti yuklanib, “Pochtaga ID.uz orqali kirish” qatoriga ro‘yxatdan o‘tkazilgan [nazarov2018](#) elektron manzil kiritiladi. “Kirish” tugmasini bosish orqali navbatdagi oynaga o‘tiladi va parol kiritish qatoriga ro‘yxatdan o‘tkaziladigan parol kiritilib “Kirish” tugmasi bosilib, navbatdagi oynaga o‘tiladi. Hosil bo‘lgan oynadan [заполнить](#)\* yozuvini tanlash orqali navbatdagi oynaga o‘tiladi va unga mobil telefon raqami kiritilib, [Отправить код подтверждения](#) tugmasi bosilib, ro‘yxatdan o‘tish uchun kod olinadi (kiritilgan telefon raqamiga kod yuboriladi).

Aniqlangan kod kiritilib, [Подтвердить](#) tugmasini bosish orqali navbatdagi oynaga o‘tilib, “Ruxsat berish” tugmasi bosiladi. Natijada sizning shaxsiy elektron pochtangiz paydo bo‘ladi.

Yaratilgan elektron pochta orqali ma’lumotlarni jo‘natish va qabul qilib olish imkoniyati yaratiladi.



## **YODDA SAQLANG !**

Internetda elektron manzilingizni yaratish uchun pochta yaratiladigan saytda ro‘yxatdan o‘tish kerak.



## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Elektron pochta serveri qanday vazifani bajaradi?
2. Internetda o‘zingiz uchun elektron manzilingizni yarating.



## **UYGA VAZIFA**

1. Elektron manzilingiz orqali do‘srlaringizga xabar yuboring.
2. Elektron manzilingizga o‘zingizni rasmingizni joylashtiring.



## **33-DARS. KOMPYUTER VIRUSLARI VA VIRUSDAN HIMYOYALASH USULLARI**

Kompyuter viruslari o‘zini-o‘zi ko‘paytirib, dasturlar va xotiraning tizimli sohalariga kira oluvchi buzg‘unchi dasturlardir.

Viruslarning asosiy maqsadi kompyuterlarni bir maromda ishlash tizimiga zarar yetkazish, foydalanuvchilarni kompyuter tarmoqlaridagi ma’lumotlar va axborotlar manbalaridan foydalanishni cheklashdan iborat.

Umuman olganda, buzg‘unchi dasturiy ta’minotning barchasi umumiy nom ostida **virus**lar deb ataladi. Kelib chiqishi venger bo‘lgan Amerikalik olim Djon fon Neyman 1951-yili o‘zi ko‘payuvchi dasturlar mexanizmi nazariyasini taklif qiladi.

Birinchi **virus**lar sifatida **Apple II** shaxsiy kompyuterlari uchun 1981-yilda yaratilgan **Virus 1,2,3** va **Elk cloner** dasturlari hisoblanadi. 1996-yilda Windows uchun Win95. Boza deb nomlanuvchi birinchi **virus** yaratildi.

Hozirgi paytda ijtimoiy axborot texnologiyalarida **spam** va **fishing virus**lari keng tarqalmoqda.

Kompyuterning **virus**lar bilan zararlanganligi quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi:

- ekranda kutilmagan xabar, tovush yoki tasvirlar hosil bo‘ladi;
- kompyuterda noma’lum dasturlarning ishga tushishi;
- kompyuter tez-tez “osilib” qolishi yoki sekin ishlashi;
- fayllar yo‘olib yoki kengaytmasining o‘zgarib qolishi.

Oldinlari turli ko‘ngilochar dasturlar jamlangan ma’lumot tashuvchi disketlar **virus** tarqalishining asosiy vositasi hisoblangan bo‘lsa, hozirgi paytga kelib, lokal va Internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan **virus**lar asosiy xavf manbaiga aylanib bormoqda.

**Fayl-virus**larning tarqalish mexanizimi **.exe** fayllarning boshlang‘ich qismlariga joylashib, o‘z-o‘zini ko‘paytirishga asoslangan. Ushbu **virus** ma’lum davrda uxlash holatida saqlanishi mumkin va zararlangan faylni vaqt-soati kelganda ishlatalishi natijasida kompyuter faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqdagi barcha **.exe** fayllar orqali halokatli vaziyatlarni hosil qilishi mumkin.

Hozirgi paytda virus tarqalishida fleshkalar, raqamli fotoapparatlar, mobil telefon va smartfonlar asosiy omilga aylanib bormoqda.

**Troyan** nomi ostida ma’lum bo‘lgan **virus** kompyuter xotirasiga biror ochiq dasturiy ta’minot ko‘rinishida kiradi va axborotni yig‘ish, kerakli manzilga jo‘natish, kompyuter tizimini ishdan chiqarish, kompyuter resurslaridan g‘ayriqonuni maqsadlarda foydalanish vazifalarini bajaradi.

Internet tizimlarida yaratilayotgan turli dasturiy ta’minotlarning mavjud yetishmovchiliklardan foydalanishga mo‘ljallangan “chuvalchang” **virus**lari

keng tarqalgan.

**Virus**larni kompyuter xotirasiga kirib olishini istisno qilish uchun quyidagi xavfsizlik tadbirlariga amal qilish lozim:

- adminstratorning alohida imkoniyatlar yaratuvchi yozuvlardan zarurat tug‘ilmasa, foydalanmaslik;
- shubhali manbalardan kelgan noma'lum fayllarni ishga tushirmaslik;
- tizimli fayllarni ruxsatsiz o‘zgartirmaslik.

**Kompyuter viruslarini aniqlash va yo‘qotish, ulardan himoyalanish uchun yaratilgan maxsus dasturlar antiviruslar deb ataladi.**

Antiviruslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- **detektor** – dasturlar;
- **doktor** – dasturlar;
- **revizor** – dasturlar;
- **filtr** – dasturlar.

**Detektor** – dasturlar oldindan ma'lum bo‘lgan **virus** belgilarini tahlil qilish orqali borligi aniqlangandan so‘ng, ushbu **virus** mavjudligi haqida ma'lumot chiqaradi.

**Doktor** – dasturlar **virus**larni topibgina qolmay, undan kompyuter dasturlarini xalos qiladi, ya’ni davoleydi. Ushbu dasturlar ichida keng tarqalganlari **polifagi** deb ataluvchi bir yo‘la ko‘p turli **virus**larni topishga va yo‘qotishga mo‘ljallangan **doktor**–dasturlarni alohida ta’kidlashimiz mumkin. Ularning ichida eng mashhurlari **Kaspersky Antivirus**, **Norton Antivirus**, **ESET ENDPOINT Antivirus** va **Doktor Web** lar hisoblanadi.

**Antivirus**lar ichida eng ishonchli himoya vositasi sifatida **revizor** – dasturlar hisoblanadi. **Revizor**lar kompyuterdagи dasturlarning viruslar bilan zararlanmagan dastlabki holatini yodda saqlaydi va joriy holatni solishtirib boradi. Solishtirish jaroyonida faylning uzunligi, faylning nazorat yig‘indisi, dasturni takomillashtirilgan vaqt, sanasi va boshqa parametrlar tekshiriladi va yig‘ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib **virus**lar yo‘q qilinadi. **Revizor** – dasturlar jumlasiga keng tarqalgan **Kaspersky Monitor** dasturini misol qilishimiz mumkin.

**Filtr** – dasturlar yoki “qorovul”lar ixcham rezident fayllar bo‘lib, kompyuter faoliyatidagi shubhali harakatlarni tekshirib boradi va eng boshlang‘ich holatida, ya’ni ko‘payishga ulgurmasdan aniqlaydi. Masalan:

- **.com, .exe** kengaytmalarini o‘zgartirishga bo‘lgan urinishlar;
- fayl atributlarini o‘zgartirish;
- qattiq diskarning boshlang‘ich **boot sektorlariga** yozuvlar kiritish;
- tashqaridan rezident dasturlar kiritilishini nazoratga olish.

**Doctor Web polifag** dasturi **polimorf** (turli darajali imkoniyatlarga ega) viruslarga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan. Uning ishslash mexanizmi boshqa antivirus dasturlariga o‘xshashdir.

Kompyuter **ESET ENDPOINT Antivirus** dasturi bilan himoyalangan bo‘lsa, dasturga murojaat qilinganda, ekranda muloqot darchasi ochiladi. Ushbu darchaning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

- **состояние защиты** – kompyuterning **viruslardan** himoyalanish holatini aks ettirish;
- **сканирование** – kompyuterni **viruslardan** tekshirish, **viruslarni** yo‘qotish va dasturlarni davolash;
- **обновление** – **antivirus** dasturlari bazasini yangilash;
- **настройка** – dasturni sozlash ishlarini amalga oshirish;
- **служебные программы** – xizmatchi dasturlaridan foydalanish;
- **справка и поддержка** – ma’lumot va qo’llab-quvvatlash kabi bo‘limlarga ega.


Himoyalanish holati faollashtirilishi natijasida kompyuterning himoyalanish darajasi va bazasini yangilash zaruriyati borligi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Tekshirish funksiyasini faollashtirib kompyuterning tezkor xotirasi, qattiq va yumshoq disklar **virusga** tekshiriladi. Zarur bo‘lgan hollarda faqat xotiraning kerakli sohasini **Выборочная проверка** – tanlab tekshirish qismi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter **Обновление** – yangilash yordamida eng kamida bir oyda bir marta **antiviruslar** bazasini yangilab turish zarur. Buning natijasida foydalanuvchi kompyuterni jahon hisoblash to‘rida to‘xtovsiz ishlab chiqilayotgan yangi **viruslardan** himoyalanishni

mustahkamlaydi.

**Sozlash** qismi yordamida kompyuterda joriy vaqt rejimida fayl tizimini, yaratilayotgan hujjatni, Internet tarmog‘i orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tajovuzning oldini olish kabi himoyalash vositalari faoliyatini tashkil etishi mumkin:



**Ishchi dasturlar** yordamida kompyuterni himoyalash rejasini amalga oshirish, statistikasi va monitoringini olib borish, zaruriyat bo‘lganda qaytadan tiklash uchun ehtiyyot disklarini yaratish kabi vazifalarni bajarish mumkin.

**Kaspersky antivirus** dasturi ko‘p tarmoqli va keng imkoniyatli **antivirus** dasturi hisoblanadi. Dasturga murojaat qilinganda, ekranda muloqot darchasi ochiladi. Ushbu darchaning umumiyligi ko‘rinishi quyidagicha:

- **компьютер защищен** – kompyuterning **virus**lardan himoyalanish holatini aks ettirish;
- **проверка** – kompyuterni **virus**lardan tekshirish, **virus**larni yo‘qotish va dasturlarni davolash;
- **обновление – antivirus** dasturlari bazasini yangilash;
- **отчеты – antivirus** dasturi tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar hisobotini chiqarish;
- **экранная клавиатура** – ekranda ramziy klaviaturani faollashtirish;
- **больше функций – antivirus** dasturining qo‘srimcha imkoniyatlarini namoyish etish.

**Проверка** bo‘limi orqali quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- **полная проверка** – kompyuterning barcha qismlarini to‘la tekshirish;

The screenshot shows two windows of the Kaspersky Anti-Virus application. The left window displays a 'Полная проверка' (Full Scan) progress bar at 1% completion, indicating it's scanning files in C:\Windows\SyWOW64\fcadmin.dll. The right window shows a 'Отчеты' (Reports) section with a table of recent scans and reports.

Время	Описание	Статус
За 24 часа	Нейтрализовано 1 угроза	Обновление баз 1 час назад
За последний месяц	Нейтрализовано 19 угроз	Быстрая проверка 10 дней назад
Обновление баз	1 час назад	Помощь системе
Полная проверка	Выполнена 35%	Проверка во время простое
Быстрая проверка	Выполнена 35%	Поиск рутинов
Поиск рутинов	Не выполнена	Поиск уязвимостей
Поиск уязвимостей	44 минуты назад	
Последние проверки	1 часа назад	

- **быстрая проверка** – operatsion tizimning faollashtirilishida boshlang‘ich fayllarni tezkor tekshirish;
- **выборочная проверка** – tanlab olingan obyektlarni tekshirish;
- **проверка внешних устройств** – kompyuterning tashqi qurilmalarini tekshirish;
- **отчеты** – bo‘limini faollashtirish orqali ekranda antivirus dasturi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning to‘la ro‘yxatini chiqarish.

Ushbu antivirus dasturlaridan foydalanilinsa, kompyuterda saqlanayotgan ma’lumotlarning bir butunligini hamda kompyuterga o‘rnatilgan Windows operatsion sistemasining xatosiz ishlashini ta’minlash mumkin.



## YODDA SAQLANG !

Kompyuter viruslari o‘zini-o‘zi ko‘paytirib, dasturlar va xotiraning tizimli sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi buzg‘unchi dasturlar turiga kiradi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kompyuter viruslari deganda nimani tushunasiz?
2. ESET ENDPOINT Antivirusi dasturidan foydalanishni tushuntirib bering.



## UYGA VAZIFA

1. Antivirus dasturlarini qiyosiy tahlil qiling.
2. Kaspersky antivirus dasturidan foydalanishni tushuntirib bering.



## 34-DARS. NAZORAT ISHI

Quyidagi berilgan variantlardan nazorat ishlarini o'tkazishda foydalanish tavsija etiladi.

### 1-variant

1. **MS Power Point 2010** da yaratilgan fayllarni himoyalang.
  2. **MS Word 2010** da yaratilgan ma'lumotlarni arxivlash orqali himoyalang.
  3. Lotin grafikasidagi harflarini 1 dan 26 gacha raqamlab, "million", "secret", "Azamat" so'zlarini **RSA** usuli yordamida shifrlang va deshifrlang.
  4. Kompyuterni himoyalash qanday amalga oshiriladi?
- A. Parol o'rnatiladi; B. Anketalashtiriladi; C. Kodlashtiriladi; D. Yorliq o'rnatiladi.

### 2-variant

1. **MS Word 2010** da yaratilgan fayllarni himoyalang.
2. **MS Word 2010** da arxivlangan ma'lumotlarni oching.
3. Lotin grafikasidagi harflarini 1 dan 26 gacha raqamlab, "Sinf", "Yoshlar", "Aziz" so'zlarini **RSA** usuli yordamida shifrlang va deshifrlang.
4. Biometrik ko'satkichlar bu – A. barmoq izi; B. ko'z qorachig'i; G. yuz tuzilishi; D. Hamma javoblar to'g'ri.

### 3-variant

1. **MS Excel 2010** da yaratilgan fayllarni himoyalang.
2. Shaxsiy elektron pochtangizni yarating.
3. "Maktabimiz faxrimiz" jumlasini o'zingiz shakllantirgan **Kardano trafareti** vositasida yarim betlik matn ichida shifrlang.
4. IP bu – A. Yagona muomala tili standarti; B. Kommunikatsiyalash; G. Aloqa kanallari; D. Kelishuvlar to'plami.

### 4-variant

1. **MS Excel 2010** da yaratilgan varaqni himoyalang.
2. Ma'lumotlarni ko'rinnmas holatga o'tkazing.
3. "Amir Temur – buyk sarkarda" jumlasini Yuliy Sezar usuli yordamida shifrlang.
4. Kompyuterni zararlovchi asosiy manba bu – A.Qattiq disk; B. DVD; G. Internet; D. Printer.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov A.B, Taylaqov N. Informatika. AL va KHK uchun darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2004. 3-nashri. -272 b.
2. Залогова Л.А. Компьютерная графика. Элективный курс: Практикум. – М.: БИНОМ. Л3, 2011. - 245 с.
3. Миронов Д.Ф. Компьютерная графика в дизайне. – СПб.: БХВ – Петербург, 2008. - 560 с.
4. Немцова Т.И. Практикум по информатике. Компьютерная графика и Web-дизайн. Практикум: Учебное пособие. – М.: ИД ФОРУМ, НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 288 с.
5. Пантиюхин П.Я. Компьютерная графика. В 2-х т.Т. 1. Компьютерная графика: Учебное пособие. – М.: ИД ФОРУМ, НИЦ ИНФРА-М, 2012. - 88 с.
6. Поляков К.Ю. Информатика. 10-11 классы. Базовый и углубленный уровни : методическое пособие. – М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2016. -128 с.
7. Семакин И.Г. Информатика и ИКТ. Базовый уровень: учебник для 10–11 классов / И.Г. Семакин, Е.К. Хеннер. – 5-е изд. – М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. -246 с.
8. Скрылина С. Н. PhotoShop CS6. – СПб.: БХВ-Петербург, 2013. -496 с.: ил.
9. Taylaqov N.I. Umumta’lim maktablarida «Kompyuter grafikasi»ni o‘rganishning mazmuni va uni o‘qitish uslubiyoti// «Fizika, matematika va informatika» журнали. 2004. №1. В. 65-73.
10. Taylaqov N.I., Axmedov A.B., Pardayeva M., Abdug‘aniyev A.A., Mirsanov U.M. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-sinf uchun darslik. “Ekstremum-press” nashryoti. 2017. – Т.: -160 bet.
11. Тозик В.Т. Компьютерная графика и дизайн: Учебник для нач. проф. образования. – М.: ИЦ Академия, 2013. - 208 с.
12. Тучкевич Е. И. Adobe PhotoShop CS6.– СПб.: БХВ-Петербург, 2013. -464 с.: ил.
13. Adobe PhotoShop 6. Официальный учебный курс. Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2013. -432 с.: ил.

## M U N D A R I J A

<b>I BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI .....</b>	<b>4</b>
1-dars. Grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari .....	4
2-dars. Ikki va uch o'lchamli kompyuter grafikasi turlari.....	7
3-dars. PhotoShop – rastrli grafik muharririda ishlash asoslari. PhotoShop interfeysi..	11
4-dars. PhotoShopning uskunalar paneli va palitralari .....	14
5-dars. PhotoShopda grafik obyekt fayllari bilan ishlash.....	19
6-dars. PhotoShopda tasvirning geometrik shakl ko'rinishidagi qismini ajratib olish....	23
7-dars. Tasvir bo'lagini ajratib olishning boshqa usullari .....	28
8-dars. Tasvirlarni kadrlash va ularda shakl almashtirish amallarini bajarish.....	31
9-dars. Nazorat ishi.....	36
10-dars. PhotoShopda qatlamlar va ulardan foydalanish.....	36
11-dars. PhotoShopda rang tizimlari .....	42
12-dars. PhotoShopda ranglar bilan ishlash .....	46
13-dars. Kanallar va filtrlar haqida ma'lumot .....	49
14-dars. Mo'yqalam va qalam bilan ishlash.....	51
15-dars. Tasvirga geometrik shakkarni va vektorli obyektlarni joylash .....	55
16-dars. Tasvirga matn joylash.....	59
17-dars. Nazorat ishi.....	64
<b>II BOB. WEB-DIZAYN ASOSLARI.....</b>	<b>65</b>
18-dars. Web-sahifa, web-sayt va web-dizayn tushunchalari.....	65
19-dars. Web-dizayn va uning dasturiy ta'minoti. Macromedia Flash dasturi yordamida web-sahifa yaratish va bezash .....	68
20-dars. Web-sahifalarga rasmi, grafikli ma'lumotlarni joylashtirish va bezash .....	73
21-dars. Web-sahifalarda formalar yaratish va bezash .....	77
22-dars. Web-sahifalarda animatsiyalar va ularni o'rnatish.....	81
23-dars. Amaliy mashg'ulot .....	83
24-dars. Tovushli ma'lumotlar va ular bilan ishlash .....	85
25-dars. Web-sahifalar orasida aloqalarni o'rnatish imkoniyatlari .....	87
26-dars. Nazorat ishi.....	90
<b>III BOB.AXBOROT TIZIMLARI .....</b>	<b>91</b>
27-dars. Axborot xavfsizligi tushunchasi va samaradorligi ko'rsatkichlari.....	91
28-dars. Axborot xavfsizligi muammolari. Axborotlarni himoyalashning tarkibiy qismlari va usullari .....	96
29-dars. Mintaqaviy va global kompyuter tarmog'i va uni himoyalash.....	102
30-dars. Internetda saqlanayotgan axborot manbaalarining xavfsizligi muammolari..	108
31-dars. Elektron hukumat .....	112
32-dars. Elektron pochta xizmati tuzilmasi.....	116
33-dars. Kompyuter viruslari va virusdan himoyalash usullari .....	118
34-dars. Nazorat ishi.....	124

Nº	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Darslik ijara berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta‘mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta‘mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta‘mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

**Taylaqov Norbek Isaqulovich  
Axmedov Akrom Burxonovich  
Pardayeva Mehriniso Doniyorovna  
Abdug‘aniyev Abduvali Abdulhayevich  
Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich**

**INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI**

**O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinflari va o‘rta maxsus,  
kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik**

Muharrir: Husanov B.O‘.

Badiiy muharrir: Asrorov A.

Texnik muharrir: Madiyarov Q.

Kompyuterda sahifalovchi: Abdusalomov A.

Nashriyot litsenziyasi AI № 296. 22.05.2017

Bosishga ruxsat etildi 24.04.2018.

Bichimi 70×90 1/16. «TimesNewRoman» garniturasi.

Hajmi: 8,0 bosma tab. Nashr tab. 4,7. Adadi 432771 nusxada

Original-maket «Extremum-press» MCHJda tayyorlandi.

100053, Toshkent sh. Bog‘ishamol ko‘chasi, 160.

Tel: 234-44-82.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining «O‘qituvchi»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100206,

Toshkent sh. Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.

Buyurtma № 188-18.